

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**G.A.Ibrohimjonova, U.Yu.Yuldoshev**

**MUSIQA NAZARIYASI  
(solfedjio, garmoniya, musiqa asarlari tahlili)  
1-qism**

**DARSLIK**

**5111100-MUSIQA TA‘LIMI YO‘NALISHI**

**Toshkent – 2017**

## Annotatsiya

Pedagogika sohasi “Musika ta’lim” yo‘nalishlarida malakali kadrlar tayyorlash borasida “Musika nazariyasi” o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois ham mazkur fanni o‘qitishga alohida e’tibor qaratish tayanch oliy ta’lim muassasalari oldida katta mas’uliyat yuklaydi. O‘z navbatida mazkur fan tarkibida “Solfedjio”, “Garmoniya” va “Musika asarlar tahlili” kabi fanlar kiritilganligini ham unutmasligimiz lozim. Pedagogika kollejlari hamda umumta’lim maktablarida musika ta’limi o‘qituvchisini tayyorlash kabi dolzarb vazifalarni e’tiborga olgan holda “Musika nazariyasi” fanining darsligi Respublikadagi musika nazariyasi sohasida to‘plangan tajribalardan kelib chiqqan holda, qolaversa xorijiy olimlar Mark Feezellning “Music Theory Fundamentals” (2011), James Tackett “Fundamentals of church music Theory” (2009), Mishael Pilhofer and Holly Daylarning “Music Theory for dummies” kabi ilg‘or adabiyotlaridan foydalanilgan holda yaratilgan bo‘lib, pedagogika sohasidagi “Musika ta’limi” yo‘nalishi bakalavriat bosqichi talabalariga mo‘ljallangan.

Unda bo‘lg‘usi musika o‘qituvchilari egallashi zarur bo‘lgan bilim, malaka va ko‘nikmalar minimumi belgilab berilgan. Kitob boy ma’naviy, madaniy musiqiy merosimizga yangicha yondashuvlarni hisobga olgan holda yaratilgan.

“Musika nazariyasi (solfedjio, garmoniya, musiqiy asarlar tahlili)” darsligida talabalar musiqiy ifodalilikka nisbatan ongli tafakkurni tarbiyalash va ularni idrok etish qobiliyatini hosil qilish, talabalarning musiqiy dunyoqarashini, idrokini shakllantirish va rivojlantirish, musiqiy-estetik didini to‘g‘ri yo‘naltirish va boyitish, ijodiy qobiliyatlarini o‘stirish, talabalarni musika o‘qituvchisi sifatida amaliy faoliyatga tayyorlashdan iborat.

Bo‘lajak musika o‘qituvchisi mazkur kitob yordamida musiqiy tizim, tovush, lad, tonallik, interval, akkord, al’teratsiya, xromatizm, modulyatsiya, kuy, xalq ladhari, turli xil major va minor gammalar, kvarta – kvinta doirasi, intervallar, akkordlar, transpozitsiya, tonalliklar pog‘onadoshligi, xromatizm, xromatik gamma, modulyatsiya va og‘ishma, musika bezaklari kabi bir qancha mavzular bo‘yicha quyidagi ayrim elementlar; garmoniyaning asosiy qonun qoidalarini, akkordlar imkoniyatlarini, stilitsik hususiyatlarini bilishlari, musika asarlarini garmonik tahlil usullari, musika shaklining eng muhim asoslari, musiqiy shaklning muhim elementlari, musiqaning asosiy rivojlantirish printsiplari, shaklning qismlari funktsiyasi, bayon etish turlari va har bir shaklning tuzilish qonun-qoidalari, gamma, interval, akkord, bir va ikki ovozlik kuylarni sof intonatsiyalash, musiqiy diktant yozish, musika elementlarini eshitib aniqlash, kuyga akkompagniment tuzish qonun-qoidalari, major va minorlarning tabiiy, garmonik, melodik gammalarini, tovushdan va tonallikda intervallarni, akkordlarni yechimlarini, har xil tovushlardan xalq musika

ladlari tovushqatorlarini, berilgan tonallikda intervallar va akkordlar ketma-ketligini, diatonik sekvensiyalarni, major va minor xromatik gammalarini yozma ravishda tuzish va fortepianoda chalish, oʻtilgan akkordlarni toʻrt ovoqli tuzilmada turli xil tonalliklarda tuzish va yechib berish, akkordlarni qoʻshishda qonun-qoidaga binoan amal qilish, berilgan akordlar belgilanishlariga qarab akkordlar ketma-ketligini tuzish va fortepianoda ijro etib berish, musiqiy asar shaklining qismlarni aniqlash; uning kuy, garmoniya, ritmlarni oʻzaro aloqadorligini koʻrsatish, musiqa shaklida rivojlantirish printsiplarini bilib, tahlil qilinayotgan asarda ularning ahamiyatini koʻrsatib, har xil tipdagi shakllarning oʻziga xos xususiyatlar usullarini ajratish, intervallar, akkordlar, gammalar tuzish; uncha katta boʻlmagan musiqa asarlarining ladi, tonalligi, obrazlar xarakterini aniqlab tahlil qilish, berilgan kuy yoki basni garmoniyalash, garmonik ketma-ketliklarni davriya shaklida chalib berish, oddiy shakldagi asarni yoki asar parchasini garmonik tahlil qilish, berilgan musiqiy asarda shaklning turi, bayon turi, shakldagi yirik belgilarning raqamli sxemasi har-bir asosiy qismning tahlili va ularning bir-biriga umumiy bogʻlanishini tahlil qilishi, musiqiy mavzular tarkibi, ularning bir xilligi yoki qarama-qarshiligi, xarakteri va mazkur xarakterga erishish vositalaridan foydalanish malakalariga ega boʻlishi kerak. Solʻfedjioning nazariy va amaliy ahamiyati, turli xil major va minor gammalar, kvarta-kvinta doirasi, intervallar, akkordlar, xalq ladlari, transpozitsiya, tonalliklar pogʻonadoshligi, xromatizm, xromatik gamma, modulyatziya va ogʻishma, kuyni ayrim elementlar oʻzaro musobatlari, koʻpincha xalq musiqa ijodidan keng oʻrin olgan lad-garmonik vositalarining qonuniyatlari, asarning ibora, jumla va boshqa qismlarga boʻlinishi haqida bilishi turli hildagi major va minor gammalar, intervallar, akkordlar, xalq ladlarini kuylash kabi qator bilimlarni oʻzlashtirishiga zamin yaratadi.

## I BOB. MUSIQIY TIZIM.

### 1-§. MUSIQIY TOVUSH VA UNING XUSUSIYATLARI.

Tovush fizik hodisa sifatida fizika fani akustika yonalishi tomonidan o'rganiladi. Akustika fanining markaziy muammolari tovush tabiati, uning paydo bo'lishi, taralishi, idrok qilinishi, ta'sir etishi, unga xos bo'lgan xususiyatlari bilan bog'liqdir. Akustika tovush haqidagi fan bo'lib, qayishqoq tebranishlarni, to'lqinlar chastotasini (eng pastkisi 16 gertsdan eng yuqorilari 4500 gerts gacha) tadqiq qiladi. Fizika fani nuqtai nazaridan, tebranishlar o'lchovi sifatida tebranayotgan jismning bir sekunddagi tebranishlari soni **gerts<sup>1</sup> (gts)** birligi qabul qilingan.

Rus olimi M.Lomonosov ilmiy isbotlab berganki, gazsimon moddalar (havo ham bular qatoridan) qayishqoqlik xususiyatga ega bo'lar ekan. Shuning uchun birorta fizik jismning harakatlanishidan havoda sharsimon shaklidagi *tovush to'lqinlari* deb ataladigan tebranish harakatlari osongina yuzaga keladi. Ular eshitish organ (quloq)ga yetgach, unda qo'zg'atishni uyg'otadilar, u esa o'z navbatida nerv tizimi orqali bosh miyaga o'tib, tovush tuyg'usini vujudga keltiradi.

Umumiylashtirib aytganda, tovushning paydo bo'lish "hodisalar zanjiri" quyidagicha amalga oshadi: *tovush to'lqini manbai – tovush to'lqinlari – eshitish organga tovush to'lqinlarining ta'sir etishi – eshitish analizatorlari orqali qabul qilingan qo'zg'atuvchi ta'sirining bosh miyaga uzatilishi.*

Havo to'lqinlarning tebranishlari notekis nodavriy va bir tekis davriy ravishda taralishi mumkin. Shunga qarab, Akustika fani notekis to'lqin tebranishlari hosil qiladigan tovushlarni *shovqinli<sup>2</sup> tovush* va tekis davriy tebranishlardan kelib chiqadiganlarni *musiqiy tonlarga* ajratadi. *Shovqinli tovushlarga* jonli va jonsiz tabiyatga xos tovushlarning cheksiz xilma-xilligi – guvillagan, taqillagan, shitirlagan, g'ichirlagan va boshqa shunga o'xshash tovushlar kiradi. *Musiqiy tovushlarga* ovoz yoki musiqiy cholg'ular - rubob, nay, chang, skripka, fortepiano, goboy, truba va hokazo kabi asboblarda yordamida mutlaq aniqlik bilan takrorlash mumkin bo'lgan tovushlar mansub.

*Musiqiy* tovush musiqa san'atining asosiy ifodali vositasi sifatida atrofdagi voqelikni badiiy jihatdan aks ettirishda xizmat qiladi. Musiqiy tovush, musiqashunos I.Sposobinning fikricha, o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, musiqiy madaniyatning uzoq asrlar mobaynidagi taraqqiy jarayonda saralab olingan ma'lum tovushlar tizimining bir parchasidir.

---

<sup>1</sup> Gerts – ushbu hodisani ochgan fizik olim nomiga qo'yilgan atama.

<sup>2</sup> masalrn: doyra, nog'ra, baraban, tarelka, qoshiqlar tovushlari.



Musiqiy tovush Pifagor, Konfutsiy, Boetsiy, Ibn Sino, J.Sarlono va boshqa olim-mutafakkirlarning nomlari bilan bog‘liq bo‘lgan Musiqiy akustika fanining ilmiy tadqiqotlar predmetidir. Tovushning fizik harakterini ifodalaydigan uchta asosiy akustik xususiyati – **balandlik, dinamika, tembr** tebranish chastotasi (tezligi), tebranish amplitudasi (kengligi), to‘lqin bo‘laklarining soni va ularning tebranish sifatidan kelib chiqadi. Musiqa (akustika emas) nuqtai nazaridan esa tovushning yana bir xosligini aytib o‘tish zarur. U tovushning akustik sifatlariga ta‘sir qilmasada, musiqa ritmi, tempi uyushtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu xoslik – cho‘zimdir va u tebranish davomiyligiga bo‘g‘liqdir.

Xorij adabiyotlarida ham “Musiqaning asosiy elementlari” deb, balandlik, uzunlik, tembr va dinamika berilgan. Ba’zi mualliflar tezlik (ovozdan hosil bo‘lgan fizik tebranishning jadalligi) va tuzilishni ham kiritadilar”.<sup>3</sup>

Tovush **balandligi** tebranayotgan jismning *tebranish chastotasi*, yani *tezligiga* bog‘liqdir. Tebranish qanchalik tez bo‘lib tursa, tovush shunchalik baland eshitiladi, va aksincha, tebranish qanchalik sust bo‘lsa, tovush shunchalik past yangraydi.

Tebranish chastotasi, agar tebranayotgan jism tor bo‘ladigan bo‘lsa, torning uzunligi, qalinligi, qanday materialdan tayyorlanganligi, va taranglik darajasiga bog‘liqdir. Tovush balandligi torning uzunligi bilan o‘zaro aloqador bo‘lganligini yana qadimgi Yunon matematika olimi Pifagor kashf etib, uni nazariy asoslab bergan.

Har bir musiqiy tovush o‘zining aniq belgilangan (gerts o‘lchovi bilan qayd qilingan) balandligiga ega bo‘ladi. Qulog‘imiz tovushlarni balandlik bo‘yicha baland (yuqori), o‘rta va past tovushlarga ajratiladi. Baland tovushlar «nafis», «muloyim», «jarangli», «billur» kabi so‘zlar yordamida ta’riflanishi mumkin. Vatandoshimiz mashxur ayol opera ijrochisi Muyassar Razzokova va dunyoga mashxur ayol opera ijrochisi italiyalik Montserrat Kabalye baland ovoz egalaridir. Xor asarlardagi soprano ovozi partiyasi asosan o‘z ichiga baland tovushlarni qamrab oladi. Skripka, fleyta, nay cholg‘ular ham baland tovushlarni taratadi.

Past tovushlar uchun – «yo‘g‘on», «qo‘polroq» «chuqur», «mayin» kabi so‘zlar ko‘proq qo‘llaniladi. Atoqli maqom ijrochisi Munajat Yo‘lchieva past ovozning sohibasi. Dunyoga mashxur bo‘lgan rus opera ijrochisi Fyodor Shalyapin ham erkaklar ovozlaridan eng past, ya’ni bas ovozda kuylardi. Musiqa asboblaridan tuba, kontrobas, fagot kabilar past tovushlarga ega.


O‘rta tovushlar xor ovozlari alt bilan tenor, cholg‘ulardan violonchel, klarnet, valtorna, rubob, dutorga xarakterlidir. Ularga nisbatan «yumshoq», «qalin», «odam ovozigay» so‘zlarni qo‘llash mumkin. Tenor ovozi egalari – yurtdoshimiz mashxur

---

<sup>3</sup> Mark Feezell. Music theory fundamentals. High-yield music theory, vol.1. 2011, Page 9.

opera ijrochisi Ismoil Jalilov, jaxondagi eng atoqli «tenor»lar – Plachido Domingo, Xose Karreras, Luchchano Pavarotti, Andrea Bachelli xonandalardir.

Tebranayotgan torga qarab turganimizda uning o‘zini qalinligidan ko‘ra yo‘g‘onlashib ketganligini kuzatamiz. Albatta, bu xolat optik illyuziya, ko‘zning aldanishidir. Chunki biz bilamizki tor u va bu tomonlarga tebranayotibdi. Tebranishlarning bir chekka tovushdan ikkinchisigacha bo‘lgan oraliq kenligiga amplituda deyiladi. Tovush manbai bo‘lgan jismning *tebranish amplitudasi* (kengligi) tovushning Ikkinchi xususiyati – **dinamika/qattiqligi** (forte–piano jarangi)ni ta’minlaydi. Tebranish kengligi qancha katta bo‘lsa, tovush shunchalik qattiq, jarangdor, o‘tkir, baqiroq bo‘lib eshitiladi, va aksincha.



1 – rasm.

**Tembr** { XE "Тембр" } deb tovushning sifat xususiyati, uning rang-barangligiga aytiladi.

Gap shundaki, har qanday tovush, ayniqsa musiqiy tovush, murakkab tarkibga ega. Tovush manbai (jism) butunligicha tebranib, asosiy tebranish tezligini, ya’ni eng yaxshi eshitiladigan past balandlikdagi tovushni xosil qiladi. Bu tovushga asosiy ton deb aytiladi. Biroq, shu bilan bir vaqtning o‘zida jismning umumiy uzunligidan teng yarimi, uch qismdan bir, to‘trdan bir, beshdan bir va h.k qismlari ham tebranadi. Har bir qismning tebranish tezligi uziga mos tovushni yaratadi. Bunday ikkinchi, uchinchi darajali tovushlarning balandligi asosiy tovushdan ko‘ra ikki, uch marta balandroq eshitiladi. Chunki, jismning uzunligi qancha qisqa bo‘lsa, shunchalik uning tebranish tezligi oshadi va xosil bo‘lgan tovushning balandligi yuqorilashadi. Ushbu qo‘shimcha, tarkibiy tonlar *oberton*<sup>4</sup> yoki garmoniklar deb ataladi (3- misolga qarang). Asosiy ton jarangida obertonlarning qattiqlik bo‘yicha o‘zaro nisbati, ularning bor yoki yo‘qligi tovushning individual sifatini, boshqa tovushlarga o‘hshamasligini ta’kidlaydi. Masalan: qo‘ng‘iroqchani ko‘rmay turib, uning jarangini shaqildok jarangidan ajrata olamiz yoki onajonimizning ovoz temбри ko‘p ovozlar orasida ham bizga «o‘zgacha» bo‘lib eshitiladi.

<sup>4</sup> *Oberton* – yuqori ton demakdir.

Tembr xususiyatlarini ifodalashda his-tuyg'ularga taalluqli turli iboralar qo'llaniladi, masalan: mayin, keskin, yo'g'on, jarangdor, kuychan tovush deyishadi va h.k.

Ma'lumki, har bir cholg'u asbobi yoki inson ovozi o'ziga xos tembrga egadir. Xilma-xil cholg'u asboblarda eshitiladigan ma'lum balandlikdagi tovushlar o'zlarining rang-barangliklari bilan bir-biridan farq qiladi. Tembrning farqlanishi har bir tovushga xos bo'lgan yuqori tonlarning tarkibiga (tabiiy aks-sadolarga) bog'liqdir.


Yangrayotgan **tovushning cho'zimi** { XE "Товушнинг чўзими" } tebranayotgan jismning to'ldin amplitudasiga bog'liqdir. Tovush cho'zimi tovush manbai tebranishining davom etishiga bog'liq bo'ladi. Masalan, tovush chiqa boshlaganda tovush manbaining tebranishi qanchalik keng bo'lsa, tovushning pasayib borishi ham shuncha uzoq davom etadi. Bunda albatta, tovush manbai bo'lgan jism erkin tebranishi shart.

Mazkur to'rtta sifat har bir tovushda, shuningdek musiqiy fikr va obrazlar ifodalaydigan qator tovushlar birikmasida albatta namoyon bo'ladi.

## 2-§. TABIIY MUSIQIY TOVUSHQATOR, OBERTONLAR.


Turli qalinlikdagi tebranuvchi jism, masalan tor tebranayotib, teng bo'laklarga bo'linishi natijasida tovush to'ldinlarining murakkab shakli vujudga keladi. Jismning umumiy tebranishi jarayonida bu teng bo'lakchalar alohida tebranib, o'zining uzunligiga muvofiq keladigan qo'shimcha to'ldinlar hosil qiladi.

Shunday qilib, yuqori tonlar qo'shimcha oddiy tebranish natijasida hosil bo'ladi. Yuqori tonlarning balandligi har xil bo'ladi, chunki ularni hosil qiladigan tebranish tezligi turlichadir. Masalan, cholg'u asbobi torida birgina asosiy ton eshitilganda edi, uning to'ldinlanish shakli quyidagi grafik tasvirga muvofiq bo'lardi:




Torning teng yarmidan hosil bo'lgan ikkinchi yuqori ton to'ldinining uzunligi asosiy ton to'ldinidan ikki marta qisqa, tebranish chastotasi (tezligi) esa ikki marta tezroq bo'ladi va hokazo.


Yarmidan hosil bo'lgan to'ldin (ikki marta tez):



Uchdan bir qismidan hosil bo'lgan to'ldin (uch marta tez):



To'rtidan bir qismidan hosil bo'lgan to'ldin (4 marta tez)



Torning dastlabki tovushi (asosiy toni) ning tebranish sonini birlik sifatida olsak, yuqori tonlarning tebranish sonlarini quyidagi oddiy raqamlarda ifodalash mumkin: **1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 11, 12, 13, 14, 15, 16** va hokazo.

Muayyan balandlikdagi munosabatda bo'lgan tovushlar qatoriga *musiqaviy tuzilma* deyiladi. Tuzilma tovushlarining o'z balandligiga qarab joylashishi **tovushqator** { XE "ТОВУШҚАТОР" }, tovush esa uning *pog'onasi* deyiladi. Musiqaviy tuzilmaning to'liq tovushqatori **88** ta xilma-xil tovushlarni o'z ichiga oladi. Bu tovushlar (ya'ni eng past tovushlardan eng yuqori tovushlargacha) **16 gts dan 4176 gts tebranishga** egadir. Ana shu tovushlar balandligi inson qulog'i qulay eshita oladigan tovushlardir.

Insonning vokal ovozi taxminan **60** dan **1000** gts gacha bo'lgan diapazonda yangrashi bois, ko'pgina cholg'u sozlar aynan ushbu diapazon doirasida tovush hosil qiladi.

**Yuqori tonlar** { XE "Юқори тонлар" } (obertonlar<sup>5</sup>) tovush to'ldinlarining murakkab shakli natijasida yuzaga keladi. Musiqaning elementar nazariyasi fani musiqaning tembr xususiyatlarini keng o'rganmaydi, bu borada cholg'ushunoslik va orkestrrovka fanlari doirasida bahs yuritiladi.

Tovush manbai tebranishlarining tarkibi deganda quyidagini tushunish lozim. Tovush manbai bir vaqtning o'zida nafaqat butunligicha, balki bo'limlari bo'yicha ham tebranadi. Uning butunligicha tebranishi asosiy tebranish hisoblanib, eng yaxshi eshitiladigan tovushni hosil qiladi. Bu tovush asosiy ton deb ataladi. Har bir bo'lim (jismning umumiy uzunligidan teng yarimi, uch qismidan biri, to'rtidan biri, beshdan biri va h.k)ning tebranish tezligi o'z uzunligiga mos tovushni yaratadi. Bunday qo'shimcha tovushlar asosiy tondan ko'ra ikki, uch marta balandroq eshitiladi.

---

<sup>5</sup> Oberton – yuqori ton demakdir.

Chunki, tovush manbaining uzunligi qancha qisqa bo'lsa, uning tebranish tezligi shuncha oshadi va undan xosil bo'lgan tovush balandligi shuncha yuqorilashadi. Ushbu qo'shimcha, tarkibiy tonlar *oberton* yoki garmoniklar deb ataladi.

Xullas, tovush tarkibiga kirgan obertonlar tovushning rang-barangligini, ya'ni *tembr* xususiyatini vujudga keltiradi. Tembr tovushning individual sifatini, boshqa tovushlarga o'xshamasligini ta'kidlaydi.

### 3-§. MUSIQIY TIZIM, OKTAVA.

*Musiqiy tizim* balandlik bo'yicha o'zaro munosabatlarda bo'lgan muayan tovushlar qatoridan iborat. Tovushlarning balandligi bo'yicha yuqorilama yoki pastlama tartibda ketma-ket joylashuvi *musiqiy tizim tovushqatori* deyiladi. Tovushqatorning har bir tovushiga esa uning **pog'onasi** aytiladi. (Pog'onaning tartib raqami rim raqami bilan ifodalanadi).

Tovushlar bo'g'inli nomlar va harf bilan ataladi. Musiqaviy tuzilma tovushqatorining asosiy pog'onalariga yettita mustaqil nom berilgan:

<b>So'z bo'g'ini bilan</b>	Do	Re	Mi	Fa	Sol	La	Si
<b>Harfli</b>	C	D	E	F	G	A	H

Asosiy bosqichlarga berilgan ushbu nomlar o'rta asrlarda shakllangan. Bu asosiy pog'onalar fortepianoning oq klavishlari tovushlariga mos keladi va ular 52 ta asosiy klavishlardan iborat:



Harfiy tuzilma tonalliklarni ko'rsatish uchun o'zining soddaligi va qisqaligi tufayli Respublikamiz hamda ko'pgina xorij mamlakatlarida keng qo'llaniladi, tovushlarni aks yettirish uchun esa faqatgina ilmiy-musiqiy adabiyotlarda qo'llaniladi. Germaniya, Buyuk Britaniya va Gollandiya singari ba'zi yevropa mamlakatlarida esa harfiy tuzilma hozirgi kunda ham asosiy bo'lib hisoblanadi.

Musiqqa tovushqatoridagi yettita asosiy pog'onaning nomi ma'lum bir vaqtda takrorlanib turadi hamda shu yo'l bilan barcha asosiy pog'onalar tovushlarini o'z ichiga qamrab oladi. Bu yuqori tomon sanalgan, oq klavishlarda chiqariladigan har bir sakkizinchi tovush birinchi tovushga nisbatan ikki marta tezroq tebranishi

natijasida hosil bo‘ladi. Demak, u birinchi boshlang‘ich tovushning ikkinchi yuqori toniga mos keladi va unga hamohang bo‘lib eshitiladi.

**Oktava**- Bir xil nomdagi tovushlar oralig‘idagi eng yaqin masofa **oktava**{ XE "октава" } deyiladi. Tovushqatorning asosiy yetti pog‘onasini o‘z ichiga olgan har bir qismi **oktavalalar** deb aytiladi. Butun tovushqator bir necha oktavaga bo‘linadi. Musiqa amaliyotida har bir oktavaning boshlanish notasi **do** pog‘onasining tovushi deb qabul qilingan.

Musiqaning elementar nazariyasi kursida o‘rganiladigan butun tovushqator yettita to‘liq oktava va tovushqatorning ikki tomoni fortepiano klaviaturasining ikki chetida joylashib, to‘liq bo‘lmagan ikki oktavani tashkil etuvchi to‘rtta tovushdan iborat.


Oktavalar pastdan yuqoriga tomon quyidagicha ataladi: subkontroktava, kontroktava, katta oktava, kichik oktava, birinchi oktava, ikkinchi oktava, uchinchi oktava, to‘rtinchi oktava, beshinchi oktava. Bularidan to‘liq oktavalar – *kontroktava, katta oktava, kichik oktava, birinchi oktava, ikkinchi oktava, uchinchi oktava, turtinchi oktava*; to‘liqsiz oktavalar – *subkontroktava* (uchta tovushdan iborat) va *beshinchi oktava* (bitta tovushdan iborat).



**Oktava** deb birorta notadan yuqoriga yoki pastga keyingi nomdosh notagacha bo‘lgan oraliqqa aytiladi. Masalan, A tovushdan keying A tovushgacha oraliq bir oktavaga tengdir. Oktavalar **sakkizta harfiy nomdagi** notani qamrab oladi: A-B-C-D-E-F-G-A=1-2-3-4-5-6-7-8.


**Amerika standartida oktavalar belgilanishi:** Nota yozuvida **Amerika standarti** bo‘yicha har bir oktava o‘z nomeriga ega bo‘ladi va o‘rtalik C notasi C4 bo‘lib belgilanadi. Har bir C (Do) tovush yangi oktavani o‘z raqami bilan boshlab beradi, shunday qilib C4 dan pastroq joylasjgan B notasi B3 bo‘lib belgilanadi, va C4

dan yuqoriroq joylasjgan D notasi D4 bo‘lib belgilanadi. Alteratsiyalar oktava raqamini o‘zgartirmaydi: B-diyaz 4=C5, va C-bemol 5= B4.




**Gelngols sistemasida oktavalar belgilanishi: Gelngols nota yozuvi** Yevropa va eski ilmiy nashrlarda keng qo‘llanilgan. O‘rtalik C notasi c'(“bir shtrixli C (Do)” deb o‘qiladi). Oktavalar quyidagicha belgilanadi; C., (“**subkontr C**”); C, (kontr C); C (katta C); c (kichik C); c' (bir shtrixli C = o‘rtqlik C); c" (ikki shtrixli C); c''' (uch shtrixli C); va c'''' (to‘rt shtrixli C).

**Ottava Kvintdetasima: Ottava (8va)** bilan belgilanadi va notani bir oktavaga ko‘taradi, **Ottava bassa (8vb)** esa notani bir oktavaga tushiradi. Ottava hamisha nota yo‘li ustidan va ottava bassa nota yo‘li ostida yoziladi. Xuddi shu tariqada ham **Kvintdetsima (15ma)** notani ikki oktavaga ko‘taradi; **Kvintdetsima bassa** notaniikki oktavaga tushiradi.



**Oktavali kalit: Oktavali kalit** musiqa asarini bir oktavaga tushiradi; u ko‘proq tenor ovozi uchun qollaniladi.<sup>6</sup>



<sup>6</sup> Mark Feezell. Music theory fundamentals. High-yield music theory, vol.1. 2011

### ***Tayanich iboralar:***

Tovush tebranishi chastotasi va amplitudasi, obertonlar, tovush tembr, tovushning balandligi, { XE "баландлик" } uzunligi (choʻzimi), qattiqligi (kuchi). tabiiy tovushqator, tovush toʻlqini, qoʻshimcha toʻlqinlar, asosiy ton. balandlik, qattiqlik, choʻzim, tembr, musiqiy tizim, Oberton, yuqori tonlar, tovushqator, asosiy pogʻonalar, oktava. Oktava, subkontroktava, kontroktava, katta oktava, kichik oktava, birinchi oktava, ikkinchi oktava, uchinchi oktava, toʻrtinchi oktava, beshinchi oktava, harfiy tuzilma.

### ***Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:***

1. Fizik va sezgi holatidagi tovush xususiyatlarini ayting.
2. Tovush toʻlqini deb nimaga aytiladi?
3. Sezgi holatidagi tovushga taʼrif bering.
4. Bir sekunddagi tebranishlar soni deganda nimani tushunasiz?
5. Tovushning nechta fizik xususiyati bor?
6. Tovushning balandligi deganda nimani tushunasiz?
7. Tovushning qattiqligi nima?
8. Tovushning choʻzimini tushuntiring.
9. Tovushning tembr xususiyatlarini tushuntiring.
10. Yuqori tonlarga misollar keltiring.
11. Tabiiy tovushqator deganda nimani tushunasiz.
12. Tovush toʻlqini uzunligini tushuntiring.
13. Tebranish chastotasi nima?
14. Musiqaviy tuzilmaga taʼrif bering.
15. Tovushqator deb nimaga aytiladi?
16. Musiqaviy tuzilmaning toʻliq tovushqatori nechta tovushdan iborat?
17. Fortepiano klaviaturasidagi eng past va eng yuqori tovushlar necha gerts tebranishga ega?
18. Insonning vokal ovozi taxminan necha gerts atrofida boʻladi?
19. Musiqaviy tuzilma tovushqatori nomini harfiy va boʻgʻinli shaklda aytib bering.
20. Oktava atamasi necha xil maʼnoda qoʻllaniladi?
21. Fortepiano klaviaturasida nechta toʻliq oktava bor?



## 2- BOB. ZAMONAVIY MUSIQIY SOZ VA TOVUSHLARNING HARFIY SISTEMASI.

### 1-§. MUSIQAVIY SOZ. TEMPERATSIYALANGAN SOZ. YARIM TON VA BUTUN TON. HOSILA POG‘ONALAR VA ULARNING NOMLARI.

Musiqaviy tuzilmadagi tovushlar mutlaq balandligining muayyan o‘zaro ta’sir etishi **musiqaviy soz**{ XE "музыкавий соз" } deyiladi.

Musiqaviy sozlar tarixi kamertonlar tarixi bilan uzviy bog‘liq. Aynan birinchi oktava **lya** tovushi ko‘plab kamertonlarning tayanch tovushi sifatida qabul qilingan edi.

Ushbu etalon tovush manbai sifatidagi kamerton 1711 yili ingliz musiqachisi J.Shor tomonidan ixtiro qilindi va u **419, 9 gts** ni tashkil etar edi<sup>7</sup>. Keyinchalik bir necha marta o‘zgarishga uchrab, nihoyat 1885 yili Vena shahrida bo‘lib o‘tgan xalqaro konferentsiyada **musiqaviy soz** maqomini oldi va bugungi kungacha amal qilib kelmoqda.

O‘sha davrdan boshlab musiqa soziga birinchi oktavadagi **lya** tovushining bir sekunda **440 marta tebranishi** asos qilib olindi. Musiqaviy tuzilmaning har bir oktavasi 12 ta teng qismga - yarim tonlarga bo‘linadi. Bu xildagi musiqaviy sozni **temperatsiyalangan soz**{ XE "темперацияланган соз" } deyiladi. U oktavadagi barcha yarim tonlarning teng bo‘lishi bilan tabiiy tovushqator (soz) dan farq qiladi.

Har bir oktavaning 12 ta teng yarim tonlikka bo‘linganligi sababli, yarim ton musiqa tuzilmasi tovushlari orasidagi eng kichik oraliq hisoblanadi. Ikkita yarim tonlikdan hosil bo‘lgan oraliqqa **butun ton** deyiladi.

Tovushqatorning asosiy pog‘onalari orasida ikkita yarim ton va beshta butun ton bor. Ular quyidagi tartibda joylashgan:

Do	Re	Mi	Fa	Sol	Lya	Si	(Do)
1 ton	1 ton	0,5 ton	1 ton	1 ton	1 ton	0,5 ton	

Asosiy pog‘onalar orasida hosil bo‘lgan butun tonlar yarim tonlarga bo‘linadi. Fortepianoning qora klavishlarini bosganda eshutilgan tovushlar bir tonliklarni yarim tonliklarga bo‘ladi. Shunday qilib, har bir oktava bir-biridan teng oraliqda joylashgan 12 ta tovushdan tarkib topadi.


Musiqa amaliyotidan kelib chiqqan holda tovushqatorning har bir asosiy pog‘onasini ko‘tarish yoki pasaytirish mumkin. Bunda ko‘tarilgan yoki pasaytirilgan

<sup>7</sup> Entsiklopedicheskiy muzikal’niy slovar’. Gosnauchizd. BSE. M., 1959., b-97.


pogʻonalar **hosila pogʻona**{ XE "хосила поғона" }lar deyiladi. Shuning uchun hosila pogʻonalarning nomi asosiy pogʻonalar nomidan kelib chiqadi.


## 2-§. AL'TERATSIYA BELGILARI.

**Al'teratsiya belgilari**{ XE "Альтерация белгилари" \i }-Musiqqa amaliyotida asosan beshta al'teratsiya belgilari qoʻllaniladi: diyez, dubl-diyez, bemol, dubl-bemol va bekar (koʻtarilgan yoki pasaytirilgan tovushni oldingi holatiga qaytarish). bu belgilar quyidagicha yoziladi:

diyez – 

dubl diyez – 

bemol – 

dubl - bemol – 

bekar - 

Al'teratsiya belgilari nota chiziqlariga va oraligʻiga yozilib, lozim boʻlganda notalar oldiga, shuningdek, kalitlarning oʻng tomoniga ham qoʻyilishi mumkin. Masalan:



Kalitdan keyin qoʻyilgan al'teratsiya belgilari **kalit al'teratsiya belgisi**{ XE "калит альтерация белгиси" \i }, notalar oldidan qoʻyiladigan belgi esa **tasodifiy al'teratsiya belgisi**{ XE "тасодифий альтерация белгиси" \i } deyiladi.

Agar al'teratsiya belgilari kalit oldida qoʻyilgan boʻlsa oʻz kuchini butun asar davomida va barcha oktavalarda saqlaydi. Tasodifiy al'teratsiya belgisi esa oʻz kuchini faqatgina bir takt davomida va oʻz oldida turgan tovush uchungina saqlaydi, xolos.

Asosiy pogʻona yarim tonga koʻtarilganda diyez belgisi, yarim tonga pasaytirilganda esa bemol belgisi qoʻyiladi.


Agar tovush ikkita yarim tonga ko‘tarilsa dubl-diyez, masalan, fa – dubl diyez; ikkita yarim tonga pasaytirilsa – dubl bemol, masalan, si-dubl-bemol deb yuritiladi.

Bo‘g‘inli nomi	Harfli nomlari				
	Asosiy pog‘onalar	Diyez	Dubl-diyez	Bemol	dubl-bemol
Do	C	<i>Cis</i>	<i>cisis</i>	<i>ces</i>	<i>ceses</i>
Re	D	<i>Dis</i>	<i>disis</i>	<i>des</i>	<i>deses</i>
Mi	E	<i>Eis</i>	<i>eisis</i>	<i>es</i>	<i>eses</i>
Fa	F	<i>Fis</i>	<i>fisis</i>	<i>fes</i>	<i>feses</i>
Sol	G	<i>Gis</i>	<i>gisis</i>	<i>ges</i>	<i>geses</i>
Lya	A	<i>Ais</i>	<i>aisis</i>	<i>as</i>	<i>ases</i>
Si	H	<i>His</i>	<i>hisis</i>	<i>B</i>	<i>heses</i>

Asosiy pog‘onalarning yuqorida ko‘rsatilgan tartibda ko‘tarilish va pasayishiga al’teratsiya<sup>8</sup> deyiladi.

**Alteratsiya belgilari:** Qora klavishlarni nomlash uchun ularga nisbatan eng yaqin joylashgan oq klavishning harfiy nomiga tovush balandligini o‘zgartiruvchi (modifikator, alteratsiya) belgi atamasini qo‘shib aytishadi. Alteratsiya belgilari quyidagilardir:

- = **bemol**; oq klavishdan bitta yarim tonga **pastroq** (chap tomonida) joylashgan klavisha.
- = **bekar**; yuz bergan o‘zgarishlarni bekor qiladi; klaviaturada oq klavishlarni ko‘rsatadi.
- = **diyez**; oq klavishdan bitta yarim tonga **yuqoriroq** (ong tomonida) joylashgan klavisha.



<sup>8</sup> Al’teratsiya – o‘zgartirish ma’nosini bildiradi.

**Engarmonik notalar: Engamonik notalar** degani bu bitta klavishni har xilcha nomlashdir. Masalan, Do-diyez deb ataladigan klavisha C dan yarim ton yuqori shuningdek D dan yarim ton pastroq joylasigan. Do-diyez bilan Re-bemol engarmonik notalardir. Oq klavishlar ham engarmonik nomlarga ega bo‘lishi mumkin: yarim tonga ko‘tarilgan B diyezi bilan C oq klavishda joylashadi.

**Dubl bemol, dubl diyez: Dubl bemol** bemollangan notani, uning harfiy nomini saqlab qolib, yana bir boshqa yarim tonga pasaytiradi. Dubl bemollar, shunday qilib, oq klavishdan ko‘ra ikkita yarim tonga pastroq joylashadilar. Xuddi shunday, **dubl diyez** (ko‘rinishi x ga o‘xshaydi) diyezlangan notani, uning harfiy nomini saqlab qolib, yana bir boshqa yarim tonga ko‘taradi. Dubl diyezlar oq klavishdan ko‘ra ikkita yarim tonga yuqoriroq joylashadilar.<sup>9</sup>

### 3-§. DIAPAZON. REGISTR. TOVUSHLAR ENGARMONIZMI.

Musiqiy tovushqatorning eng past tovushdan eng yuqori tovushgacha bo‘lgan umumiy hajmi **musiqiy diapazon** deyiladi. Inson tovushi yoki cholg‘u sozining diapazoni deganda ular ifodalay oladigan umumiy musiqiy diapazon nazarda tutiladi (masalan, fortepiano diapazoni  $A_2 - s^5$ ).

**Registr**{ XE "Регистр" } deb, ovoz yoki cholg‘u sozining alohida xarakterga ega bo‘lgan tovush tusi bilan ajralib turadigan qismi (bo‘lak, parcha)ga aytiladi.

Umuman olganda;

- o‘rta registrga** - kichik, birinchi va ikkinchi oktavalarni;
- yuqori registrga** - uchinchi, to‘rtinchi va beshinchi oktavalarni;
- pastki registrga** - subkontroktava, kontroktava va katta oktavani kiritish mumkin. Forteplano cholg‘usining registrlarga bo‘linishi:

---

<sup>9</sup> Mark Feezell. Music theory fundamentals. High-yield music theory, vol.1. 2011



Turli cholgʻu sozlarining registri koʻpincha bir-biriga mos boʻlmaydi, masalan, basning yuqori registri alʼning pastki registriga mos boʻladi, yoki valtornada yuqori registrga xos boʻlgan tovushlar klarnetning oʻrta registriga toʻgʻri keladi.

Shu sababdan, har bir tovush oʻzidan yarim ton pastda joylashgan asosiy pogʻonaning koʻtarilishi yoki oʻzidan yarim ton yuqori joylashgan asosiy pogʻonaning pasaytirilishi natijasida *hosila tovush* { XE "хосила товуш" } boʻlishi mumkin, masalan, fa-diyez va sol-bemol.

Ijroda balandligi bir xil, lekin nomi va yozilishi har xil boʻlgan pogʻonalar tengligiga **tovushlar engarmonizmi** { XE "товушлар энгармонизми" } deyiladi. Hosila pogʻona asosiy pogʻona bilan bir xil balandlikda ham boʻlishi mumkin, masalan, si-diyez bilan do yoki fa bemol bilan mi.

Fortepianodagi har bir qora klavishning ikkita nomi borligini yodda tuting. Uning oʻngidagi oq klavishning yarim tonga pasayishi va chapda turgan klavishning koʻtarilishi natijasida eshitiladigan tovushlar – tenglik sifatida keladi.<sup>10</sup>

Agar tovush ikki baravar koʻtarilsa (asosiy pogʻona ikki marta yarim tonga koʻtariladi) yoki ikki baravar pasaytirilsa ham shu holni koʻramiz. Masalan, fa-dubl diyez bilan sol; mi-dubl-diyez bilan fa-diyez; mi dubl bemol bilan re; do-dubl bemol bilan si bemol va h.k.

**Barcha engarmonik nomlar:** Quyida keltirilgan fortepiano klaviaturasida klavishlarning barcha engarmonik nomlari koʻrsatilgan.

	C#	D#		F#	G#	A#		C#	D#	
	Db	Eb		Gb	Ab	Bb		Db	Eb	
	Bx	Fb		Ex		Cb		Bx	Fb	
	C	D	E	F	G	A	B	C	D	E
	Bb	Cb	Db	Eb	Fb	Gb	Ab	Bb	Cb	
	D#	E#	F#	G#	A#	B#	C#	D#	E#	F#

<sup>10</sup> Michael Pilhofer and Holly Day - Muzik Theory for dummies - Indiana USA 2007 - Wiley Publishing Inc. Page 100.

**Butun ton:** butun ton ikkita yarim tondan iborat. Masalan, C dan yuqoriga D gacha oraliqni ikkita yarim tonliklar Do dan Do-diyez va Do-diyez dan Re gacha to'ldiradi.<sup>11</sup>

#### 4-§. DIATONIK HAMDA XROMATIK YARIM TONLAR VA BUTUN TONLAR

Oldingi mavzularda yarim ton va butun ton nima ekanligi haqida ta'rif berib o'tgan edik. Endi diatonik va xromatik yarim tonlar hamda butun tonlar bir-biridan nima bilan farq qilishini aniqlab olamiz.

Tovushqatorning yonma-yon joylashgan kichik pog'onasi orasida hosil bo'lgan yarim tonga **diatonik yarim ton** { ХЕ "диатоник ярим тон" \i } deyiladi. Tovushqatorning asosiy pog'onalari **mi-fa** va **si-do** yarim tonlarini hosil qiladi.

Bundan tashqari, asosiy tonlar bilan yonma-yon joylashgan ko'tarilgan yoki pasaygan hosila pog'onalar orasida ham diatonik yarim tonlar hosil bo'lishi mumkin. Masalan:



Bundan tashqari, ikki hosila pog'onalar orasida ham diatonik yarim tonlar hosil bo'lishi mumkin.



Xromatik yarim ton deb quyidagicha paydo bo'lgan tonlarga aytiladi:

a) asosiy pog'ona bilan uning ko'tarilgan yoki pasaygan pog'onasi orasida hosil bo'lgan yarim tonga **xromatik yarim ton** { ХЕ "хроматик ярим тон" \i } deyiladi. Masalan:



<sup>11</sup> Mark Feezell. Music theory fundamentals. High-yield music theory, vol.1. 2011


Ko‘tarilgan pog‘ona bilan uning ikkita baravar ko‘tarilgan pog‘onasi orasida, pasaygan pog‘ona bilan uning ikki baravar pasaygan pog‘onasi orasida hosil bo‘lsa. Masalan:



Ikkita yonma-yon pog‘ona orasida hosil bo‘lgan butun tonlar *diatonik butun tonlar* deyiladi. Bir oktava orasida asosiy pog‘onalar beshta butun tonni hosil qiladi:



Bundan tashqari, diatonik tonlar asosiy pog‘ona bilan hosila pog‘ona orasida,



shuningdek, ikkita hosila pog‘ona orasida ham paydo bo‘lishi mumkin.



Xromatik ton diatonik o‘lchamning qismi hisoblanmaydi. U keyingi bosqishga o‘tishda al’teratsiya orqali ko‘tarilishga izn beradi. Bular 5 ta balandlikni C-D, D-E, F-G, G-A, A-H. orasidagi pog‘onalarni nazarda tutadi.<sup>12</sup>

Xromatik butun tonlar deb quyidagicha paydo bo‘lgan tonlarga aytiladi:

a) asosiy pog‘ona bilan uning ikki baravar ko‘tarilishi yoki pasayishi orasida hosil bo‘lsa.




b) bitta asosiy pog‘onadan iborat ikkita hosila pog‘ona orasida hosil bo‘lsa:


<sup>12</sup> James Tackett. “Fundamentals of church musik Theory” Austin Christian Akappella Musik. Abilene Christian University. 2009. Page 37.



v) bir pogʻonaning ikki chetidagi pogʻonalar orasida hosil boʻlsa.



**Fortepiano klaviaturasi:** Ushbu paragrafda fortepiano klaviaturasidan foydalaniladi, lekin atama va tushunchalar boshqa cholgʻu asboblarda shuningdek ovozga ham taalluklidir. Fortepiano klaviaturasi takrorlanadigan namuna dan tashkil topgan: ikki qora lavishli guruh uch qora klavishli guruh bilan almashinib keladi. Har **ikki** qora klavishli guruhning chap yonginasidan kelgan oq klavisha C harf bilan belgilangan. G harfli klavishadan keyingilari qaytadan A harf bilan boshlab nomlanadi.



**Yarim ton. Diatonik (tabiiy) yarim ton:** Yarim ton deb birorta fortepiano klavishasidan unga eng yaqin joylashgan (u xoh qora, xoh oq boʻlsin) keyingisigacha boʻlgan oraliqqa aytiladi. E dan F gacha oraliq yarim tondir, chunki E bilan F birin-



ketin joylashgan. Xuddi shunday, B dan C gaha ham yarin ton. E dan F gacha va B dan C gaha oraliq **diatonik (tabiiy) yarim tondir**, chunki bu klavishlar harf nomlari qo‘shimchalar (alteratsiya belgilari)siz aytiladi.<sup>13</sup>

## 5-§. TOVUSHLARNING HARFIY TUZILMADA IFODALANISHI

Musiqa amaliyotida tovushlarni bo‘g‘in bilan yozishdan tashqari, lotin alfaviti asosida harf bilan yozish usuli ham keng qo‘llaniladi.

Yyetti asosiy pog‘ona quyidagicha belgilanadi:

<b>C</b>	<b>D</b>	<b>E</b>	<b>F</b>	<b>G</b>	<b>A</b>	<b>H</b>
<b>Do</b>	<b>Re</b>	<b>Mi</b>	<b>Fa</b>	<b>Sol</b>	<b>Lya</b>	<b>Si</b>

Nota tovushlarining harfli tuzilmasi lotin alfavitiga asoslangan. Tovushlarning alfavit tartibi bo‘yicha biroz noto‘g‘ri joylashuviga sabab shuki, o‘rta asrlarda asosiy tovush lya (**a**) hisoblangan va undan so‘ng si bemol (**b**) tovushi kelgan. O‘sha davrda tovushqator quyidagicha bo‘lgan:

<b>A</b>	<b>B</b>	<b>C</b>	<b>D</b>	<b>E</b>	<b>F</b>	<b>G</b>
<b>Lya</b>	<b>Si bemol</b>	<b>Do</b>	<b>Re</b>	<b>Mi</b>	<b>Fa</b>	<b>Sol</b>

Keyinchalik si tovushining ahamiyati si bemol tovushidan ko‘ra kuchaydi. Bu uchun alfavit tartibida **a** va **g** dan so‘ng **h** ga zarurat sezilib qoldi.

Hosila pog‘onalarni yozish uchun harflarga qo‘shimcha bo‘g‘inlar qo‘shiladi: **is** – diyez; **isis** – dubl diyez; **es** – bemol; **eses** – dubl bemol. Masalan:

**Cis** – do diyez; **fisis** – fa dubl diyez. **Des** – re bemol; **geses** – sol dubl bemol.

Hosila pog‘onalardan faqat si bemoldagina qo‘shimcha bo‘g‘in bo‘lmaydi. Uning **V**, **v** harfi bilan yozilishi saqlanib qolgan.

**Es** bo‘g‘inida unli **a** va **e** harflari uchrasa, talaffuzning qulay bo‘lishi uchun **e** harfi aytilmaydi; mi bemolda ees o‘rniga **es**; lya bemolda **aes** o‘rniga **as** qo‘llaniladi va h.k.

Har bir oktavani belgilashda harflar ustiga qo‘shimcha raqamlar yoki chiziqchalar yoziladi. Katta va kichik oktavalarning tovushi katta yoki kichik harflar bilan yoziladi. Masalan, katta oktavaning lya tovushi katta **A** harfi bilan, kichik oktavaning sol tovushi – kichik **g** harfi bilan yoziladi.

Birinchi oktavadan beshinchi oktavagacha bo‘lgan tovushlar qaysi oktavaga tegishli bo‘lsa shunday raqam, chiziqlar yoki kichik harflar bilan belgilanadi. Masalan:

<b>OKTAVALAR</b>	<b>HARFLAR BILAN BELGILANISHI</b>
------------------	-----------------------------------

<sup>13</sup> Mark Feezell. Music theory fundamentals. High-yield music theory, vol.1. 2011


SUBKONTROKTAVA	<b>Lya<sub>2</sub>, Si<sub>2</sub>;</b> A <sub>2</sub> , H <sub>2</sub>
KONTROKTAVA	<b>Do<sub>1</sub>, Re<sub>1</sub>, Mi<sub>1</sub>, Fa<sub>1</sub>, Sol<sub>1</sub>, Lya<sub>1</sub>, Si<sub>1</sub></b> C <sub>1</sub> , D <sub>1</sub> , E <sub>1</sub> , F <sub>1</sub> , G <sub>1</sub> , A <sub>1</sub> , H <sub>1</sub>
KATTA OKTAVA	<b>Do, Re, Mi, Fa, Sol, Lya, Si;</b> C, D, E, F, G, A, H
KICHIK OKTAVA	<b>do, re, mi, fa, sol, lya, si;</b> c, d, e, f, g, a, h
BIRINCHI OKTAVA	<b>do<sup>1</sup>, re<sup>1</sup>, mi<sup>1</sup>, fa<sup>1</sup>, sol<sup>1</sup>, lya<sup>1</sup>, si<sup>1</sup>;</b> c <sup>1</sup> , d <sup>1</sup> , e <sup>1</sup> , f <sup>1</sup> , g <sup>1</sup> , a <sup>1</sup> , h <sup>1</sup>
IKKINCHI OKTAVA	<b>do<sup>2</sup>, re<sup>2</sup>, mi<sup>2</sup>, fa<sup>2</sup>, sol<sup>2</sup>, lya<sup>2</sup>, si<sup>2</sup>;</b> c <sup>2</sup> , d <sup>2</sup> , e <sup>2</sup> , f <sup>2</sup> , g <sup>2</sup> , a <sup>2</sup> , h <sup>2</sup>
UCHINCHI OKTAVA	<b>do<sup>3</sup>, re<sup>3</sup>, mi<sup>3</sup>, fa<sup>3</sup>, sol<sup>3</sup>, lya<sup>3</sup>, si<sup>3</sup>;</b> c <sup>3</sup> , d <sup>3</sup> , e <sup>3</sup> , f <sup>3</sup> , g <sup>3</sup> , a <sup>3</sup> , h <sup>3</sup>
TO'RTINCHI OKTAVA	<b>do<sup>4</sup>, re<sup>4</sup>, mi<sup>4</sup>, fa<sup>4</sup>, sol<sup>4</sup>, lya<sup>4</sup>, si<sup>4</sup></b> c <sup>4</sup> , d <sup>4</sup> , e <sup>4</sup> , f <sup>4</sup> , g <sup>4</sup> , a <sup>4</sup> , h <sup>4</sup>
BESHINCHI OKTAVA	<b>do<sup>5</sup>;</b> c <sup>5</sup>

Kontroktava bilan subkontraktava tovushlari qaysi oktavaga tegishli bo'lsa, ostiga yoziladigan shunday raqamlar yoki chiziqlar va katta harflar bilan belgilanadi. Masalan: kontraktavaning **si** tovushi – H<sub>2</sub>, subkontraktavaning **lya** tovushi – A<sub>2</sub>.

**O'rtalikdagi C notasi:** O'rtalikdagi C fortepiano klaviaturasi qoq o'rtasining chap tomonidan joylashgan C (Do) tovushdir; skripka kalitida o'rtalik C notasi nota yo'li ostidagi birinchi qo'shimcha chiziqda yoziladi. Bas kalitida o'rtalik C notasi nota yo'li ustidan birinchi qo'shimcha chiziqda yoziladi. Do kalitlari, ya'ni alt va tenor kalitlarida, o'rtalik C notasi kalit belgisining markaziy nuqtasiga to'g'ri kelib yoziladi. Quyida ko'rsatilgan barcha notalar fortepianoning bittagina klavishni (o'rtalik C notasini) namoish etadi.

### *Tayanch tushunchalar:*

Musiqaviy soz, temperatsiyalangan soz, yarim ton, butun ton, hosila pog'onalar,



kamerton, etalon tovush, 440 marta tebranish, diyez, dubl-diyez, bemol, dubl-bemol, bekar, nota chiziqlari va oralig'i, kalit al'teratsiya belgisi { XE "калит альтерация белгиси" \i }, tasodifiy al'teratsiya belgisi Diapazon, registr, tovushlar

engarmonizmi, musiqiy diapazon, tovush tusi, o'rtta registr, yuqori registr, pastki registr, hosila tovush{ ХЕ "ХОСИЛА ТОВУШ" }. Diatonik hamda xromatik yarim tonlar, diatonik hamda xromatik butun tonlar, yonma-yon joylashgan kichik pog'ona.

***Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:***

1. To'liqsiz oktavalар qaysilar?
2. Oktava qaysi raqam bilan belgilanadi?
3. Katta oktava tovushlari raqamlari qanday qo'yiladi?
4. Qaysi notada qo'shimcha bo'g'in bo'lmaydi?
5. Musiqaviy soz deb nimaga aytiladi?
6. Kamerton qachon ixtiro qilingan?
7. Temperatsiyalangan soz deganda qanday soz tushuniladi?
8. Musiqiy soz standarti (etaloni) sifatida qaysi tovush qabul qilingan?
9. Yarim tonni tushuntiring.
10. Butun tonni ta'riflang.
11. Tovushqatorning asosiy pog'onalar orasida nechta yarim va butun ton bor?
12. Hosila pog'onalarni ta'riflab bering.
13. Al'teratsiya belgilari nimani ifodalaydi?
14. Nechta al'teratsiya belgisi bor?
15. Al'teratsiya so'zining ma'nosi?
16. Dubl-bemol nimani anglatadi?
17. Kalit al'teratsiya belgisi deganda nimani tushunasiz?
18. Tasodifiy al'teratsiya belgisi nima maqsadda qo'llaniladi?
19. Musiqiy diapazon deganda nimani tushunasiz?
20. Registr atamasi qanday ma'noga ega?
21. Necha xil registr bor?
22. Tovushlar engarmonizmini tushuntiring.
23. Hosila tovush qay holatda paydo bo'ladi?
24. Diatonik yarim ton deganda nimani tushunasiz?
25. Berilgan tovushdan xromatik yarim ton tuzing.
26. Xromatik butun tonga misollar keltiring.
27. Berilgan tovushdan xromatik butun ton tuzing.
28. Bir pog'onaning ikki chetidagi pog'onalar orasida hosil bo'lgan ton qanday ataladi?

**3-BOB: NOTA TIZIMI.**




**1-§. NOTA YOZUVI**

*Nota yo‘zuvi* – bu tovushlarni *nota* deb ataluvchi yo‘zma belgilar yordamida ifodalashga qaratilgan tizimdir.

Ko‘p asrlar mobaynida musiqa asarlarini qog‘ozga aniq tushurish uchun qulay ko‘rgazmali yozuv tizimini topishga harakatlar qilingan edi. Musiqiy matnni qog‘ozga tushirishdagi murakkablik shunda bo‘lganki, tovushning *balandlik va cho‘zim* xususiyatlarini bitta belgi bilan ifodalash zarur edi. Bunday belgi *nota*<sup>14</sup> degan nom oldi. Nota yozuvining ilk turi qadim Yunoniston san‘atida paydo bo‘lgan harfiy notatsiyasidir (notalar tizimi).

IX asrda g‘arbiy Evropa musiqa nazariyotida tovushlarning nisbiy balandligini va kuy xarakati yo‘nalishini *nevma* belgilari yordamida grafik aks ettirishga urinishlar qilingan edi. Biroq ular tovush balandligi o‘zgarishini taxminan ko‘rsata olar edi.

### Nevmalar



Nevma yozuvi faqatgina *vokal musiqa* asarlarini qog‘ozga tushirish uchun qo‘llanilardi.


O‘rta asrlar davrida ilm, yozuv, bilimlar “madaniyat o‘chog‘i” deb hisoblangan monastirlarda to‘plangan edi. X asr oxirida Korbi nomli fransuz monastir rohiblari tomonidan musiqiy yozuvga nevmalarni kesib o‘tadigan gorizontaal qizil chiziq kiritildi. Uni ustiga yozilgan nevmalar kichik oktavaning *fa* tovushi deb xisoblanar edi. Keyinchalik unga yana bitta – sariq rangli chiziq qo‘shildi va qizil chiziqdan yuqoriroq joylashib, birinchi oktavaning *do* tovushini bildirardi.

Musiqa nazariyotining haqiqiy islohotchisi, zamonaviy nota yozuvning asoschisi Gvido d’Aretstso (XI asr) geksaxordlar tizimi, pog‘onalarni nomlashdan tashqari, to‘rt chizikli nota yo‘lini ham barqaror qildi. Kelgusida nota yo‘lining chiziqlarini

<sup>14</sup> Nota - (lotincha *nota*) – yozuv belgisi, belgi. Tovushning grafik ishorasi.

ko‘paytirish va kamaytirish kabi xarakterlar qilindiyu, ammo bu urinishlar muvaffaqiyatga uchramadi. Nihoyat, XIV asrda besh chizikli nota yo‘li barpo etilib, xozirgacha eng qulay nota yo‘li sifatida qo‘llanilmoqda. Bunga sabab – beshta chiziqqa (qo‘shimcha chiziklarsiz) ashulachi ovozinig barcha o‘rta balandli tovushlarini (*tesstiura*<sup>15</sup>) yozib joylashtirish mumkinligi hamda nota o‘qishda mo‘ljallanib olingan o‘rta chiziqning tez va osonlik bilan topilishidir.


Nota belgisi ichi oq yoki bo‘yalgan oval shaklida yoziladi. Tovushning cho‘zimini ko‘rsatish uchun notaga vertikal tayoqcha (shtil), dumcha, nuqta qo‘shilishi mumkin. Notalar beshta gorizontal parallel chiziqlar tizimi deyiladigan *nota yo‘li*ga joylashadi – chiziqlar ustiga yoki ular orasiga yoziladi.



Nota yo‘lining chiziqdari pastdan yuqoriga tomon sanaladi.

Asosiy chiziqlardan tashqari qisqa ham ishlatilishi mumkin. Ular nota yo‘lining tepasidan yozilsa, pastdan yuqoriga tomon, yoki nota yo‘lining pastidan yozilsa, yuqoridan pastga tomon sanaladi.

Odatda nota yo‘li boshida beshta chiziqni birlashtiradigan vertikal *boshlang‘ich chiziq* qo‘yiladi. Ko‘p xollarda musiqiy asar matni bir vaqtning o‘zida ikkita, uchta va undan ortiq nota yo‘lida bayon etilishi zarur bo‘ladi. Shunda, barcha nota yo‘llari umumiy boshlang‘ich chiziq bilan birlashtiriladi. Unga qo‘shilib yana *akkolada* deyiladigan kavs ham yoziladi.



*Figurali akkolada* fortepiano, organ, arfa, bayan uchun yozilgan asarlar, *to‘g‘ri akkolada* ansambl, xor yoki orkestr uchun yaratilgan asarlarning yozuvida qo‘llaniladi.

Musiqiy ohanglarni qog‘ozda aks ettirishga urinishlar tajribasi uzoq asrlarga borib taqaladi. Bularga tabulatura, xorazm tanbur chizig‘i va h.k.larni kiritish mumkin.

Hozirgi kunda dunyo musiqa amaliyotida qo‘llaniladigan nota yozuvi yagona standartlarga asoslangandir.

<sup>15</sup> Tessitura – (italiyancha *tessitura*)– mato. Ovozdag i ustunlik kiluvchi registr.

Musiqiy tovushlar notalar<sup>16</sup> vositasida yoziladi. Ular o‘rtasi bo‘yalmagan yoki bo‘yalgan doirachalardan iborat bo‘ladi.

Tovushlar turli cho‘zimlarga ega bo‘lganligi uchun ular vertikal *tayoqchalar* (*shtillar*), *bayroqchalar*, qisqa cho‘zimli tovushlarni bir guruhga birlashtirish uchun esa *qovurg‘achalar* - qo‘shimcha gorizontaal chiziqchalar bilan belgilanadi.

Tovushlar balandligini aniq belgilash uchun notalar beshta parallel chiziqdan iborat nota yo‘liga joylashtiriladi. Chiziqlar pastdan yuqoriga qarab sanaladi. Nota yo‘lining boshlanish qismida besh chiziqni birlashtiruvchi vertikal chiziq qo‘yiladi. Bu vertikal chiziq *boshlang‘ich chiziq* deb aytiladi.


Notalar asosiy chiziqlardan tashqari nota yo‘lidagi chiziqlar ustida va oralig‘ida yoziladi. Masalan:



## 2-§. NOTA CHO‘ZIMLARI

Tovush cho‘zimlari nomlari va ularning nota bilan yozilishi quyidagicha bo‘ladi:

Eng katta cho‘zimli tovush brevis deb yuritiladi:



Katta cho‘zimli tovush - butun nota (1)

Butun cho‘zimli tovushning ikki marta



qisqargani – yarimtalik nota (1/2)

Yarimtalikning ikki marta qisqargani – chorak nota (1/4)



Chorakning 2 marta qisqargani – nimchorak nota (1/8)



Nimchorak notaning ikki marta qisqargani  
O‘n oltitalik nota (1/16)



O‘n oltitalik notaning ikki marta  
qisqargani – o‘ttiz ikkitalik nota (1/32)




<sup>16</sup> Nota – lotincha so‘z bo‘lib belgi, yozuv ma‘nosini bildiradi.

O‘ttiz ikkitalik notaning ikki marta qisqargani – oltmish to‘rttalik nota (1/64) va h.k.



### Cho‘zimlarning bo‘linish jadvali.



Notalarning ritmik darajasi o‘zgaras uzunlikni emas, balki nisbiy uzunlikni ifodalaydi. Har bir notaning ritmik darajasi keyingi uzunroq darajaning yarmi hisoblanadi. Qisqaroq notalar darajasi ham (64talik) shu kabidir.<sup>17</sup>

Notalar yozuvida asosiy chiziqlardan tashqari, ayrim notalar uchun qisqa qo‘shimcha chiziqlar ham ishlatiladi. Ular nota yo‘lining ostiga va ustiga yoziladi.

<sup>17</sup> Mark Feezell. Music theory fundamentals. High-yield music theory, vol.1. 2011, Page 14.



Notalar turli guruhlarga birlashtirilganda tayoqcha va qovurg'achalarni yozish uchun qulay o'rinlar tanlanadi. Bunda iloji boricha ularni nota yo'lining o'rta qismiga yozishga harakat qilish maqsadga muvofiq.

### 3-§. TOVUSHLAR CHO'ZIMINI UZAYTIRUVCHI QO'SHIMCHA BELGILAR, NOTA YO'LI.

Musiqiy tovushlar asosiy cho'zimlardan tashqari, nota yozuvida cho'zimlarni uzaytiruvchi qo'shimcha belgilar ham keng qo'llaniladi.

Qo'shimcha belgilarga quyidagilar kiradi:

a) **nuqta** - biror tovush cho'zimini yarim baravar uzaytiradi, bu belgi nota doirachasining o'ng tomonidan qo'yiladi:



b) **ikki nuqta** - biror tovush cho'zimini yarim baravar va uning asosiy cho'zimidan yana chorak baravar uzaytiradi:



v) **liga** - yonma-yon turgan bir xil balandlikdagi nota cho'zimlarini birlashtiruvchi egri chiziq:



Bunday cho'zimlarning davomiyligi ularning umumiy miqdoriga teng bo'ladi.

**Uzaytiruvchi nuqtalar (nuqtali notalar):** Uzaytiruvchi nuqta har qanday nota yoki pauzaga uning yarin davomligini qo'shib beradi. Bunday cho'zim "**nuqtali nota**" deyiladi. Masalan, nuqtalangan yarimtali nota bitta yarimtali nota plus bitta chorak notaga baravar, chunki chorak nota yarimtali notaning yarimidir. Bunga o'xshab, nuqtalangan chorak nota bitta chorak nota plus bitta nimchorak notaga baravar, chunki nimchorak nota chorak notaning yarimidir.




$$\begin{aligned} \text{♩. (dotted half note)} &= \text{♩} + \text{♩} = \text{♩} + \text{♩} + \text{♩} \\ \text{♩. (dotted quarter note)} &= \text{♩} + \text{♩} = \text{♩} + \text{♩} + \text{♩} \end{aligned}$$


**Ikki nuqtali notalar: Ikkinchi uzaytiruvchi nuqta** (agar bor bo‘lsa) birinchi nuqta cho‘ziminin yarimini qo‘shib beradi. Ular **Ikki nuqtali notalar** deb aytiladi. Masalan, ikki nuqtali yarimnotali nota bitta yarimnotali nota (birinchi nuqta uchun) plus bitta nimchorak nota (chorak notaning yarimi, ikkinchi nuqta uchun) notalarga baravar. **Ikki nuqtali notalar** davomligi, nuqtasiz notalar cho‘zimidan ko‘ra, 1,75 (1+0,5+0,25) vaqt davomiga teng bo‘ladi <sup>18</sup>

$$\begin{aligned} \text{♩.. (double-dotted half note)} &= \text{♩} + \text{♩} + \text{♩} \\ \text{♩.. (double-dotted quarter note)} &= \text{♩} + \text{♩} + \text{♩} \end{aligned}$$

g) **Fermato** { XE "фермато" } – tovush cho‘ziminin musiqa asari dramaturgiyasi va kuy xarakteri xususiyatlari orqali ma’lum vaqtga uzayishini ko‘rsatuvchi belgi. Fermato o‘rtasiga nuqta qo‘yilgan kichik yarim doira shaklida bo‘lib, nota ustiga yoki ostiga yoziladi:




**Fermatalar. Nafas belgilari. Sezura. Katta pauza: Fermatalar** shuni ko‘rsatadiki, asar harakati to‘xtaydi va tovush dirijor yoki sozanda kuyning keyingi harakatini boshlamaguncha ushlanib turadi. Musiqiy matn, uslub va did fermataning qanchalik davomli bo‘lishini aniqlaydi. **Nafas belgisi** qisqa to‘xtashni ko‘rsatadi, puflama asboblari (truba) yoki ovoz uchun esa nafas olish joyini belgilaydi. **Sezura** (ayrimlarda “**katta pauza**” yoki **G.P.**) musiqaning butunlay to‘xtashini va uning davom etishidan oldingi pauzani anglatadi.




<sup>18</sup> Mark Feezell. Music theory fundamentals. High-yield music theory, vol.1, 2011.

**Fermatolar – konsertmeyster yoki solist ma’lum asarni ijro etilishini davom ettiradigan paytgacha nota cho‘zimini ushlab turishini va musiqani birgalikda tugatishni ifodalaydi. Musiqali kontekst uslub va did fermatoning qancha vaqt davom etishini bildiradi.<sup>19</sup>**

**O‘rtalikdagi C notasi:** O‘rtalikdagi C fortepiano klaviaturasi qoq o‘rtasining chap tomonidan joylashgan C (Do) tovushdir; skripka kalitida o‘rtalik C notasi nota yo‘li ostidagi birinchi qo‘shimcha chiziqda yoziladi. Bas kalitida o‘rtalik C notasi nota yo‘li ustidan birinchi qo‘shimcha chiziqda yoziladi. Do kalitlari, ya’ni alt va tenor kalitlarida, o‘rtalik C notasi kalit belgisining markaziy nuqtasiga to‘g‘ri kelib yoziladi. Quyida ko‘rsatilgan barcha notalar fortepianoning bittagina klavishni (o‘rtalik C notasini) namoish etadi.<sup>20</sup>




**O‘rtalikdagi C notasi katta nota yo‘lida:** Katta nota yo‘lida o‘rtalik C notasining har xil joyda yozilishi uning skripka yoki bas kalitiga tegishligidan kelib chiqadi. O‘rtalik C notasi so‘zma so‘z tarjimasida “o‘rta” qo‘shimcha chiziq demakdir,



skripka kalitida bir chiziq pastdan va bas kalitida bir chiziq ustidan qo‘shiladi.

**Nota yo‘llari o‘rtasida qo‘shimcha chiziqchalar:** Qo‘shimcha chiziqchalaridagi notalar ikkita nota yo‘lining o‘rtasida ham uchrashishi mumkin. Faqat ular skripka kaliti (ya’ni ong qo‘l) yoki bas kaliti (ya’ni chap qo‘l) partiyasiga tegishligini aniq ko‘rsatib yozish lozim.




<sup>19</sup> Music Theory Fundamentals High-Yield Music Theory, vol. 1. Copyright © 2011 by Mark Feezell. All Rights Reserved. Page 25

<sup>20</sup> Mark Feezell. Music theory fundamentals. High-yield music theory, vol.1. 2011

**Musiqqa elementlari:** Musiqaning asosiy elementlari deb **tovushning muayyan toni** (notalarning baland/pastligi), **davomlilik** (notalarning qancha uzoq vaqt saqlanishi), **tembr** (umuman olganda, truba yoki klarnetning o‘ziga xos sadosi), va **dinamika/qattiqlik** kabilar hisoblanadi. Ayrim mualliflar musiqqa elementlari qatoriga **chastota** (tovushni vujudga keltiradigan fizik tabranishlar tezligi) va **fakturani** (qarang **5.1. Faktura musiqada**) qo‘shib kiritadilar.

**Nota yo‘li. Nota nomlari:** Nota yo‘li musiqiy ton/tovushlarni notalashtirish (qog‘ozga tushirish) uchun beshta yondosh (parallel) chiziqdan foydalanadi. Baland ton/tovushlar nota yo‘lining yuqorirog‘ida yoziladi. Nota yo‘li chiziqlari quyidagisidan boshlab **1** dan **5** gacha nomerlanadi. **Nota nomlari** pastdan yuqori tomonga qarab harflar bilan ataladi: A, B, C, D, E, F, G, song qaytariladi A, B, C...<sup>21</sup>

**Nota boshi, Shtil, Bayroqchalar, Qovurg‘alar:** Notaning ovalli bo‘lagi **nota boshi** deb aytiladi. Uzunligi butun notadan qisqaroq notalar nota boshiga qo‘shib yoziladigan shtilga ega bo‘ladi. Uzunligi chorak notadan qisqaroq notalar ritmik kontekstga ko‘ra bayroqchalar yoki qovurg‘alarga egalik qiladi (qarang **paragraf 1.10. Nota yozuvi bo‘yicha qisqacha ko‘rsatmalar**). Sakkiztalik notalar bitta bayroqcha (yoki qovurg‘acha), o‘n oltitalik notalar ikkita bayroqcha (yoki ikkita qovurg‘a) egadir va x.k. Nota boshining nota yo‘lida o‘rnashgan joyi muayyan tovush notasini ko‘rsatadi.



#### 4-§. KALITLAR

Bir ovozning tessiturasidagi tovushlarni notalashtirish jarayonida yozuv qiyinchiliklarisiz bitta nota yo‘lida yozilishi mumkin edi. Boshqa ovozning tessiturasini notaga tushurish uchun ko‘p sonli qo‘shimcha chiziqlardan

---

<sup>21</sup> Music Theory Fundamentals High-Yield Music Theory, vol. 1. Copyright © 2011 by Mark Feezell. All Rights Reserved. Paragraf 1.2

foydalanishga majbur qilardi. Bundan tashqari, qo‘shimcha chiziqdagi yozilgan notalarni o‘qish jarayoni ham osonlikcha o‘tmaydi.

Ushbu masalani bartaraf etish uchun bir qator **kalitlar** ishga solindi. Kalitlardan har biri alohida biror ovoz diapazoniga mo‘ljalangan. Shunday qilib soprano, alt, tenor, bas va boshqa kalitlar vujudga keldi. Bu kalitlar **Do kalitlari** deb atalgan. Negaki, ular birinchi oktava *do* tovushning nota yo‘lidagi joylashuvini ko‘rsatadi. Baland ovozlar uchun kalit nota yo‘lining pastrog‘ida, past ovozlar uchun esa yuqorirog‘ida yozilib, qo‘shimcha chiziqdagi muhtojlikni hal qilardi. **Kalitning muhim bir vazifasi bor – unga birlashtirilgan tovushning notasini nota yo‘lidagi joylashuvini ko‘rsatib turishdir.**

Kuyni nota yo‘lida joylashtirish uchun nota chiziqdagi ustiga va oralig‘iga tovushlarning muayyan balandligi maxsus belgi bilan birlashtiriladi va bunga **kalit** deyiladi.


Kalit nota yo‘lining boshida asosiy chiziqdagi biriga qo‘yiladi. Bunda biror asosiy chiziq kalit markazini kesib o‘tishi shart.

Kalit ana shu chiziqda joylashgan notaga muayyan tovush yoki pog‘ona balandligini (nomini) belgilaydi, nota yo‘lidagi qolgan tovushlar joylashishi ham mana shu notaga moslanadi.

Cholg‘u musikasi rivojlanishi natijasida, nota yo‘li katta diapazondagi asarlar tovushkatorini o‘z ichiga sig‘dirilmay qolgach, yangi kalitlar, ya‘ni **Sol** bilan **Fa kalitlari** ishlatila boshlandi.

Hozirgi vaqtda musiqa amaliyotida asosan uchta xilma-xil kalit keng qo‘llaniladi.

**Skripka** (sol) kaliti:




U ikkinchi chiziqda birinchi oktavaning sol tovushi balandligini belgilaydi.

**Bas** (fa) kaliti{ XE "Бас (фа) калити" \i }; To‘rtinchi chiziqda kichik oktavaning fa tovushi balandligini belgilaydi.



Zamonaviy nota yozuvida **skripka (Sol)** va **bas (Fa)** kalitlari *kalitlar tizimini* tashkil etadi. Bu tizim ikkita nota yoʻlini bitta qatorga birlashtirib, musiqaviy tizimning butun tovushqatorini qamrab oladigan imkonga qodir boʻladi

*Kalitlar va notalar joylashuvlarining kuzguli aksi*



Skripka bilan bas kalitlari asosiy kalitlarga aylanib qoldi. Kalitlar tizimi birligi yana shu bilan taʼkidlanadiki, birinchi oktavali **do** tovush notasi, musiqaviy tovushqatorning markazi sifatida, nota yoʻllari oʻrtasida faraz qilinadigan chiziqda joylashadi. Undan qarama-qarshi tomonlarga qarab ketma-ket joylashgan notalar esa bir-birining kuzguli aksidir. Kalitlarning yozilishida ham ularning oʻzaro aksi koʻrinadi.

**Do** kaliti besh xil boʻlib, uning asosan ikki xili, yaʼni **alʼt** va **tenor** kalitlari koʻp qoʻllaniladi.



**Alʼt kaliti** birinchi oktavaning do tovushi balandligini *uchinchi chiziqda*, tenor kaliti esa xuddi shu tovush balandligini *toʻrtinchi chiziqda* belgilaydi.



**Alʼt kaliti** asosan alʼt va trombon cholgʻu asboblari uchun qoʻllaniladi. **Tenor kaliti** { XE "Тенор калити" \i } esa violonchelʼ, fagot va trombon uchun qoʻllaniladi.

Musiqani notaga olishda qo‘shimcha chiziqlarni haddan tashqari ko‘paytirmaslik uchun nota yozuvida xilma-xil kalit belgilaridan foydalaniladi. Bu nota yozuvining o‘qilishi va ijrosini osonlashtiradi.

**Kalit, skripka kaliti:** Kalit birorta notani nota yo‘lining qay bir chizig‘ida (yoki chiziqlar orasida) joylashishini ko‘rsatadi. Kalit nota yo‘lining boshida yoziladi. **Skripka kaliti G (sol)** notaning ikkinchi chiziqda joylashishini ko‘rsatadi. Chiziqlar skripka kalitida E, G, B, D va F tonlarni ifodalaydi. Chiziqlar orasida esa F, A, C va E tonlar joylashadi.

Diagram illustrating the treble clef (skripka kaliti) and its corresponding notes. The staff shows the notes G, A, B, C, D, E, F, G, A, B, C, D, E, F, G. The first line is labeled 'line 1' and the fifth line is labeled 'line 5'. Below the staff, the notes are listed: G, so... D E F G A B C D E F G. Two smaller examples are provided: 'Every Good Boy Does Fine' with notes E G B D F on the lines, and 'F-A-C-E spells face' with notes D F A C E G in the spaces.

**Bas kaliti:** Bas kaliti F (fa) notaning to‘rtinchi chiziqda joylashishini ko‘rsatadi. Chiziqlar bas kalitida G, B, D, F va A tonlarni ifodalaydi. Chiziqlar orasida esa A, C, E va G tonlar joylashadi.

Diagram illustrating the bass clef (bas kaliti) and its corresponding notes. The staff shows the notes F, G, A, B, C, D, E, F, G, A, B. Below the staff, the notes are listed: F, so... F G A B C D E F G A B. Two smaller examples are provided: 'Good Boys Do Fine Always' with notes G B D F A on the lines, and 'All Cars Eat Gas All Cows Eat Grass' with notes F A C E G B in the spaces.


**Qo‘shimcha chiziqchalar:** Qo‘shimcha chiziqchalar nota yo‘lining tepa yoki pastida yoziladiga kalta chiziqchalardir. Ular har qanday kalit bilan ishlatilishi mumkin. Qo‘shimcha chiziqchalar faqat bitta nota uchun chiziladi, ular hech qachon boshqa yaqin joylashgan notaning qo‘shimcha chiziqchalari bilan bog‘lanmaydi.

Diagram illustrating ledger lines. The staff shows notes A, B, C, D on the top line (labeled 'ledger lines') and notes C, D, E, F on the bottom line. Below the staff, the notes are listed: A B C D C D E F and C B A G E D C B.


**Katta nota yo‘li: Katta nota yo‘li** - bu qavs bilan birlashtirigan skripka va bas nota yo‘llaridir. Fortepiano uchun yozilgan musiqa, shuningdek arfa va marimba (ksilofon turidan) kabi cholg‘ular katta nota yo‘lidan foyalanadi. Gohida vocal (xor) musiqasi ham notalashtirilishida katta nota yo‘lini ko‘llaydi.



**C (do) kalitlari. Alt kaliti:** Barcha **C (do) kalitlari** C notaning nota yo‘lini qayerida joylashishini ko‘rsatadi. **Alt kaliti** C (do) kaliti bo‘lib, uning qoq o‘rtasi pastdan uchinchi chiziqqa tog‘ri keladi va uni C bilan belgilaydi. Alt (skripka oilasiga oid to‘rli cholg‘u asbob) uchun partiyalar deyarli hamisha alt kalitida yozuladi.



**Tenor kaliti:** Tenor kaliti C (do) kaliti bo‘lib, uning qoq o‘rtasi pastdan




to‘rtinchi chiziqqa tog‘ri keladi va uni C bilan belgilaydi. Fagot va trombon uchun musiqa ba‘zan tenor kalitida yoziladi, biroq ikkala asbob ko‘p hollarda bas kalitida o‘qiladi.<sup>22</sup>

<sup>22</sup> Music Theory Fundamentals High-Yield Music Theory, vol. 1. Copyright © 2011 by Mark Feezell. All Rights Reserved. Paragraf 1.1


## 5-§. PAUZALAR.

Musiqa tovushi yangrashining vaqtincha to'xtalishi **pauza** { XE "пauза" } deyiladi. Nazariy hamda amaliy jihatdan tovush cho'zidlari qanday o'lchansa, pauzalar davomiyligi ham shunday o'lchanadi:

Butun pauzaning yozilishi:




Yarim pauzaning yozilishi:



Chorak pauzaning yozilishi:




Sakkiztalik pauzaning yozilishi:



O'n oltitalik pauzaning yozilishi:



O'ttiz ikkitalik pauzaning yozilishi:




Oltmish to'rttalik pauzaning yozilishi:



Pauzalarni uzaytirishda notalarda qo'llaniladigan nuqtalardan foydalaniladi. Nuqtalarning ahamiyati bunda avvalgidek qoladi.



**Pauzalar:** **Pauzalar** xuddi notalarga o‘xshaydi, lekin sukunat davomligini ko‘rsatadi. Breve nomli pauza butun pauzadan ikki barobar uzunroq, butun pauza yarimtalik pauzadan ikki barobar uzunroq, va x.k. Eslab qoling, butun nota xuddi yerdagi chuqurlik (o‘ra)ga o‘xshaydi.<sup>23</sup>



### *Tayanch tushunchalar*

Nota yo‘zuvi, nota, nota yo‘li, kalit, tovushlarning asosiy chozimlari, cho‘zimlarning asosiy bo‘linishi, pauza. Nota cho‘zimi, notaning yozilishi, tabulatura, xorazm tanbur chizig‘i, vertikal tayoqchalar (shtillar), bayroqchalar, qo‘shimcha gorizontaal chiziqchalar, boshlang‘ich chiziq. Nota yozuvida cho‘zimlarni uzaytiruvchi qo‘shimcha belgilar, nuqta, ikki nuqta, liga, fermato{ XE "фермато" }. Kalit, skripka (sol) kaliti, bas (fa) kaliti, do kaliti, al‘t kaliti, tenor kaliti{ XE "Тенор калити" \i }, qo‘shimcha chiziqchalar. Tovushlarning harfiy tuzilmasi, lotin alfaviti asosida harf bilan yozish usuli, qo‘shimcha bo‘g‘inlar, har bir oktavani belgilash usullari. Pauzalar, butun pauza, yarim pauza, chorak pauza, sakkiztalik pauza, o‘n oltitalik pauza, o‘ttiz ikkitalik pauza, nuqtalar.

### *Mavzuni mustahkamlash uchun savollar*

1. Notalar qanday maqsadda yoziladi?
2. Nota yo‘li nechta chiziqdan iborat bo‘ladi?
3. Tayoqcha, bayroqcha, qovurg‘achalar – nima maqsadda qo‘yiladi?
4. Notalar 5 ta chiziqda qay tartibda yoziladi?
5. Nota cho‘zimlari qanday nomlanadi?
6. O‘ttiz ikkitalik notani alohida va turkumlangan holda yozib ko‘rsating.
7. Tovush cho‘zimini uzaytiruvchi qo‘shimcha belgilarga qaysilar kiradi?
8. Nuqtaning vazifasini aytib bering.
9. Ikki nuqta nima maqsadda qo‘llaniladi?
10. Liganing vazifasi nimadan iborat?
11. Fermato qay holatlarda qo‘yiladi?
12. Tovush cho‘zimini uzaytiruvchi yana qaysi belgilarni ayta olasiz?
13. Liga va legatoning farqini tushuntiring.
14. Necha xil kalit mavjud?

<sup>23</sup> Mark Feezell. Music theory fundamentals. High-yield music theory, vol.1. 2011

15. Skripka kalitini ta'riflab bering.
16. Bas kalitini ta'riflang.
17. Do kalitining asosan necha xili bor? Ularni sanab, tahlil qiling.
18. Tenor kaliti qanday maqsadlarda qo'llaniladi?
19. Fortepiano musiqasini yozishda asosan qaysi kalitlardan foydalaniladi?
20. Tovushlarning yettita asosiy pog'onasi qaysi harflar bilan belgilanadi?
21. **B** va **H** harflari bilan belgilanadigan notalar qo'llanishini tushuntiring.
22. Hosila pog'onalar qay tartibda yoziladi?
23. **es** belgisi bilan qaysi tovush ifodalanadi?
24. **mi**<sup>3</sup> qaysi nota tovushini ifodalaydi?
25. Pauza atamasining lug'aviy ma'nosi?
26. Pauzaning ahamiyati nimadan iborat?
27. Pauzalar davomiyligi qanday o'lchanadi?
28. O'n oltitalik pauza qanday yoziladi?
29. Chorak pauza qanday sanaladi?
30. Yarim pauza qanday yoziladi?
31. O'ttiz ikkitalik pazani misol orqali sanab bering.
32. Butun pazani sanang.
33. Ikkita chorak pazani sanang.

#### **4-BOB: KO'P OVOZLI NOTA YOZUVI, DINAMIKA VA NOTA YOZUVINI QISQARTIRIRUVCHI BELGILAR.**

##### **1-§. KO'P OVOZLI MUSIQANING YOZILISHI.**

Ko'p ovozli musiqani notaga yozish uchun bir nechta nota chiziqlaridan foydalaniladi. Masalan, nota yo'lida ikki mustaqil ovozni yozish mumkin. Bunday hollarda nota tayoqchalari qarama - qarshi tomonga qaratilib, har bir ovoz uchun ayrim-ayrim yoziladi. Yuqori ovoz tayoqchalari yuqoriga, pastki ovoz tayoqchalari esa pastga qaratilgan bo'ladi.



Fortepiano musiqasi chap tomondan maxsus qavs bilan birlashtirilgan ikkita nota yoʻliga yoziladi. Bunday qavs akkolada{ XE "акколада" } deyiladi:

Toʻrt ovozli xor musiqasi ikki, uch yoki alohida (toʻrt nota yoʻlida) yoziladi:



Musiqada amaliyotida uchraydigan qoʻsh tovushlar va akkordlar (birdaniga chalinadigan bir nechta tovushlar) koʻpincha bitta tayloq bilan yoziladi. Fortepiano musiqasi esa kamdan-kam hollarda toʻrt nota yoʻlida, baʼzan esa uch nota yoʻlida yoziladi. Arfa va organ asboblari uchun yoziladigan notalarda maxsus qavs qoʻllaniladi.

Yakka ovoz yoki yakka soz va fortepiano uchun moʻljallangan asarlar uch nota yoʻlida yoziladi. Fortepiano ishtirok etmaydigan xilma-xil tarkibli ansambllar va orkestr uchun musiqada yozilganda, barcha nota yoʻllarini birlashtiruvchi toʻgʻri qavs qoʻllaniladi. Toʻrt ovozli xor musiqasi alohida-alohida (bolalar, xotin - qizlar, erkaklar xori) va aralash tarkibli xor musiqasi ikki yoki toʻrt nota yoʻlida yoziladi.

Xilma-xil ansambllar, orkestrlar, xor, va torli kamer ansambllari (masalan kvartet) moʻljallangan musiqada yozish shakli **partitura**{ XE "партитура" \i } deyiladi.

## 2-§. DINAMIK BELGILAR

Musiqada uning eshitilish kuchi turli darajalarda namoyon boʻladi. Bu tovush kuchi dinamik belgilar{ XE "динамик белгилар" \b } bilan koʻrsatiladi. Dinamik belgilar katta ifoda kuchiga ega. Masalan, kuyning koʻtariluvchi harakati eshitilish kuchini oshirib boradi, quyilash harakati esa, eshitilishning pasayishiga olib keladi.

Musiqada keng qoʻllaniladigan dinamik iboralar:

a) **muttasil kuchlilik darajasini belgilovchi belgilar:**

fortissimo - <i>ff</i> juda kuchli	forte - <i>f</i> kuchli
mezzo forte - <i>mf</i> oʻrtacha kuchli	pianissimo - <i>pp</i> juda past

piano - *p* past

mezzo piano - *mp* o'rtacha past

Xorijiy adabiyotlarda dinamik belgilar quyidagicha berilgan bo'lib, undagi yangilik (*f*, *p*) belgilarining juda-juda baland va juda-juda past belgilari qo'llaniladi.

**Dinamik belgilari: Dinamik belgilari** tovish qattiqligi darajasini ko'rsatish uchun qo'llaniladi:

**ppp** = **pianississimo** = juda, juda yumshoq, sekin

**pp** = **pianissimo** = juda yumshoq, sekin

**p** = **piano** = yumshoq, sekin

**mp** = **mezzo-piano** = o'rtacha sekin

**mf** = **mezzo-forte** = o'rtacha qattiq, baland

**f** = **forte** = qattiq, baland

**ff** = **fortissimo** = juda qattiq, baland

**fff** = **fortississimo** = juda, juda qattiq, baland

**fp** = piano hamrohligidagi forte; hamda **mfp**, **ffp**, va x.k.

**sfz** = sforzando = kuchli, kutilmagan aksent (urg'u) <sup>24</sup>

**fz** = baquvvat, ammo **sfz** ga oxshab qo'qqisidan bo'lmagan <sup>25</sup>

b) **muttasil o'zgaruvchi kuchlilikni ifodalovchi belgilar:**

*crescendo* - yoki kuchaytirish belgisi - 

*poco a poco crescendo* - sekin asta kuchaytirib

*diminuendo* - yoki pasaya borish belgisi - 

*poco a poco diminuendo* - sekin asta pasayish

*smorzando* - tina boshlash

*morendo* - tina boshlash

v) **kuchlilik darajasini o'zgartirish uchun qo'llaniladigan belgilar:**

*piu forte* - yana kuchli


*meno forte* - sal kuchli

*sforzando* - *sf* ayrim tovushlarning keskin zarbi.

**Kreshendo. Diminuendo. Dekreshendo: Kreshendo** va **Diminuendo** belgilari tovush qattiqligining sekin-asta kuchayib borishi yoki pasayib borishini ko'rsatadi. Ba'zan, belgilar o'rniga **crescendo (cresc.)**, **diminuendo (dim.)** yoki **decrescendo (decresc.)** kabi so'zlar yoziladi.

<sup>24</sup> Mark Feezell. Music theory fundamentals. High-yield music theory, vol.1. 2011





<sup>25</sup> Music Theory Fundamentals High-Yield Music Theory, vol. 1. Copyright © 2011 by Mark Feezell. All Rights Reserved. Page 24



Qo‘shiq muallifi dinamikani atamalar va ularning belgilari yoki qisqartmalari tordamida ifodalay oladi. Ko‘pgina musiqiy atamalar italyan tilidan kirib kelgan. <sup>26</sup>

<u>Term name</u>	<u>Pronunciation</u>	<u>Definition</u>	<u>Sign</u>
Pianissimo	(Pee-ahn-ee-see-moe)	Very Soft	<i>pp</i>
Piano	(Pee-ahn-oe)	Soft	<i>p</i>
Mezzo Piano	(Med-zoe Pee-ahn-oe)	Medium Soft	<i>mp</i>
Mezzo	(Med-zoe)	Medium	<i>m</i>
Mezzo Forte	(Med-zoe Four-tay)	Medium Loud	<i>mf</i>
Forte	(Four-tay)	Loud	<i>f</i>





Dinamikaning o‘zgaruvchan darajalari qo‘shiq ijro etilayotgan vaqtda ko‘tarilib va pasayib borishi yoki yoqimli bo‘lishi uchun xizmat qiladi. <sup>27</sup>

<u>Term name</u>	<u>Pronunciation</u>	<u>Definition</u>	<u>Sign</u>
Crescendo	(Kre-shen-doe)	Gradually increase	cresc, 
Decrescendo	(Da-kre-shen-doe)	Gradually decrease	decresc, 
Diminuendo	(Di-min-u-en-doe)	Gradually decrease	dimin, 
Forzando	(Four-tsan-doe)	Heavy accent	<i>fz</i> , ^ 
Sforzando	(Sfor-tsan-doe)	With force	<i>sf</i> , <i>fp</i>
Swell	(Swell)	Increase & decrease	<>
Pressure Tone	(Pressure Tone)	Suddenly increase	<

<sup>26</sup> James Tackett. "Fundamentals of church music Theory" Austin Christian Acappella Music. Abilene Christian University. 2009. Page 63


<sup>27</sup> James Tackett. "Fundamentals of church music Theory" Austin Christian Akappella Musik. Abilene Christian University. 2009. Page 63

Ijro etiladigan qo‘shiq **holati** haqida ma’lumot beradigan dinamik uslublar 4ta; <sup>28</sup>

<u>Term name</u>	<u>Pronunciation</u>	<u>Definition</u>	<u>Sign</u>
Legato	(Leh-gah-toe)	Smooth and connected	
Staccato	(Stah-kah-toe)	Short and separated	
Marcato	(Mar-kah-toe)	Accented	
Portamento	(Pour-tah-men-toe)	Gliding downward	

**Dinamik, Ijro etish va Temp belgilari:** Dinamik belgilari, Artikulyatsiya belgilari, Legato, ijro texnikalari, Fermatalar, Nafas belgilari, Sezura, Katta pauza, Kreshendo, Diminuendo, Dekreshendo, Temp, BPM, M.M., Itliyancha temp.

**Artikulyatsiya belgilari:** Artikulyatsiya belgilari notalarni qay tarzda, ya’ni qanchalik davomli yoki qay darajadagi bosim bilan ijro etish kerakligini aniq ko‘rsatma beradilar. **Staccatissimo** o‘ta qisqa davomlilikni anglatadi. **Staccato** qisqartirilgan davomlilikni anhatadi. **Tenuto** ikkita vazifaga ega: u to‘liq **davomlilikni** yoki **yengil bosim** yohud urg‘uni ifodalaydi. **Aksent** (tenutodan ko‘ra ko‘proq) bu bosim yoki urg‘u berish demakdir. **Markato** qattiq bosishdir. **Davomlilikka** oid artikulyatsiya belgilari (**staccatissimo, staccato, tenuto**) **urg‘u berish** birorta belgisi (**tenuto, aksent, markato**) bilan qo‘shilishi mumkin.




### 3-§. NOTA YOZUVINI QISQARTIRISH BELGILARI

Nota yozishda uni soddalashtirish va qisqartirish uchun qator belgilar qo‘llaniladi:


1) nota o‘qilishini murakkablashtiradigan qo‘shimcha chiziq larni ko‘paytirmaslik maqsadida musiqa asarlarining ma’lum qismida bir oktava yuqoriga yoki pastga ko‘chirish belgisi qo‘yiladi.

<sup>28</sup> James Tackett. “Fundamentals of church music Theory” Austin Christian Acappella Music. Abilene Christian University. 2009. Page 63




Bir oktava yuqori yoki pastga ko‘chirilishi nuqtali (punktir) chiziq tugagan joygacha davom etadi;

2) qaytarish belgisi { XE "кайтариш белгиси" \b } – repriza, asarning ma’lum bir qismini yoki uni boshdan oxirigacha qaytarish uchun qo‘yiladi.




Ko‘pgina zamonaviy musiqalarda qaytarish belgilari 4ta nuqta yoki 2ta nuqta bilan belgilanadi. Qaytarish belgilari asar bo‘limini takrorlanishini bildiradi. Takt chizig‘ining chap tomonidagi belgi oldingi takt chizig‘ining o‘ng tomonidagi belgiga sakrashini bildiradi. Agar o‘rnatilgan belgilar takt chizig‘ining o‘ng tomonida to‘qnashmasa, qo‘shiqning boshiga sakraydi.<sup>29</sup>



Agar qaytariladigan qismning yoki butun asarning tugallanish qismi o‘zgaradigan bo‘lsa, o‘zgaruvchi taktlar ustiga kvadrat qavs qo‘yiladi. Qavsdan keyin qaytariladigan taktlar yoziladi va ular ustiga ham kvadrat qavs qo‘yiladi. Qavs ustiga 1 va 2 raqamlari yoziladi.

**Oddiy takror (repriza belgisi): So‘nggi takror belgisi ijrochiga ie zahotiy oq boshlang‘ich takror belgisiga** yoki, agar u yo‘q bo‘lsa, asar boshiga qaytib, uni yana bir bor ijro etish kerakligini aytib turadi.<sup>30</sup>



Raqamlar - birinchi vol‘ta, ya‘ni birinchi marta va ikkinchi marta qaytarilishini bildiradi:




<sup>29</sup> James Tackett. "Fundamentals of church music Theory" Austin Christian Akappella Musik. Abilene Christian University. 2009. Page 57

<sup>30</sup> Mark Feezell. Music theory fundamentals. High-yield music theory, vol.1. 2011



3) agar asar uch qismli shaklda yoziladigan bo'lsa, u vaqtda uchinchi qism qayta yozilmaydi va ikkinchi qismdan keyin: **da capo al fine**{ XE "da capo al fine" } – ya'ni «boshdan oxiri so'zigacha» deb, birinchi qism oxirida esa – **fine** (oxiri) so'zi yoziladi. Birinchi qism eng boshidan qaytarilmasa, qaytarish boshlanadigan takt ustiga **segno** belgisi qo'yiladi, ikkinchi qism oxirida esa: **Dal segno al fine** – ya'ni «segno belgisidan to oxirigacha» - deb yoziladi.

**1- va 2- xotimalar (volta): Birinchi va ikkinchi xotima (volta)** musiqiy asar ikki marta ijro etilish kerakligini ko'rsatadi. **"2x only"** (pastki misolda ko'rsatilmagan) bu asar faqat ikki marta ijro etiladi demakdir.



Har bir asarning qaytariladigan qismidan oldin keladigan qismiga o'tilganda: **Da capo al Segno poi coda** - ya'ni «boshidan segno belgisiga, so'ngra koda belgisiga o'tilsin» - deb yoziladi;

**D.C. al fine (Da capo al fine): D.C. (da capo – “boshidan boshlab”)** asarni boshidan takrorlab chalish ma'noni anglatadi. **Al fine** esa takroriy ijroni “fine” belgisigacha davom etish kerak degani. Odatda, musiqachilar D.C. dan keyin qayta ijrosida birinchi voltani tashlab o'tadi. Pastki misolda raqamlar quyidagilarni ko'rsatadi: (1) 1- taktni birinchi xotima bilan ijro etish; (2) 1- taktni takrorlan chalish; (3) ikkinchi xotimaga sakrab o'tish, (4) oxirgi yozilgan taktgacha chalish; (5) D.C. belgisidan kuyini “boshiga” o'tish; va (6)/(7)/(8) kuyning 1- takt, so'ng ikkinchi xotima va dovomini **Fine** belgisigacha ijro etib, kuyini tugatish.<sup>31</sup>



32

<sup>31</sup> Mark Feezell. Music theory fundamentals. High-yield music theory, vol.1. 2011


<sup>32</sup> Music Theory Fundamentals High-Yield Music Theory, vol. 1. Copyright © 2011 by Mark Feezell. All Rights Reserved. Page 22




3) Turli xil musiqa asboblariida ijro etiladigan asarlarni yozishda qo‘lyozma holatlarda takt ichida keladigan maxsus belgi qo‘llaniladi. <sup>33</sup>



5) ma‘lum taktni bir yoki bir necha marta takrorlash lozim bo‘lsa quyidagi belgi yoziladi.



6) 2 taktni qaytalish kerak bo‘lganda quyidagi belgi ishlatiladi.<sup>34</sup>



6) biror kuy tuzilmasini bir takt orasida bir marta yoki bir necha marta takrorlash kerak bo‘lsa, u qaytadan yozilmasdan, qovurg‘achalari cho‘zimiga teng keladigan chiziqlar bilan almashtiriladi.



7) bir muvozanatda tez va ko‘p marta takrorlanadigan ko‘p tovush yoki tovushlar yig‘indisi tremolo (*tremolo* { XE "tremolo" }) deyiladi. Tremoloda takrorlanuvchi tovush bo‘lsa, chamalangan tuzilmaning umumiy cho‘zimi shunga mos nota bilan ifodalanadi. Chiziqchalar esa, tuzilmaning qaysi cho‘zimlarida ijro etilishini ko‘rsatib turadi.

8) tovushni ikki oktavada ijro etish talab etilsa, nota ustiga yoki ostiga 8 raqami yoziladi. Bu mazkur tovush ikki oktavada ijro etilishi kerakligini ko‘rsatib turadi.



<sup>33</sup> Music Theory Fundamentals High-Yield Music Theory, vol. 1. Copyright © 2011 by Mark Feezell. All Rights Reserved. Page 23

<sup>34</sup> Music Theory Fundamentals High-Yield Music Theory, vol. 1. Copyright © 2011 by Mark Feezell. All Rights Reserved. Page 23

Agar musiqa asari tovushlarini uzluksiz ikki oktavada ijro etish talab etilsa: yuqoridan bo‘lsa- **all 8 va** va pastdan bo‘lsa - **all 8 va bassa** belgisi yozib qo‘yiladi.


8) Segno – (senio) takt ustiga kuyiladigan belgi – asarda qaytarish boshlanadigan yoki tamom bo‘ladigan joyini ko‘rstuvchi belgidir -




9) tremolo – ikki tovush yoki tovushlar yig‘indisi tez, tekis va ko‘p marta almashib takrorlanishiga deyiladi.




**D.S. al coda. Dal segno al coda. D.S. al fine D.C. al coda: D.S.(dal segno)** belgi kuy harakatining orqaga maxsus belgi qo‘yilgan joyga qaytish kerakligini bildiradi (quyidagi misolga qaran; segno belgisi), **al coda** esa kuyni Coda belgisigacha takror ijro etib, so‘ng coda qismining o‘ziga sakrab otishni aytadi. Misoldagi raqamlar quyidagini ko‘rsatadi: (1) boshdan D.S.al codagacha parchani chalish; (2) orqaga (dal segno) belgiga qaytish; (3) “codaga sakrash” belgigacha chalish, va (4)/(5) coda o‘ziga otib, oxirigacha chalish. **D.S. al fine** (al coda emas) va **D.C. al coda** (al fine emas) kabi shartli belgilar ham bo‘lishlari mumkin.




**Takrorlangan hissa: Takrorlangan hissa belgisi** faqat qo‘lyozmalarda va ritm beruvchi cholg‘ular (gitara, baraban, gohida fortepiano) partiyasida qo‘llaniladi.



**Takrorlangan takt:** Takrorlangan takt faqat gitara, baraban, fortepiano partiyasida qoʻllaniladi.



**Ikki-taktli takror:** Ikki-taktli takror faqat gitara, baraban, fortepiano partiyasida qoʻllaniladi. Toʻrt-taktlik takrori ham oʻlishlari mumkin. Ular toqrttali slesh belgisi va 4 raqam bilan koʻrsatiladi. Bundan koʻproq taktli parchalarni takrorlash uchun oddiy rapriza belgisidan foydalaniladi. <sup>35</sup>



### *Tayanch tushunchalar*

Koʻp ovozli musiqa, nota tayoqchalari, akkolada, toʻrt ovozli xor musiqasi, qoʻsh tovushlar va akkordlar, maxsus qavs, birlashtiruvchi toʻgʻri qavs, partitura{ XE "partitura" \i }. Tovush kuchi, dinamika, dinamik belgilar, kuyning koʻtariluvchi va quyilashtiruvchi harakatini ifodalash, muttasil kuchlilik darajasini belgilovchi, muttasil oʻzgaruvchi kuchlilikni ifodalovchi va kuchlilik darajasini oʻzgartirish uchun qoʻllaniladigan belgilar. Bir oktava yuqoriga yoki pastga koʻchirish belgisi, repriza, birinchi vol'ta, da capo al fine{ XE "da capo al fine" }, fine, segno, Dal segno al fine, Da capo al Segno poi coda, tremolo, tovushni ikki oktavada ijro etish belgisi, all 8 va, all 8 va bassa.

### *Mavzuni mustahkamlash uchun savollar*

1. Forteplano musiqasi qay shaklda yoziladi?
2. Ansambllar musiqasini yozishda qanday usullardan foydalaniladi?
3. Toʻrt ovozli xor musiqasi qanday shakllarda yozilishi mumkin?
4. Akkolada va toʻgʻri qavs nimani ifodalaydi?
5. Partitura deganda nimani tushunasiz?
6. Toʻrt ovozli xor musiqasi ikki nota yoʻlida yozilishi mumkinmi?
7. Forteplano musiqasini bildiruvchi egri qavs qanday ataladi?
8. Uch nota yoʻlida qanday asarlar yoziladi?

---

<sup>35</sup> Mark Feezell. Music theory fundamentals. High-yield music theory, vol.1. 2011

9. Tovush dinamikasi haqida nima bilasiz?
10. Dinamik belgilarning vazifasi nimadan iborat?
11. Muttasil kuchlilik darajasini bildiruvchi belgilarni ayting?
12. Kuchlilik darajasini o'zgartirish uchun qanday belgilar qo'llaniladi?
13. Muttasil o'zgaruvchi kuchlilik qanday belgilar orqali ko'rsatiladi?
14. Nota yozuvini qisqartirish uchun qanday belgilar ishlatiladi?
15. Bir oktava pastga yoki yuqoriga ko'chirish qanday amalga oshiriladi?
16. Birinchi va ikkinchi vol'ta deganda nimani tushunasiz?
17. Segno belgisi qanday vazifani bajaradi?
18. Biron takti bir yoki bir necha marta takrorlash lozim bo'lganida qaysi belgi yoziladi?

## 5-BOB: METR.

### 1-§. MUSIQAVIY ZARB. METR, O'LCHOV, TAKT. TAKT CHIZIG'I. TAKT OLDI

Musiqani tinglayotganimizda biz beixtiyor yoki ongli ravihda, bir maromda boshimizni chayqaymiz. Bunday xarakatlarni o'ziga jalb etadigan, bizga "buyruq" beradigan, musiqaga harakatlanish, qo'limzni silkitish, oyog'imiz bilan erni tepkilashni *pulsatsiyasi* (tomirning bir tekis urishi) undaydi. Pulsatsiya – bu bir tekis ravishda urib turadigan zarblardan iborat jarayondir.

Musiqqa amaliyotida tovushlar ma'lum bir vaqt davomida yangraydi. Tovushlarning ma'lum bir vaqtlarda teng hissalariga bo'linib, almashib turishi musiqada bir tekis, ravon harakatni hosil qiladi.

Tovushlarning ana shu vaqtli harakati paytida ayrim hissalar *urg'usi* ajralib turadi. Bu urg'ularga **zarb**{ XE "зaрб" \b } (aktsent) deyiladi.

Ushbu vaqtli harakat jarayonida urg'u tushadigan hissalar *kuchli hissalar*, urg'u tushmaydigan hissalar esa *kuchsiz hissalar* deyiladi.

Kuchli va kuchsiz hissalarining tekis almashinib turishi **metr**{ XE "метр" \b } deyiladi. Metr hissasi xilma-xil cho'zimlarda ifodalanadi.

Metr hissasining ma'lum bir cho'zimda ifodalanishi **o'lchov**{ XE "ўлчoв" \b } deyiladi.

O'lchovlar nota chizig'ida vertikal tarzda joylashgan ikkita raqam bilan yoziladi. Bu raqamlar birin-ketin yuqoridan pastga qo'yilgan bo'lib, kalit yonida al'teratsiya belgilaridan so'ng joylashtiriladi. Masalan:



Bunda ustki raqam metrdagi hissalar sonini, quyidagi raqam esa, mazkur o'lovdagi metr hissasining qanday cho'zinda ifodalanganligini bildiradi.

Musiqqa asarining bir kuchli hissadan ikkinchi bir kuchli hissagacha bo'lgan oralig'i **takt**{ XE "такт" \b } deyiladi.

Nota yozuvida har bir takt nota yo'lini ko'ndalang kesib o'tgan vertikal chiziq bilan ajratiladi, bu vertikal chiziq **takt chizig'i** deyiladi. Takt chizig'i odatda takt oldidan kuchli hissani ajratib ko'rsatish uchun qo'yiladi.

Agar musiqqa asari kuchsiz hissadan boshlansa, asar boshidan to'liq bo'lmagan takt hosil bo'ladi, bunga **takt oldi**{ XE "такт олди" \b } deyiladi. Takt oldi ko'p hollarda umumiy takt cho'ziminin yarmidan oshmaydi. Takt oldi musiqqa asarining o'rtasida, uning istalgan bir qismi boshlanishi oldida ham uchrashi mumkin.

Asar oxirida yoki uning biron qismidan so'ng ikkita takt chizig'i qo'yiladi. Ko'pgina hollarda takt oldi bilan boshlangan asar yoki uning biror qismi to'liq bo'lmagan takt bilan tugallanadi va u takt oldini to'ldiradi.

**Hissa. Takt. Takt chizig'i. Yakunlovchi takt chizig'i:** Hissa musiqiy pulsni takrorlanadigan urishdir. Tinglovcilar musiqqa bilan birga bir xil maromda oyoqlari bilan yer tepib yoki qo'llari bilan chapak chalib, uni (har bir hissani) his qiladilar. Musiqachilar hissalarini bir guruhga birlashtirib, unga **takt** deb atashadi. Har bir takt oxirida **takt chizig'i** qo'yiladi. Maxsus **yakunlovchi takt chizig'i** asar yoki uning nisbatan tugallangan qismi yakunini ko'rsatadi.



**Og'ir hissa. Kuchli hissa. Kuchsiz hissa:** Og'ir hissa hak taktning birinchi hissasi. Og'ir hissa asosiy va turg'un ( kuchli) hissa hisoblanadi, chunki u har yangi hissalar guruhini boshlab beradi. Har taktning oxirgi hissasi noturg'un (kuchsiz) bo'ladi, chunki u oldinga, keyingi taktga tortuvchi hissadir. Taktning oxirgi hissasi og'ir hissadan ko'ra ko'proq aktiv (serharakat) bo'lib tuyuladi, chunki u kuy harakatini turg'un, kuchliroq og'ir hissa tomonga rag'batlantiradi.

**Hissalar ketma-ketliklari:** Quyidagi hissalar ketma-ketliklari odatiydir:

1. Ikki-hissali metr: ikkita hissa Kuchli-kuchsiz xildagi ketma-ketlikda almashinib keladi.
2. Uch-hissali metr: uchta hissa Kuchli-kuchsiz-kuchsiz xildagi ketma-ketlikda almashinib keladi.
3. To'tr-hissali metr: to'rtta hissa Eng kuchli-kuchsiz-Kuchli-kuchsiz xildagi ketma-ketlikda almashinib keladi

**Asimtrik o'lovlar:** Asimtrik o'lovlar ikkita va uchta maydaroq cho'zimga bo'linadigan hissalar aralashmasiga ega bo'ladi. Ustki raqam taktiga mayda cho'zimdagi notalar sonini (ko'pincha 5, 7, 11) ko'rsatadi. Pastki raqam mayda notaning cho'zimini (hissa birligini emas) ko'rsatib turadi. Har bir hissaning mayda notalari bitta guruhga birlashib, qovurg'chlar bilan bog'lanadi.<sup>36</sup>

**Asimtrik o'lovlarini ijro etish:** Asimtrik o'lovlarda uchta mayda notaga bo'linadigan hissalar ikkiga bo'linadiganardan ko'ra uzunroq bo'ldi. Mayda notalarning uzunligi (hissa birligining emas) bir xil bo'lish kerak. Quyida keltirilgan chap tarafdagi misolda nimchoraklar pulsi barqaror uradi, ong tarafdagi misolda esa choraklar pulsi barqarordir (qarang 1.7. Turkumlash/Guruhlash, triollar).<sup>37</sup>

## 2-§. ODDIY METRLAR VA O'LOVTLAR. ODDIY O'LOVTLI TAKTLARDA CHO'ZIMLARNING TURKUMLANISHI

Musiqqa amaliyotida kuchli hissalar har bir hissadan keyin bir tekisda takrorlanib turadigan metrlar *ikki hissali metrlar* { XE "икки ҳиссали метрлар" \b } deyiladi.


Kuchli hissalar har ikki hissadan keyin takrorlanib turadigan metrlar esa uch hissali metrlar deyiladi.

Ularning o'lovlarini ham shu tarzda bo'lsa, bularga **oddiy o'lovlar** deyiladi. Oddiy o'lovlarga quyidagilar kiradi:

<sup>36</sup> Mark Feezell. Music theory fundamentals. High-yield music theory, vol.1. 2011

<sup>37</sup> Mark Feezell. Music theory fundamentals. High-yield music theory, vol.1. 2011

a) ikki hissali o'lovlar:  $\frac{2}{2}; \frac{2}{4}; \frac{2}{8}; \frac{2}{16}$ .  $\frac{2}{2}$  o'lovi **alla breve** deb yuritiladi va



belgisi bilan ko'rsatiladi.

b) uch hissali o'lovlar:  $\frac{3}{2}; \frac{3}{4}; \frac{3}{8}$ .  $\frac{3}{16}$  o'lovi nisbatan kam uchraydi.

Agar bir takt ichida ritmlar turkumlansa, unga **cho'zimlar turkumlanishi** { XE "чўзимлар туркумланиши" \b } deyiladi. Oddiy o'lovlardagi cho'zimlar turkumlanganda, taktning asosiy hissalarini bir-biridan ajratiladi. Masalan:



Oddiy o'lovlardagi cho'zimlar turkumlanishi tartibida quyidagi istisnolarga yo'l qo'yiladi:

1. Bir xil bo'lgan barcha cho'zimlar umumiy chiziq, qovurg'acha ostiga birlashtiriladi. Masalan:



Taktning kichik hissali o'lovida quyidagicha turkumlanishga yo'l qo'yilishi mumkin.



2. Cho'zimi butun bir taktning egallagan tovush ligasiz, bir nota bilan yoziladi.




Notalar qanday turkumlansa, pauzalar ham shunday turkumlanadi.






**O‘lchov. Hissa birligi. Oddiy o‘lchov: Vaqt o‘lchovi (yoki metr o‘lchovi)** bitta takt ichida nechta hissa borligini va har bir hissa qaysi cho‘zimga egaligini ko‘rsatib turadi (ushbu cho‘zim **hissa birligi** deb ataladi). **Oddiy metrda** o‘lchovning ustki raqami har taktda hissalar soni, pastdagi raqami esa hissa birligini bildirad. O‘lchovlar kasrlar emasdir, negaki o‘lchov raqamlari orasida chiziq qo‘yilmaydi.



**Ikki-, Uch-, To‘rt-hissali metr:** Asarning har bir takti ikki hissadan iborat bo‘lsa **Ikki-hissali metr** (ya‘ni o‘lchov), uch hissadan – **Uch-hissali**, to‘rtta hissa **To‘rt-hissali metr** hosil qiladi.



**Takt oldi va hissalar ketma-ketliklari murakkab metrda:** Murakkab metrda ham yozilgan asar takt oldidan boshlanishi mumkin. Shunday ekan, demak asarning oxirgi takti takt oldi evaziga qisqaradi, xuddi oddiy metrdaqa. Murakkab ikki-, uch-, to‘rt hissali metrlarga **1.5. O‘lchovlar Oddiy metrda** paragrafda keltirilgan hissalar ketma-ketligi xillari muvofiqdir.

**O‘lchovlar va metr yuzasidan umumiy qisqa bayon:** **Oddiy o‘lchovlar** masalasi juda oddiydir: ustki raqam – hissalar soni, pastkisi – hissa birligi. **Murakkab o‘lchovlar** deyarli har doim **6, 9, 12 yoki 15** ustki raqamga egadir; ular mayda notalar sonini bildiradi; pastki raqam mayda nota cho‘zimini ko‘rsatadi. **Asimetrik o‘lchovlar** uzunligi har xil bo‘lgan hissalariga egadir. murakkab o‘lchovlarga oxshab, asimetrik o‘lchovlarda ham mayda nota cho‘zimi korsatiladi, hissa birligi emas.



### 3-§. MURAKKAB METRLAR VA O'LCHOVLAR. MURAKKAB O'LCHOVLI TAKTLARDA CHO'ZIMLARNING TURKUMLANISHI

Bir xildagi oddiy metrlarning qo'shilishi natijasida **murakkab metrlar** hosil bo'ladi.

Murakkab metr ikki va undan ham ko'proq oddiy metrlardan tarkib topishi mumkin. Shuning uchun ham murakkab metrlar vaqt-vaqti bilan uchraydigan bir necha kuchli hissaga egadir. Hamisha murakkab metrdagi kuchli vaqt hissasining soni uning tarkibidagi oddiy metrlar soniga teng bo'ladi.

Murakkab metr birinchi hissasining zarbi qolgan zarblarga nisbatan kuchliroq bo'ladi va shuning uchun bu hissaga **kuchli hissa**{ XE "кучли хисса" \b }, unga nisbatan kuchsizroq bo'lgan hissaga esa, **nisbatan kuchli hissa**{ XE "нисбатан кучли хисса" \b } deyiladi.

Murakkab metrlarni ifodalovchi barcha o'lchovlar **murakkab o'lchovlar**{ XE "мураккаб ўлчовлар" \b } deyiladi. Shu sababli murakkab metrlarning tarkibi borasidagi fikrlar murakkab o'lchovlarga ham taalluqlidir.

Murakkab metrlarni ifodalovchi eng ko'p qo'llaniladigan o'lchovlarga quyidagi murakkab o'lchovlar kiradi:

a) to'rt hissali o'lchovlar:  $\frac{4}{2}; \frac{4}{4}$ . kam uchraydigani:  $\frac{4}{8}$ .

b) olti hissali o'lchovlar:  $\frac{6}{4}; \frac{6}{8}$ . kam uchraydigani  $\frac{6}{16}$ .

v) to'qqiz hissali o'lchovlar:  $\frac{9}{4}; \frac{9}{8}$ . kam uchraydigani:  $\frac{9}{4}; \frac{9}{16}$ .

g) o'n ikki hissali o'lchovlar:  $\frac{12}{4}; \frac{12}{8}$ . kam uchraydigani:  $\frac{12}{16}$ .


Murakkab o'lchovlarda turkumlash shundan iboratki, ularni tashkil etgan oddiy o'lchovlar umumiy ritmik turkumlarga birlashtirilmay, ayrim-ayrim mustaqil turkumlarga birlashtiriladi.

Agar tovush biror murakkab takti butunligicha egallasa, umumiy cho'zimli tovush shaklida, biror nota bilan yoziladi. Ba'zan esa, cho'zimli oddiy taktlarga teng keladigan, liga bilan birlashtirilgan notalar yordamida ham yozilishi mumkin. Bu oxirgi usul murakkab o'lchovlarni turkumlash qoidasiga mos keladi.

**Murakkab o'lchov: Murakkab o'lchovda** hissalar ikkitaga emas, balki uchta maydaroq notalarga bo'linadi. O'lchovning ustki raqami taktiga mayda cho'zimli notalar sonini ko'rsatadi. Pastki raqam mayda notaning cho'zimini ko'rsatib turadi. Uchta mayda nota bitta hissani tashkil etadi.


6 = 6 division notes  
8 = ♩ is division of beat  
One beat = ♩ + ♩ + ♩ = ♩  
2 beats (Duple)

**Murakkab o'lchovlar**, Decodingi: Ustki raqami **6, 9, 12, yoki 15** o'lchovlar murakkab hisoblanadi. Hissalar soni raqamini olib, uni uchga bo'lamiz. Shunda, hissa birligi nuqtali nota bo'lib, uning cho'zimi pastki raqam cho'zimiga ko'ra har doim bittaga kattaroq bo'ladi: o'lchov pastki raqami 16 bo'lsa, hissa birligi nuqtali nimchorak (8talik) nota bo'lib chiqadi, pastki raqam 8 – hissa birligi nuqtali chorak bo'ldi va x.k. Murakkab o'lchovlar ikki, uch, to'rt yoki besh hissali bo'lishi mumkin.



1 2 3

9 = 9 division notes  
16 = 8th note is division of beat  
One beat = 3 eighth notes  
3 beats (TRIPLE)



1 2 3 4

12 = 12 division notes  
8 = 8th note is division of beat  
One beat = 3 eighth notes  
4 beats (QUADRUPLE)

#### 4-§. ARALASH METR VA O'LCHOVLAR. ARALASH O'LCHOVLI TAKTLARDA CHO'ZIMLARINING TURKUMLANISHI. O'ZGARUVCHAN O'LCHOVLAR

Har qanday oddiy metrlarning qo'shilishi natijasida murakkab metrlar hosil bo'ladi. Ikki yoki bir necha har xil ko'rinishdagi oddiy metrlar birlashuvi natijasida murakkab aralash metrlar hosil bo'ladi. Bu xildagi metrlar **aralash metrlar**{ XE "аралаш метрлар" \b }, ularni ifodalovchi o'lchovlar esa **aralash o'lchovlar** deb ataladi.


Musiqada aralash o'lchovlar oddiy va murakkab o'lchovlarga qaraganda ancha kam uchraydi. Bular orasida besh hissali va yetti hissali o'lchov ko'proq qo'llaniladi.

Ba'zida aralash o'lchovlarning boshqa xillari ham uchrashi mumkin. Masalan:  $\frac{11}{4}$ .

Aralash o'lchovlar murakkab o'lchovlardan ayrim xususiyatlari bilan farq qiladi.

1. Aralash o'lovlarining tuzilishi ularni hosil qiladigan oddiy o'lovlarining ketma-ket kelishiga bog'liqdir. Bu esa, kuchli va nisbatan kuchli hissalarining almashinib turishiga ham ta'sir etadi:

2. Taktning kuchli va nisbatan kuchli hissalarining almashinib turishi tekis bormaydi. Masalan: a) besh hissali o'lovlar:



Yuqoridagi birinchi misolda aksent taktning birinchi va uchinchi hissalariga, ikkinchi misolda esa taktning birinchi va to'rtinchi hissalariga to'g'ri keladi. b) yetti hissali o'lovlar:



Bunda birinchi misolda kuchli zarb taktning birinchi, to'rtinchi va oltinchi hissalariga, ikkinchi misolda esa taktning birinchi, uchinchi va beshinchi hissalariga to'g'ri kelmoqda. Ayrim vaqtlarda bir musiqa asari ichida aralash o'lovni hosil qiladigan o'lovlarining almashinish tartibi o'zgarib ham turadi.

Aralash o'lovli notalarni o'qish qulay bo'lishi uchun, ba'zida o'lovni ko'rsatuvchi asosiy raqam yoniga qavs ham yoziladi. Bundan tashqari, ba'zan taktida oddiy o'lovlar boshlanishini ko'rsatuvchi punktir bilan qo'shimcha takt chizig'i yoziladi.

Murakkab o'lovli cho'zimlar qanday turkumlansa, aralash o'lovli cho'zimlar ham shunday turkumlanadi. Aralash o'lovli cho'zimlar turkumlanishining xususiyati shuki, aralash o'lovlar tarkibiga kiradigan har xil ko'rinishdagi oddiy o'lovlarining ritmik turkumlari teng bo'lmaydi.

Musiqada bir asar davomida metrning, ayni paytda o'lovning ham o'zgarib turish hollari uchraydi. Bunday o'lovlar *o'zgaruvchan o'lovlar* deyiladi. O'zgaruvchan o'lovlarni xalq qo'shiqlarida va boshqa turli musiqa asarlarida uchratish mumkin.

O'lovlar tekis va notekis almashinadilar. O'lovlar tekis almasha, kalit belgisi yoniga kasr shaklida ikkita raqam qo'yiladi. O'lovlar notekis almashib

tursa, nota matnida o'lovlarining har bir o'zgarishi yozib qo'yiladi. Shuni ham aytib o'tish kerakki, bu xildagi takt tuzilishi musiqada deyarli uchramaydi.

Musiqada xilma-xil metrlarning birdaniga (ustma-ust) kelishi ham uchraydi, bunga **polimetriya** { XE "полиметрия" \b } deyiladi. Polimetriyaning tub xususiyati musiqasi asarlaridagi ayrim ovozi (partiya)larning xilma-xil metr o'lovi bilan ifodalanishidir. Bunda metr aksentlari bir-birlariga mos tushishi va mos tushmasligi ham mumkin.

**Murakkab va Asimetrik metrlar:** Murakkab o'lovlar, temp va metr, asimetrik o'lovlar, takt oldi va hissalar ketma-ketliklari, o'lovlar yuzasidan umumiy qisqa bayon<sup>38</sup>

### 5-§. VOKAL MUSIQASIDA TURKUMLASH

Vokal ijroga mo'ljallangan musiqada cho'zimlar turkumlanishi talaffuz etiladigan nutqning o'ziga xosligi va bo'g'in tarkibiga bog'liq bo'ladi. Bir bo'g'inga to'g'ri keladigan ayrim cho'zimlar qo'shni cho'zimlar bilan turkum bo'lib birlashmaydi. Shuningdek, agar bir bo'g'inga bir necha tovush to'g'ri kelsa, bu tovushlar cho'zimi turkumlarga umumiy qoida bo'yicha birlashtiriladi.

---

<sup>38</sup> Mark Feezell. Music theory fundamentals. High-yield music theory, vol.1. 2011

# ВЕСЕННЯЯ ПЕСЕНКА

# БАҲОР КУШИҒИ

Слова Т. ТУЛЫ  
Перевод М. Ушакова

М. БУРХАНОВ

Tempo di valzer, con dolcezza

mf mp mf p pp

mf

trill

trill

ppp cresc.

trill

mf pp ppp

pp p

Ой, тюль - па - ны, рас - цве - тай - те, улы - бай -  
ло, ла - гул - лар, жо - но - на гул - лар, гул - гул ку - линг

ppp pp


**Turkumlash/Guruhlash:** turkumlash, guruhlash, triol, kvintol, sekstol, septol, qavslash, duol va kvartol (murakkab o'lchovlar)

**Hissa bo'linishi:** Oddiy metrdagi har bir hissa o'z ichida ikkita yoki to'rtta teng bo'laklarga bo'linishi mumkin. Quyida bitta chorakli hissa ikkita nimchorak yoki to'rtta o'n oltitalik notalarga teng bo'ladi. (qarang 1.4. Cho'zimlar).


Beat units:                      Beat divisions:                      Beat subdivisions:

**Boshqa hissa birliklari. Kesilgan o'lchov. Alla breve. Odatiy o'lchov:** Oddiy o'lchov pastki raqami hissa birligini ko'rsatib turadi: 2 – yarimtalik nota, 4 – chorak, 8 – nimchorak (sakkiztalik) va x.k. Quyida keltirilgan birinchi misoldagi o'lchov

**kesilgan o'lchov** yoki **alla breve** deyiladi. Ikkinchi misoldagi o'lchov umuman Barokko badiiy yo'nalishdagi musiqaqa xosdir; ayrim hollarda sakkiztalik notalar bog'lovchi qovurg'ani o'rniga bayroqchalar bilan yoziladi. Oxirgi misoldagi o'lchov goh-gohida **odatiy o'lchov** deb aytiladi.



**Takt oldi:** Ba'zi kuylar **takt oldi** (yoki **to'liqsiz takt**) dan boshlanadi. Ko'pincha takt oldi bitta hissadan iborat bo'ladi, lekin har doim emas. Agar takt oldi mavjud bo'lsa, yakunlovchi takt qisqargan bo'ladi, chunki ular ikkalasi birgalikda to'liq takt uzunligiga baravar bo'ladi.



**Turkumlash. Guruhlash:** Asosiy nota cho'zidlari 2ta, so'ng 4ta, keyin 8ta va x.k. bir xil maydaroq chozidlarga bo'linadi (qarang 1.4. **Nota cho'zidlari**). **Turkumlash (Guruhlash** ham deb atalishi mumkin) – **bu** muayyan bir cho'zim (hissa birligi) davomlilikini maydaroq notalar bilan to'ldirish demakdir.

### *Tayanch tushunchalar*

Musiqaviy zarb, metr, o'lchov, takt, takt chizig'i, takt oldi, musiqa da bir tekis ravon harakat, kuchli hissalar, kuchsiz hissalar, metrdagi hissalar soni. Oddiy metrlar va o'lchovlar, cho'zimlar turkumlanishi, ikki hissali metrlar, uch hissali metrlar, *alla breve* belgisi, taktning asosiy hissalar, pauzalar turkumlanishi. Murakkab metrlar, murakkab o'lchovlar, murakkab o'lchovli taktlarda cho'zimlarning turkumlanishi, kuchli hissa, nisbatan kuchli hissa { ХЕ "нисбатан кучли хисса" \b }, murakkab o'lchovlarda turkumlash. Aralash metr va o'lchovlar, cho'zimlarning turkumlanishi, aralash metrlar, aralash o'lchovlar, taktning kuchli va nisbatan kuchli hissalar. O'zgaruvchan o'lchovlar, metr, o'lchov, o'lchovning tekis almashishi, o'lchovning notekis almashishi, polimetriya. Ritm, metr, ritmik turkumlar, juft bo'linadigan

choʻzimlar, erkin boʻlinishlar, triol, kvintol, sekstol, septol, duol, kvartol, pauza, 9, 11 va undan ham koʻp hissali turkumlar.

### *Mavzuni mustahkamlash uchun savollar*

1. Hissalar urgʻusi qanday ataladi?
2. Zarb deb nimaga aytiladi?
3. Kuchli hissalar qaysilar kiradi?
4. Kuchsiz hissalar deganda qaysi zarblar nazarda tutiladi?
5. Takt deganda nimani tushunasiz?
6. Qanday chiziq takt chizigʻi deyiladi?
7. Takt oldi qay holatlarda namoyon boʻladi?
8. Asar oxirida qanday belgi qoʻyiladi?
9. Asarda, takt chizigʻi oʻrnida ikkita ingichka chiziq qoʻyilsa, nimani anglatadi?
10. Oʻlchovdagi yuqori va pastki raqamlar nimani bildiradi?
11. Bir kuchli hissadan ikkinchi kuchli hissagacha boʻlgan oraliq qanday ataladi?
12. Oʻlchov deb nimaga aytiladi?
13. Taktning hajmi nimaga bogʻliq boʻladi?
14. Metr deb nimaga aytiladi?
15. Oddiy oʻlchov deb nimaga aytiladi?
16. Kuchli hissalar har bir hissadan keyin tekis takrorlanib turadigan metrlar qanday metrlar deyiladi?
17. Choʻzimlar turkumlanishi deb nimaga aytiladi?
18. *alla breve* oʻlchovi qanday sanaladi?
19. Pauzalar qay tartibda turkumlanadi?
20. Murakkab metrlar deb nimaga aytiladi?
21. Murakkab oʻlchovlar deb nimaga aytiladi?
22. Kuchli hissa deganda nimani tushunasiz?
23. Toʻrt hissali oʻlchovda kam uchraydigani qaysi oʻlchov?
24. Nisbatan kuchli hissa atamasi nimani anglatadi?
25. Qanday oʻlchovlarga aralash oʻlchovlar deyiladi?
26. Aralash metrlar deb qanday metrlarga aytiladi?
27. Aralash oʻlchovlar qanday yoziladi?
28. Aralash oʻlchovlar asosan necha hissali oʻlchovlardan tashkil topadi?
29. Qanday oʻlchovlar oʻzgaruvchan oʻlchovlar deyiladi?
30. Oʻlchovlar tekis almasha, qanday koʻrsatiladi?
31. Oʻlchovlar notekis almasha, qay tarzda ifodalanadi?



32. Musiqada xilma-xil metrlarning birdaniga (ustma-ust) kelishi qanday ataladi?
33. Ritmik turkumlarni ta'riflab bering.
34. Asosiy cho'zimplarga qaysilar kiradi?
35. Erkin bo'linish deganda nimani tushunasiz?
36. Triol' qanday ijro etiladi?
37. Kvartol' qanday yoziladi?
38. Septolda notalar qay tartibda joylashadi?
39. Kvintol nechta notadan iborat va u qay tarzda ijro etiladi?

## 6-BOB: RITM, TEMP.

### 1-§. RITM. CHO'ZIMLARNING ASOSIY VA ERKIN RAVISHDA BO'LINISHI

O'zaro bog'lanib izchil kelgan tovushlar cho'zimi **ritm**{ XE "ритм" \i } deyiladi. Musiqada tovushlar cho'ziminin ketma-ket kelishi natijasida ular ma'lum vaqt ichida almashinib turadi. Musiqiy tovushlarning muayyan tartibda bog'langan cho'zimplari birlashib, ritmik turkumlar (usullar)ni hosil qiladi. Musiqa asarining umumiy ritmi ana shu ritmik turkumning yig'indisidan tarkib topadi. Masalan:




Musiqa amaliyotida quyidagi cho'zimlar keng qo'llaniladi:

1. Asosiy, juft bo'linadigan cho'zimlar, ular – butun, yarimtalik, chorak, sakkiztalik (nimchorak), o'n olitalik va hokazo.

2. Ushbu asosiy cho'zimplarni istalgan teng qismlarga erkin, shartli bo'lish natijasida erkin bo'linishlar hosil bo'ladi. Ushbu bo'linishlar nomlari oddiy intervallar nomlaridan olingan.

Ular qatoriga eng ko'p uchraydigan quyidagi erkin bo'linishlar kiradi:

a) **Triol'**{ XE "триоль" \b } - asosiy cho'zimning ikki qism o'rniga, uch qismga bo'linishidan hosil bo'ladi:



b) **Kvintol** – asosiy cho'zimning 4 qism o'rniga, besh qismga bo'linishidan hosil bo'ladi:







v) **Sekstol** – asosiy cho‘zimning to‘rt qism o‘rniga olti qismga bo‘linishidan hosil bo‘ladi:



g) **Septol** - asosiy cho‘zimning to‘rt qism o‘rniga yetti qismga bo‘linishidan hosil bo‘ladi:



d) **Duol** – yoniga nuqta qo‘yilgan asosiy cho‘zimning ikki qismga bo‘linishidan hosil bo‘ladi:



U odatdagicha bo‘linganida quyidagiga teng:



e) **Kvartol** – yoniga nuqta qo‘yilgan asosiy cho‘zimning to‘rt qismga bo‘linishidan hosil bo‘ladi:




Cho‘zimlar turkumiga **pauza** ham kirishi mumkin va turkumdagi cho‘zimlarga teng bo‘ladi:



Musiqa amaliyotida asosiy cho‘zimlarning bulardan ham kichikroq qismlarga erkin bo‘linishi juda kam uchraydi. Masalan: 9, 11 va undan ham ko‘p hissali tovushlardan tuzilgan turkumlar ham bo‘lishi mumkin.

**Triol** - nota cho‘zimini ikkita yoki to‘rtta notani o‘rniga teng bo‘lgan uchta notaga notaga



maydalatib beradi. Triolda muayyan cho‘zim ikkiga bo‘linishi natijasida hosil boladigan maydaroq notalardan foydalaniladi. Quyidagi misolda nimchorak nota chorakning ikkiga bo‘linishdagi notadir, demak triol ham nimchorak notalardan tashkil topadi.

**Kvintol, Sekstol, septol: Oddiy o‘lchovlarda Kvintol** (beshta teng nota, **Sekstol** (oltita teng nota), **Septol** (yettita teng nota) muayyan cho‘zim to‘rtga bo‘linishi natijasida hosil boladigan maydaroq notalardan foydalaniladi.

Read each staff left to right to see all the divisions.

The diagram illustrates the division of notes into groups. It shows three rows of musical staves: 'whole note', 'half note', and 'quarter note'. Above the staves, there are labels for the number of parts in each group: '1 part', '2 parts', '3 parts', '4 parts', '5 parts', '6 parts', '7 parts', and '8 parts'. Brackets are drawn under the notes to indicate these groupings. For example, a whole note is divided into 3 parts (triplet), 4 parts, 5 parts (quintuplet), 6 parts (sextuplet), 7 parts (septuplet), and 8 parts. The same divisions are shown for half and quarter notes. The numbers 3, 5, 6, and 7 are written below the brackets for the respective groups.

**Turkumni qavslash:** Turkum qavslari qovurg‘chalari yo‘q (butun, yarimtal, chorak) notalarga nisbatan qo‘llaniladi. Ular nota boshi tomonidan raqam bilan qo‘yladilar.

**Duol va kvartol (murakkab o‘lchovlarda): Murakkab o‘lchovlarda** (qarang 1.6. **Murakkab va Asimetrik Metr**) duol va kvartol ko‘rinishi oddiy metrda hissa bo‘linishiga oxshaydi.


Duplets:

The diagram shows a duplet in 6/8 time. A bracket under two eighth notes is labeled '2'. Above the notes, a quarter note is shown with the text '= beat unit'. To the right, the text 'looks like...' is followed by a 2/4 time signature and two quarter notes, with a quarter note above them labeled '= beat unit'.


Quadruplets:

The diagram shows a quadruplet in 6/8 time. A bracket under four eighth notes is labeled '4'. Above the notes, a quarter note is shown with the text '= beat unit'. To the right, the text 'looks like...' is followed by a 2/4 time signature and two quarter notes, with a quarter note above them labeled '= beat unit'.

**Duol va kvartol nuqtali nota sifatida: Duol va kvartol** murakkab o‘lchovlarda xuddi nuqtali notadek yozilishi ham mumkin. Quyidagi misolda bitta hissaga teng keladigan **oltita** o‘n oltitaliklar hissaning har yarimi uchta o‘n oltitalikdan iborat bo‘lgan ikkita guruhga ajralgan.



**Noodatiy turkum:** Noodatiy turkum yoki tushunarsiz bo‘lgan turkum, gohida, batafsil yoritilgan mutanosiblik bilan ko‘rsatiladi.<sup>39</sup>



## SINKOPA.

Musiqa ijrosida ritm va metr urg‘ulari orqali ma’lum izchillik o‘zgarishiga **sinkopa** { XE "синкопа" \b } deyiladi. Sinkopa musiqada nihoyatda ko‘p uchraydi. U metrning kuchsiz hissasidagi tovushning navbatdagi kuchli hissasida ham eshutilishidan hosil bo‘ladi. Buning natijasida zarb metrning mana shu kuchsiz hissasiga o‘tadi. Boshqacha qilib aytganda, sinkopaning yorqin ko‘rinishlari a) kuchsiz hissada olingan tovushning yangrashi keyingi kuchli hissada ham davom etilishi; b) kuchli hissaga pauzaning to‘g‘ri kelishi; c) kuchsiz xissalarga ataylab aktsent berilishi bilan izohlash mumkin.

Metrning biror hissasida kuchsiz davrga to‘g‘ri kelgan tovush bundan keyingi kuchli davrga to‘g‘ri kelganda ham o‘z kuchini saqlaydi. Masalan:




Musiqa amaliyotida sinkopalarning asosiy shakli ko‘pincha quyidagicha ko‘rinishda bo‘ladi:

- a) ikki va uch hissali takt aro sinkopalar;

<sup>39</sup> Mark Feezell. Music theory fundamentals. High-yield music theory, vol.1. 2011



b) ikki va uch hissali takt ichidagi sinkopalar:



Bundan tashqari, sinkopa pauzadan keyin, zarbli hissaga to‘g‘ri keladigan joyda ham hosil bo‘lishi mumkin.

### 3-§. TEMP TURLARI

Musiqqa ijrosidagi tovushlar harakatining tezligi temp (sur‘at) deyiladi. Sur‘at musiqada muhim ifoda vositalaridan biri bo‘lib, musiqqa asari mazmunini ochib berishda, uni tinglovchiga ifodali etkazishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Musiqqa amaliyotida sur‘atlar uch asosiy guruhga (*vazmin*, *o‘rtacha* va *tez*) bo‘linadi.

Sur‘atlarni aniqlashda asosan ital‘yancha iboralar qo‘llaniladi.

**Vazmin sur‘atlar:**

*Largo* – keng

*Lento* – cho‘zib

*Adagio* – og‘ir

*Grave* – juda og‘ir

**O‘rtacha sur‘atlar:**

*Andante* – osoyishta

*Andantino* – andantedan sal tezlatib

*Moderato* – o‘rtacha

*Sostenuto* – salobatli

*Allegretto* – jonlanib

*Allegro moderato* – o‘rtacha tez

**Tez templar:**

*Allegro* – tez

*Vivo* – jonliroq

*Vivace* – jadal

*Presto* – tez, oshiqib

*Prestissimo* – juda tez

Asosiy sur'atlardan chetlashilganda harakat yo'nalmasini aniqlovchi ayrim qo'shimcha iboralardan ham foydalaniladi:

**Molto** – juda

**Assai** – nihoyat

**Con moto** – harakat bilan

**Commodo** – erkin

**Non troppo** – unchalik tez emas

**Non tanto** – u qadar sekin emas

**Sempre** – doimo

**Meno mosso** – kamroq harakat bilan

**Piu mosso** – ko'proq harakat bilan

Musiqa asarlari ijrosi yanada ta'sirchan va ifodali bo'lishi uchun umumiy harakatni **sekin-asta tezlatish** va **susaytirish belgilari** ham qo'llaniladi. Bular nota matnida quyidagi atamalar bilan yoziladi:

**Susaytirish uchun:**

**Ritenuto** – saqlanibroq

**Ritardando** – kechikibroq

**Allargando** – kengaytirib

**Rallentando** – sekinlatib

**Tezlatish uchun:**

**Accelerando** – yanada tezlatib

**Animando** – ruhlantirib

**Stringendo** – jadalroq

**Stretto** – ixchamlashtirib

Harakatni dastlabki sur'atiga qaytarish uchun quyidagi iboralar qo'llaniladi:

**A tempo**.....

o'z tempida

**Tempo primo**.....

dastlabki sur'atda

**Tempo 1**.....

dastlabki sur'atda

**L'istesso tempo**.....

o'sha sur'atda

Shuni ta'kidlash zarurki, musiqada qo'llaniladigan barcha sur'atlar nomlari shartli bo'lib hisoblanadi.

Ijro jarayonida uning sur'atini yanada aniqroq bilib olish uchun Mel'tsel tomonidan ixtiro qilingan mexanik **metronom**{ XE "метроном" \b } asbobidan yoki zamonaviy raqamli elektron metronomlardan foydalaniladi.

**Temp va metr:** Temp ba'zida murakkab o'lchovni oddiyga yoki oddiyini murakkabga aylantirib yubirishi mumkin. Bu holat ayniqsa olti yoki uch hissali o'lchovlarga xosdir.

The image shows two musical notation examples. The first is labeled 'Very fast' and shows a 6/4 time signature with two half notes, numbered 1 and 2. Below it, it says '6 = 6 division notes (2 beats)', '4 = 1/2 is division of beat', and 'One beat = 1/2 + 1/2 + 1/2 = 1/2'. This is identified as 'Compound Duple'. The second is labeled 'Very slow' and shows a 6/4 time signature with six quarter notes, numbered 1 through 6. Below it, it says '6 = 6 beats' and '4 = 1/2 is beat unit'. This is identified as 'Simple Sextuple'. The two examples are separated by 'OR...'.

**Temp** - bu hissalar tezligidir, odatda **BPM (beats per minute)** bir daqiqada nechta hissa urishi ko'rsatdi. Gohida BPM oqrniga Melsel Metronomi M.M.

ko'rsatkichi yoziladi. (Yogann Melsel 1800 yiqda metronom nomli uskuna yaratib, uni amaliyotga tadbiiq etdi). Yuqiridagi misolda temp belgilash uchun bir daqiqaga 60ta chorak nota, yoki har sekundiga bitta chorak nota tog'ri keladi degan formula yozilgan.

**Itliyancha temp ko'rstkichlari:** Musiqachilar temp belgilash uchun ko'p italiyancha atamalardan foydlanadi. Ayrimlari, tez-tez uchrab turadigan templar og'iridan boshlab tezgacha ro'yxatga olindi: Grave (tantanavor, rasmiy), Largo (juda sekin va keng), Lento (juda sekin), Adajio (sekin), Andante (yurish tezligi, o'rtacha sekin), Moderato (o'rtacha), Allegro (tez), Vivace (jonli), Presto (juda tez).<sup>40</sup>

### *Tayanch tushunchalar*

Sinkopa, vokal musiqada turkumlanish, urg'u orqali izchillik o'zgarishi, takt aro sinkopalar, takt ichidagi sinkopalar. Sur'at, temp, musiqa ijrosida tovushlar harakati tezligi, vazmin, o'rtacha va tez sur'atlar, harakat yo'nalmasini aniqlovchi qo'shimcha iboralar, sekin-asta tezlatish va susaytirish belgilari, harakatni dastlabki sur'atiga qaytarish belgilari, Mel'tsel' metronomi. Sinkopa, vokal musiqada turkumlanish, urg'u orqali izchillik o'zgarishi, takt aro sinkopalar, takt ichidagi sinkopalar.

### *Mavzuni mustahkamlash uchun savollar*

1. Sinkopa deb nimaga aytiladi?
2. Vokal musiqasida turkumlash qay tarzda amalga oshiriladi?
3. Taktaro sinkopalar qanday yoziladi va ijro etiladi?
4. Takt ichidagi sinkopalar qanday ijro etiladi?
5. Vokal musiqasini turkumlashda nimalarga e'tibor berish talab qilinadi?
6. Temp (sur'at) deb nimaga aytiladi?
7. Templar necha guruhga bo'linadi?
8. Sur'at (temp) larni aniqlashda asosan qaysi tildagi iboralar qo'llaniladi?
9. Asosiy sur'atdan chetlashilganda, harakat yo'nalmasini aniqlovchi qaysi iboralardan foydalaniladi?
10. Sekin-asta tezlatish va susaytirish belgilarining nomlarini ayting.
11. Harakatni dastlabki sur'atiga qaytarish uchun qaysi iboralar qo'llaniladi?
12. Sinkopa deb nimaga aytiladi?
13. Vokal musiqasida turkumlash qay tarzda amalga oshiriladi?
14. Taktaro sinkopalar qanday yoziladi va ijro etiladi?
15. Takt ichidagi sinkopalar qanday ijro etiladi?
16. Vokal musiqasini turkumlashda nimalarga e'tibor berish talab qilinadi?

---

<sup>40</sup> Mark Feezell. Music theory fundamentals. High-yield music theory, vol.1. 2011

## 7-BOB: LAD (MAJOR VA MINOR LADI).

### 1-§. LAD. TURG‘UN VA NOTURG‘UN TOVUSHLAR HAMDA ULARNING YECHILISHI.

Tovushlarning tonikaga nisbatan munosabatlari orqali aniqlanadigan o‘zaro aloqalari tizimiga **lad**<sup>41</sup> deyiladi. Laddagi har bir tovushning roli va harakatining xarakteri uning **laddagi funktsiya**<sup>42</sup>sini aniqlaydi. Tovushlarning munosabatlari esa lad munosabatlari yoki funktsional munosabatlar deyiladi. Laddagi tovushlarning soni, o‘rasidagi tonlar miqdori, funktsional munosabatlari turli xil shaklda ifodalanish mumkinligi musiqa taraqqiyoti tarixida turli tizim (soz)larning vujudga kelishiga asos bo‘ladi (masalan, pentatonika, diatonika, qadim yunoniston lادلari tizimi, geksaxordlar tizimi, major-minor tizimi va boshqalar).

Muayyan lad tizimiga tegishli tovushlar **pog‘ona**, pog‘onalarning balandlik bo‘yicha izchil joylashuvi **ladning tovushqatori** deb aytiladi. Laddagi tayanch tovushlar **turg‘un tovushlar**{ XE "турғун товушлар" \b } deb aytiladi. Tayanch tovushlarning bunday atalishi ularning xarakteriga mosdir, chunki, tayanch tovushda tugallangan kuy tinglovchida sokinlik va turg‘unlik taassurotini qoldiradi. Ladning birinchi bosqich tovushi **tonika**{ XE "тоника" \b } deb aytiladi.

Turg‘un tovushlardan tashqari, kuyning umumiy yo‘nalishini shakllantirishda ishtirok etadigan boshqa tovushlar ancha kuchsiz eshitiladi, shuning uchun ularga **noturg‘un tovushlar** deyiladi. Noturg‘un tovushlar hamisha turg‘un tovushlarga tortiladi.



Yuqoridagi misolda ko‘rsatilgan sol, mi va do (mazkur notalar tagiga chizilgan) turg‘un tayanch tovushlarga kiradi, noturg‘un tovushlar esa bu tovushlarga quyidagi tartibda tortiladi: sol tovushiga la, mi tovushiga fa va do tovushiga re tortiladi. Do tovushi ushbu kuyning tonikasi hisoblanadi.

Ijro jarayonida noturg‘un tovushlarning turg‘un tovushlarga o‘tishi **tovushlar echilishi**{ XE "товушлар ечилиши" \b } deyiladi. Turg‘un va noturg‘un

---

<sup>41</sup> *Lad* – (lotincha *modus*, frants. va ingl. *mode*) – totuvlik, inoqlik, hamjihatlik, ittifoq; rus tildagi «lad» so‘zining ma‘nosi grekcha  $\delta\mu\omicron\nu\acute{\alpha}$  so‘zi ma‘nosiga teng keladi (musiqiy estetik ma‘noda garmoniya ni bildiradi); quloqqa yoqimli eshitiladigan tovushlarning balandlik bo‘yicha uyg‘unlashuvi.

<sup>42</sup> *Funktsiya* – (lotincha *functio*) – bajarish, amalga oshirish; munosabatlar tizimidagi birorta narsa (kimsa) ning faoliyati, vazifasi, roli.



tovushlarning o‘zaro munosabati tuzilmasi **lad**{ XE "лад" \b } deyiladi. Har qanday kuy yoki musiqa asari ma’lum ladga asoslanadi. Lad musiqiy tovushlarning balandlik munosabatini ma’lum tartibga keltiradi va musiqaning boshqa ifoda vositalari bilan birga uning mazmuniga mos ma’lum xususiyatni hosil qiladi.

## 2-§. MAJOR VA MINOR LADI.

Turli xalqlar musiqasida xilma-xil ladlar uchraydi. Shunga qaramasdan hozirgi zamon musiqa amaliyotida major va minor ladi asosiy o‘rinni egallagan.

Turg‘un tovushlari uchta tovushdan iborat bo‘lib, major yoki katta uchtovushlikni - akkordni<sup>43</sup> hosil qilgan ladga **major ladi**{ XE "мажор лади" \b } deyiladi. Tovushlar uchtovushlikda tertsiya bo‘yicha joylashadi: katta tertsiya – pastki va o‘rta tovushlar orasida, kichik tertsiya esa o‘rta va yuqori tovushlar orasida bo‘ladi.

Minor yoki kichik uchtovushlikni hosil qilgan ladga **minor ladi**{ XE "мажор лади" \b } deyiladi. Bu uchtovushlikda ham tovushlar tertsiya bo‘yicha joylashadi va ular majorga nisbatan teskari joylashadi: kichik tertsiya – pastki va o‘rta tovushlar orasida, katta tertsiya esa o‘rta va yuqori tovushlar orasida bo‘ladi.

Uchtovushlikning eng past va eng yuqori tovushlari oralig‘ida sof kvinta intervali hosil bo‘ladi. Masalan:



Tonikadan tuzilgan major uchtovushligi **tonika uchtovushligi** deyiladi. Major ladi yettita tovushdan iborat. Laddagi tovushlarning tonikadan navbatdagi oktavaning tonikasigacha joylashuviga **lad tovushqatori** yoki **gamma**{ XE "гамма" \b }<sup>44</sup> deyiladi. Gamma hosil qilgan barcha tovushlarga **pog‘onalar** deyiladi.

Major ladingin gammadida yettita pog‘ona bor. Ular birin-ketin keladigan sekundalar hosil qiladi:

**Major gammalari:** O‘ng qo‘l barmoqlari notalar ustida, chap qo‘lning esa notalar ostida yozib ko‘rsatilgan (applikatura); katta barmoq 1 bilan belgilanadi; engarmonik tonalliklar juftidan faqat bittasi ro‘yxatga olindi.

<sup>43</sup> Akkord – ohangdoshlik.

<sup>44</sup> Gamma – yunon alfavitida harf nomi; qadimda eng pastki tovushlarni belgilash uchun qo‘llanilgan.



1 2 3 1 2 3 4 5 4 3 2 1 3 2 1

C

5 4 3 2 1 3 2 1 2 3 1 2 3 4 5

1 2 3 4 1 2 3 4 3 2 1 4 3 2 1

F

5 4 3 2 1 3 2 1 2 3 1 2 3 4 5

2 1 2 3 1 2 3 4 3 2 1 3 2 1 2

Bb

3 2 1 4 3 2 1 2 1 2 3 4 1 2 3

2 1 2 3 4 1 2 3 2 1 4 3 2 1 2

Eb

3 2 1 4 3 2 1 2 1 2 3 4 1 2 3

2 3 1 2 3 1 2 3 2 1 3 2 1 4

Ab

3 2 1 4 3 2 1 2 1 2 3 4 1 2 3

2 3 1 2 3 4 1 2 1 4 3 2 1 3 2

C#

3 2 1 4 3 2 1 2 1 2 3 4 1 2 3

2 3 4 1 2 3 1 2 1 3 2 1 4 3 2

F#

4 3 2 1 3 2 1 2 1 2 3 1 2 3 4

1 2 3 1 2 3 4 5 4 3 2 1 3 2 1

B

4 3 2 1 4 3 2 1 2 3 4 1 2 3 4

1 2 3 1 2 3 4 5 4 3 2 1 3 2 1

E

5 4 3 2 1 3 2 1 2 3 1 2 3 4 5

1 2 3 1 2 3 4 5 4 3 2 1 3 2 1

A

5 4 3 2 1 3 2 1 2 3 1 2 3 4 5

1 2 3 1 2 3 4 5 4 3 2 1 3 2 1

D

5 4 3 2 1 3 2 1 2 3 1 2 3 4 5

1 2 3 1 2 3 4 5 4 3 2 1 3 2 1

G

5 4 3 2 1 3 2 1 2 3 1 2 3 4 5

**Tabiiy minor gammalari:** O'ng qo'l barmoqlari notalar ustida, chap qo'lning esa notalar ostida yozib ko'rsatilgan (applikatura); katta barmoq 1 bilan belgilanadi; engarmonik tonalliklar juftidan faqat bittasi ro'yxatga olindi.

The image displays six musical staves, each representing a natural minor scale in a different key. The scales are: C minor, F minor, Bb minor, Eb minor, Ab minor, and C# minor. Each staff includes the following information:

- Staff Label:** The key signature (C, F, Bb, Eb, Ab, C#).
- Scale:** A sequence of notes in a natural minor scale, starting with a half note and followed by quarter notes.
- Fingerings:** Numbers 1-5 are placed above the notes for the right hand and below the notes for the left hand.
- Direction:** The first two measures of each scale are ascending, and the last two measures are descending.

### 3-§. TABIIY MAJOR VA MINOR GAMMASI.

Tabiiy major va minor tovushqatorlarining tuzilishi diatonik ton va yarim tonliklar izchil joylashuvi bilan farqlanadi.

*Ikkita bir xil nomli tovushlar orasida tuzilgan* ton va yarim tonliklar (1ton – 1ton – 0,5ton – 1ton – 1ton – 1ton – 0,5ton) strukturasi ega bo‘lgan gammaga *Tabiiy major gammasi* deyiladi.

Tabiiy major { XE "табий мажор" \b } gammasi.

Ladning har bir pog‘onasi raqam bilan yozilishidan tashqari, mustaqil nomga ham egadir:

- 1 - pog‘ona: tonika (T)
- 2 - pog‘ona: pastga boshlovchi tovush
- 3 - pog‘ona: medianta (o‘rtancha)
- 4 - pog‘ona: subdominanta (S)
- 5 - pog‘ona: dominanta (D)


6 - pogʻona: submedianta (pastki medianta)

7 - pogʻona: yuqoriga boshlovchi tovush.


Har bir ladning tonikasi, subdominantasi va dominantasi **asosiy pogʻonalar** { XE "асосий поғоналар" \b }, qolganlari esa *yondosh pogʻonalar* hisoblanadi.

Dominanta oʻz tonikasidan hamisha sof kvinta yuqorida joylashadi. Tonika bilan dominanta orasida uchinchi pogʻona bor, shuning uchun u *medianta* yaʼni, oʻrtancha deyiladi.

Subdominanta tonikadan kvinta pastda joylashgan. Subdominanta bilan tonika orasida joylashgan pogʻona *submedianta* deyiladi. Quyida bu pogʻonalarning joylashish tartibi koʻrsatilgan:




**Do major (C-dur) gammasi. Tetraxord:** Fortepiano oq klavishlari C tovushdan C tovushgacha **Do major (C-dur) gammasini** shakllantiradi. Ushbu sakkizta nota (C, D, E, F, G, A, B va keyin yana C) oʻz ichida toʻrt-notali gamma kabi ikkita qismga ajraladi. Ular **tetraxord** deb ataladi:




**Majorli tetraxord:** Pastki tetraxord va yuqorigi tetraxord har bittasi **majorli tetraxord** tuzilishi (strukturasi)ga oʻxshab tuziladi: ton-ton-yarim ton, va bir ton ularning oʻrtasida. Butun ton va yarim tonliklarning ketma-ket joylashuvi yuqorida koʻrsatilgan, qarang **1.2. Xromatik gamma va fortepiano klaviaturasi**. Eslab qoling, E bilan F, va B bilan C tovushlar orasi diatonik yarim tondir (alteratsiya belgilarisiz).

**Tonallik Do major (C-dur). Sol major (G-dur) gammasi:** Kuy va garmoniyasi uchun C-major gamma tovushlaridan foydalangan musiqa asari **C-dur tonallikda** yozilgan hisoblanadi. Major gammasi boshqa notalardan ham boshlanishi mumkin, faqat ton/yarim tonliklarning qatʼiy ketma-ketligi saqlangan holda: 1ton-1ton-0,5ton, keyin 1ton, soʻng 1ton-1ton-0,5ton va x.k. **Sol major (G-dur) gammasi** E notadan butun ton yaratish uchun F diyez notani talab qiladi, negaki E dan F gacha oraliq diatonik yarim tondir.




**Kalit belgilari:** - asarning har bir nota yo'lini boshida kalitdan keyin yoziladigan alteratsiya belgilaridir. Ularning ta'siri keyingi har bir tegishli notaga saqlanadi.




### Re

**major (D-dur) gammasi:** Do major gammaning beshichi notasi Sol (G) bo'lib chiqadi va Sol major gammasi Do majordan ko'ra bitta diyezga ko'proq ega bo'ladi. Asosiy (birinchi) tonni muayyan gammaning beshichi notaga ko'chirilishi har doyim bitta diyez qo'shib beradi (yoki bitta bemolni qisqartiradi). Sol majorning beshinchi notasi Re (D) bo'lganligi sababli (G, A, B, C, D), **Re major (D-dur) gammasi ikkita** diyezni ishga soladi. Qo'shilgan (oxirgi) diyez hamisha yangi asosiy tondan bir nota pastroq joylashadi.



**Lya major (A-dur) Mi major (E-dur):** "5 nota yuqoriga, 1 diyez qo'shiladi" kabi qoidani davom ettirsak, **Lya major (A-dur)** 3ta diyez, **Mi major (E-dur)** 4ta va x.k. diyezga egaligini hosil qilamiz. Yana bir bor, kalit belgilari ichdagi har yangi diyez yangi **asosiy tondan bir nota pastroq joylashadi.**



**Fa major (F-dur):** Xuddi shu tarzda **gamma bo'yicha beshta nota pastga sanasak, bitta diyoz qisqaradi (yoki bitta bemol qo'shiladi)**. Masalan, C, B, A, G, F = 1, 2, 3, 4, 5. Do majorning beshinchi notasi Fa (F) bo'lganligi uchun **Fa major (F-dur)** Do majordan ko'ra bitta bemolga kop'roq belgiga ega bo'ladi. Xamma bemol belgilari xuddi shunday yo'l bilan paydo bo'ladi: gamma notalarini pastga sanab, beshinchisi bemol bo'lib qo'shiladi.<sup>45</sup>

F major key signature (1 more flat than C major)

Bb major key signature (1 more flat than F major)

**Minor ladi. Tabiiy minor gammasi.** Turg'un tovushlari birin-ketin yoki bir vaqtda eshitilgan hamda kichik yoki minor uchtovushligidan hosil bo'lgan ladga *minor ladi* { XE "минор ладу" \b } deb aytiladi. Minor uchtovushligining turg'un tovushlari tertsiya bo'yicha joylashgandir.

Minor ladi harfiy tuzilma bo'yicha *moll* so'zi bilan yoziladi. Masalan: Iya minor yoki *a-moll*, do minor yoki *c-moll*.

Birinchi va uchinchi pog'onalar orasida *kichik tertsiya*, uchinchi va beshinchi pog'onalar orasida esa *katta tertsiya* mavjuddir. Minor uchtovushligining ikki chetidagi tovushlar *sof kvinta* intervalini hosil qiladi:

Tabiiy minor gammasida sekundalarning joylashishi quyidagicha bo'ladi: **kat.2, kich.2, kat.2, kat.2, kich.2, kat.2, kat.2.**


Major gammasi pog'onalari qanday raqamlar bilan belgilansa va qanday atalsa, tabiiy minor gammasi pog'onalari ham shunday belgilanadi va nomlanadi:

Tonlar: 1 1/2 1 1 1/2 1 1


pog'onalar: I II III IV V VI VII (I)

<sup>45</sup> Mark Feezell. Music theory fundamentals. High-yield music theory, vol.1. 2011





**Minor gammasi:** Eng oddiy minor gamma, **tabiiy minor gammasi**, fortepiano oq klavishlari qollanilgan holda A dan yuqoriga keyingi A gacha bo‘lgan oraliqdagi yarim ton va butun tonliklarning ketma-ketligi asosida shakllangan strukturaga mosdir: butun ton, yarim ton, butun ton; keyin butun ton; song yarim ton, butun ton, butun ton.



### *Tayanch tushunchalar*

Turg‘un tovushlar, tonika, noturg‘un tovushlar va ularning echilishi, lad. Major ladi, tabiiy major gammasi, tonika uchtovushligi, lad tovushqatori yoki gamma{ XE "гамма" \b }, pog‘onalar, medianta, submedianta, dominanta, subdominant, asosiy pog‘onalar{ XE "асосий поғоналар" \b }, yondosh pog‘onalar.<sup>46</sup>

### *Mavzuni mustahkamlash uchun savollar*

1. Qanday tovushlarga turg‘un tovushlar deyiladi?
2. Nechanchi pog‘ona tovushiga tonika deb aytiladi?
3. Qanday tovushlarga noturg‘un tovushlar deb aytiladi?

<sup>46</sup> Mishael Pilhofer and Holly Day "Music Theory for dummies" Indiana USA 2007. Wiley Publishing Inc.2011-153-page

<sup>46</sup> Mishael Pilhofer and Holly Day "Music Theory for dummies" Indiana USA 2007. Wiley Publishing Inc.2011-154-page

4. Lad deganda nimani tushunasiz?
5. Tovushlar echilishini tushuntirib bering.
6. Tayanch tovushlar qanday ataladi?
7. Qanday intervallar orqali tuzilgan ladga major ladi deb aytiladi?
8. Tonika uchtovushligini tushuntiring.
9. Gamma deb nimaga aytiladi?
10. Pog'onalar deganda nimani tushunasiz?
11. Major ladida nechta pog'ona bor?
12. Minor atamasining lug'aviy ma'nosini ayting.
13. Major va minor tovushqatorining farqi nimadan iborat?
14. Tabiiy minor gammasi qaysi intervallardan hosil qilinadi?
15. Tovushqatorning birinchi va uchinchi pog'onalari katta tertsiyani tashkil etsa, bu qanday tovushqator deyiladi?
16. Lad pog'onalarinig nomlarini ayting.
17. Subdominanta nechanchi bosqich tovushi hisoblanadi?
18. Nechanchi pog'onalar ladning asosiy pog'onalarini tashkil etadi?
19. Nechanchi pog'onalar yondosh pog'onalar bo'lib hisoblanadi?
20. Medianta bosqichini tushuntiring.

## **8-BOB: TONALLIKLIK, DIEZLI VA BEMOLLI MAJOR TONALLIKLARI KVINTA DAVRASI. MAJOR TONALLIKLARI ENGARMONIZMI**

### **1-§. TONALLIKLAR TA'RIFI. DIEZLI VA BEMOLLI MAJOR TONALLIKLARI. MAJOR TONALLIKLARINING KVINTA DAVRASI.**

Lad o'rnatilgan pardalar yoki balandliklar **tonallik** { XE "тоналлик" \b } deyiladi. Har bir tonallikning nomi tonika sifatida qabul qilingan tovush nomiga asoslangandir. Tonallik nomi lad bilan tonika iborasidan, ya'ni major so'zidan kelib chiqadi.

Masalan: do major yoki katta C – dur (harfiy tuzilma bo'yicha), sol major yoki G - dur va h.k.


Major ladida do tovushidan tuzilgan tonallik do major deyiladi.

Musiqa ijrochiligida *yettita diezli* va *yettita bemolli* tonalliklar qo'llaniladi. Bu tonalliklarning al'teratsiya belgilari kalitdan so'ng yozilib, kalit yonida yoziladigan belgilar deb ataladi.

Bir-biridan birta kalit belgisi bilan farq qiladigan tonalliklar, ularning har birida oltitadan o'xshash tovushlar bo'lganligi uchun yondosh tonalliklarga kiradi. Do




major tonalligida sol major yondosh bo‘ladi. Sol majorning birinchi pog‘onasi do majordan sof kvinta yuqorida joylashadi:



Har bir yangi gamma o‘zidan oldingi tonallikning beshinchi pog‘onasidan, ya’ni sof kvintadan tuziladi va buning natijasida biz barcha diyezli major tonalliklariga ega bo‘lamiz. Bu xildagi har bir gammaning VII pog‘onasida, kalit yonida yoziladigan yangi belgisi – diyez hosil bo‘laveradi va ular birin-ketin yetti belgigacha borib yetadi.

**Major tonalliklarining kvinta davrasi:** Yuqoriga tomon sof kvinta bo‘yicha tuzilgan diyezli va pastga tomon sof kvinta bo‘yicha tuzilgan bemolli major tonalliklarining joylashuv tartibi **kvinta davrasi** { XE "квинта давраси" \b } deyiladi.




Besh, olti va yetti diyezli major tonalliklarining har biri beshtadan yettitagacha bemol belgisi bo‘lgan tonalliklarning bittasiga engarmonik jihatdan tengdir va aksincha.

**Kvinta davrasi:** **Kvinta davrasi** tonalliklarni qat’iy tartibda joylashtirish umumiy yo‘ldir. Unda soat strelkasi bo‘yicha harakatlanishda har tonallik (uning asosiy toni) oldingi tonallikning beshinchi notasidan boshlanadi. Major tonalliklari davraning

tashqi tomonida, minorlar esa ichki tomonida ro‘yxat bo‘yicha joylashtirilgan. (Minor tonalliklar haqida qarang

**Diyez va bemollar:** Soat strelkasi bo‘yicha harakat yuqoriga beshta gamma notasi bo‘yicha harakatlantiradi va bitta diyez qo‘shib beradi (yoki bitta bemolni qisqartiradi), Soat strelkasiga qarshi harakat esa pastga beshta gamma notasi bo‘yicha harakatlantiradi va bitta bemol qo‘shib beradi (yoki bitta diyezga qisqartiradi). Har doim boshlang‘ich notani bir deb hisoblash lozim.



















47

**Diyezlar/ bemollar nota yo‘lida:** Bemollar nota yo‘lida quyidagi tartibda yoziladi: B-E-A-D-G-C-F. Diyezlar nota yo‘lida quyidagi tartibda yoziladi: F-C-G-D-A-E-B.

**Belgilari yettigacha jamlangan juft tonalliklar (oson usul):** Har bir harfiy nomga diyezli va bemolli tonallik mavjud. Nomidagi harfi bir xil bo‘lgan ikki tonalikdan faqat bittasi o‘z nomida alteratsiya belgi atamasini namoish etadi (istisno tariqada: C bemol / C / C diyez). Ikkala tonallik **kalit belgilarining umumiy soni**

<sup>47</sup> <sup>47</sup> Mark Feezell. “Music Theory Fundamentals” Copyright. 2011 All Rights Reserved. LearnMusic Theory. Net-2011-32-page


hamisha **yettiga barobar** bo‘ladi. Masalan, G bemol major 6ta bemolga ega, G major esa 1ta diyez. Qarang **2.5. Kalit belgilarini mustaqil o‘ranib chiqish usullari.**

	FLAT KEYS		SHARP KEYS	
<b>C/C#</b>	 0 flats	+	 7 sharps	=7
<b>F/F#</b>	 1 flat	+	 6 sharps	=7
<b>Bb/B</b>	 2 flats	+	 5 sharps	=7
<b>Eb/E</b>	 3 flats	+	 4 sharps	=7
<b>Ab/A</b>	 4 flats	+	 3 sharps	=7
<b>Db/D</b>	 5 flats	+	 2 sharps	=7
<b>Gb/G</b>	 6 flats	+	 1 sharp	=7
<b>Cb/C</b>	 7 flats	+	 0 sharps	=7

## 2-§. DIYEZLI VA BEMOLLI MINOR TONALLIKLARI. MINOR TONALLIKLARINING KVINTA DAVRASI.

Yondosh minor tonalliklari bir-biridan sof kvinta oralig‘ida joylashganligi uchun minor lading barcha tonalliklari mustaqil kvinta davrasini hosil qiladi, ya’ni, har bir yangi tuziladigan tonallik oldingisidan sof kvinta intervali miqdorida yuqorida joylashadi.

Quyida minor tonalliklarining kvinta davrasi chizma tarzida ko‘rsatilgan:



### *Tayanch tushunchalar*

Tonallik, diyezli va bemolli major tonalliklari, kvinta davrasi, major tonalliklari engarmonizmi, yettita diyezli va yettita bemolli tonalliklar, kalit yonida yoziladigan belgilar, engarmonik teng tonalliklar, kvinta davrasi.

{ XE "квинта давраси" \b }

{ XE "энгармоник тенг тоналликлар" \b } *Mavzuni mustahkamlash uchun savollar*

1. Tonallik deb qanday tovushqatorga aytiladi?
2. Diezli major tonalligi qanday tuziladi?
3. Bemolli major tonalligi qanday tuziladi?
4. Major tonalliklarining kvinta davrasini tuzing.
5. Diezli major tonalligi tuzishda har bir yangi gamma o'zidan oldingi tonallikning nechanchi pog'onasidan tuziladi?

## 9-BOB: MAJOR VA MINOR LADLARINING GARMONIK HAMDA MELODIK KO'RINISHLARI.

### 1-§. GARMONIK VA MELODIK MAJOR LADI.

Turg'un tovushlari birin-ketin yoki bir vaqtda eshitilgan hamda katta yoki major uchtovushligidan hosil bo'lgan ladga *major ladi* { XE "*минор лади*" \b } deb aytiladi. Major uchtovushligining turg'un tovushlari tertsiya bo'yicha joylashgandir.

Major ladi harfiy tuzilma bo'yicha *dur* so'zi bilan yoziladi. Masalan: do major yoki *C-dur*, la major yoki *A-dur*.

Birinchi va uchinchi pog'onalar orasida *katta tertsiya*, uchinchi va beshinchi pog'onalar orasida esa *kichik tertsiya* mavjuddir. Minor uchtovushligining ikki chetidagi tovushlar *sof kvinta* intervalini hosil qiladi:

Ayrim musiqa asarlarida VI pog'onasi pasaytirilgan major ladi qo'llanilganligini uchratish mumkin. VI pog'onani pasaytirish lozim bo'lganda, pasaytirish belgisi matnda nota oldidan qo'yiladi va tasodifiy belgi deb ataladi. Bu hol *garmonik major* ladi deyiladi. Masalan:




Garmonik major gammasida bosqichlar intervali quyidagi tartibda joylashadi: kat.2, kat. 2, kich.2, kat.2, kich.2, *ort.2*, kich. 2.

Garmonik major gammasining xarakterli xususiyatlaridan biri oltinchi va yettinchi pog'onalar orasida *orttirilgan sekundaning* hosil bo'lishidir. Ushbu orttirilgan sekundaning ifodalanishi musiqa mazmunida o'ziga xoslikni hosil qiladi va musiqaning jozibadorligini oshiradi.

Гармоник мажор тоналликлари





Musiqa amaliyotida melodik major garmonik majorga nisbatan kam uchraydi. Melodik majorda VI va VII pog'onalar pasaytiriladi, xarakteri bo'yicha melodik major tabiiy minorga o'xshash bo'lib eshitiladi hamda kuyning pastga tomon harakatida qo'llaniladi. Masalan:




## 2-§. GARMONIK VA MELODIK MINOR.

Garmonik minor tabiiy minordan VII pog'onaning ko'tarilishi bilan farq qiladi. VII pog'onaning ko'tarilishi yuqoriga boshlovchi tovush tortilishini yanada kuchaytiradi.

Garmonik minor gammasi sekundalarining birin-ketin joylashuv tartibi quyidagicha bo'ladi:

**kat.2, kich.2, kat.2, kat.2, kich.2, ort.2, kich.2.**



Garmonik minor gammasining xarakterli xususiyatlaridan biri oltinchi pog'ona bilan yettinchi pog'ona o'rtasida orttirilgan sekundaning hosil bo'lishidir.

Melodik minor tabiiy minordan oltinchi va yettinchi pog'onalarining yarim tonga ko'tarilishi bilan farq qiladi. Oltinchi pog'onaning yarim tonga ko'tarilishi gammaning yuqori qismidagi tovushlarning teng joylashuviga yordam qiladi. Bunda birinchi pog'onaga qarab yarim ton tortilgan yuqoriga boshlovchi tovush saqlanishi lozim.


Melodik minor gammasi pastga tomon harakat qilganda undagi ko'tarilgan pog'onalar saqlanmaydi. Gamma pastga tomon tabiiy minor pog'onalari bo'yicha harakat qiladi. Bu tabiiy minorning pastga tomon harakati vaqtida oltinchi pog'onaning xususiyatini, ya'ni beshinchi pog'onaga intilishini tiklash bilan bog'liqdir.

Melodik minor gammasi sekundalarining birin-ketin yuqoriga tomon harakat qilishi quyidagi tartibda bo'ladi: **kat.2, kich.2, kat.2, kat.2, kat.2, kat.2, kich.2.**






**Melodik minor:** - bu 6- va 7- pog‘nalari ko‘tarilgan yuqoriga yo‘nalgan tabiiy minordir, lekin u pastga yo‘nalganligida tabiiy minorning o‘zi bo‘lib qaytadi. E minor tonalligida fa diyezga e’tibor bering.



<sup>48</sup> Mishael Pilhofer and Holly Day “Music Theory for dummies” Indiana USA 2007. Wiley Publishing Inc-2007-153-page.  
Mark Feezell. “Music Theory Fundamentals” Copyright. 2011 All Rights Reserved. LearnMusic Theory. Net-2011-39-page



**Garmonik minor: Garmonik minor - bu 7 - pog'onasi ko'tarilgan ham yuqoriga, ham pastga yo'nalgan tabiiy minordir. Yana bir bor, tabiiy E minorda fa diyez kalit belgisi deb hisoblanadi.**<sup>49</sup>



### *Tayanch tushunchalar*

Garmonik major, melodik major, VI pog'onasi pasaytirilgan major ladi, orttirilgan sekundaning hosil bo'lishi. Minor ladi, tabiiy minor gammasi, *moll*, kichik tertsiya, katta tertsiya, sof kvinta intervali. Garmonik minor, melodik minor,

### *Mavzuni mustahkamlash uchun savollar*

1. Garmonik major qanday intervallardan hosil bo'ladi?
2. Melodik major tonalligini re tovushidan tuzing.
3. Garmonik major intervallarni sanab bering.
4. Garmonik majorning nechanchi pog'onalari orasida orttirilgan sekunda hosil bo'ladi?
5. Melodik major tovushlarining pastga tomon harakatida qaysi pog'onalar tovushlari pasaytiriladi?
6. Melodik major intervallarini sanab bering.
7. Mi tovushidan melodik major tuzing.
8. Garmonik minor pog'onalarini berilgan tovushdan tuzing.
9. Melodik minor pog'onalari intervallarini ayting.

## **10 -BOB: ENGARMONIK, NOMDOSH VA PARALLEL TONALLIKLAR**

### **1-§. ENGARMONIK TENG TONALLIKLAR**

Balandligi bir xil, lekin yozilishi va nomi turlicha bo'lgan tonalliklarga **engarmonik teng tonalliklar**{ XE "энгармоник тенг тоналликлар" \b } deb ataladi.

Barcha diyezli tonalliklarning yondosh tartibda joylashuvi quyidagi diyezli major tonalliklarini hosil qiladi:

---

<sup>49</sup> Mark Feezell. Music theory fundamentals. High-yield music theory, vol.1. 2011

Sol major

Re major

Lya major

Mi major

Si major

Fa direz major

Do direz major

Barcha bemolli tonalliklarning yondosh joylashuvi quyidagi bemolli tonalliklarni hosil qiladi:

Fa major

Si bemol major

Mi bemol major

Lya bemol major



Musiqada qo‘llaniladigan major tonalliklarining uchta jufti engarmonik jihatdan teng bo‘ladi:



Engarmonik teng tonalliklarning kalit yonida yoziladigan belgilari umumiy yig‘indisi 12 tadan iboratdir.<sup>50</sup>

**Engarmonik tonalliklar:** - deb yozilishi har xil, ammo fortepiano klaviaturasida bir xil chalinadigan, xuddi Si (B) bilan Do (C) bemol bitta klavisha bo‘lganidek,

---

<sup>50</sup> Mark Feezell. “Music Theory Fundamentals” Copyright. 2011 All Rights Reserved. LearnMusic Theory. Net-2011-10-page

tonalliklarga aytiladi. Kvinta davri chizmasida engarmonik tonalliklar фокфешдиши ko‘rsatilgan.

## 2-§. NOMDOSH TONALLIKLAR

Bir xil tonikadan tuzilgan, ya'ni boshlanishi bir notada amalga oshirilgan major va minor tonalliklari **nomdosh tonalliklar**{ XE "номдoш тоналликлар" \b } deyiladi. Nomdosh major va minorning tabiiy gammalari bir-biridan uchta pog‘ona bilan farq qiladi, bular 3, 6 va 7 – pog‘onalardir.

Do major nomdosh do minorga      Sol major nomdosh sol minorga

Re major nomdosh re minorga      Lya major nomdosh

lya minorga      Mi major nomdosh mi minorga      Si major

nomdosh si minorga      Fa diyez major nomdosh fa diyez minorga

Do diyez major nomdosh do diyez minorga

Nomdosh major va minorning garmonik ko‘rinishlari bir-biridan 3 – pog‘onaning turlicha eshitilishi bilan farq qiladi. Bularning o‘xshash tomoni, har ikkalasida ham 6 va 7- pog‘onalar orasida orttirilgan sekundaning mavjud bo‘lishidir.

Lya major **A – dur**

lya minor **a – moll**

Melodik minor yuqoriga tomon harakatda tabiiy nomdosh majordan 3-pogʻonaning boshqacha eshinishi bilan farq qiladi.

The most common minor scale, the **natural minor scale**, follows the pattern of half steps and whole steps formed by the white piano keys from A up to the next A: whole, half, whole; then whole; then half, whole, whole.

### 3-§. PARALLEL TONALLIKLAR

Tabiiy koʻrinishdagi major va minorda bir xil nomdagi tovushlar boʻladi. Kalit belgisi bir xil boʻlgan major va minor tonalliklari **parallel tonalliklar** { XE "параллел тоналликлар" \b } deyiladi. Masalan:



Fa major parallel - re minorga      Si bemol major parallel - sol  
 minorga      Mi bemol major parallel - do minorga      Lya bemol major parallel -  
 fa minorga      Re bemol major parallel - si bemol minorga      Sol ♭ major  
 parallel - mi bemol minorga      Do bemol major parallel - lya bemol minorga

Minor gammalarida birin-ketin hosil bo‘ladigan diyezlar har bir gammaning *ikkinchi pog‘onasiga* to‘g‘ri keladi. Bemollar esa *oltinchi pog‘onaga* to‘g‘ri keladi.

Minor tonalliklarining soni ham major tonalliklari soniga tengdir, ya’ni **15 ta** bo‘ladi. Bu tonalliklar nomlarining hosil bo‘lishi major tonalliklari singaridir.

Minor tonalliklarining umumiy miqdori olti tonallikka ega. Bulardan uchta diyezli tonallik va qolgan uchta bemolli tonallikka engarmonik jihatdan teng bo‘ladi:

Sol diyez minor – lya bemol minorga teng;

Re diyez minor – mi bemol minorga teng;

Lya diyez minor – si bemol minorga teng.

Barcha minor tonalliklari bir-biriga yondosh bo‘lib, quyidagi tonalliklardan tarkib topadi:

**E – moll**      tabiiy  
 garmonik


**h – moll**      tabiiy  
 garmonik

**fis – moll**      tabiiy  
 garmonik

va hokazo.

**Parallel tonalliklar:** Parallel tonalliklar – bu bir xil kalit belgilariga ega bo‘lgan biror major va tabiiy minor gammalardir. Minor gammaning **uchinchi notasi** xuddi shunday kalit belgilari bor parallel majorning birinchi notasi bo‘lib hisoblanadi.

Masalan, C (do) tovush A minorning uchinchi pogʻonasidir. C major va A minor bir xila kalit belgilarga ega, yaʼni ikkalasida na bemol, na diyez bor parallel tonalliklardir. Eslab qoling: **oiladagi qarindoshlar bir biriga oʻxshaydi, parallel tonalliklar kalit belgilarining koʻrinishi ham “bir xil”.**




**Birinchi usul: parallel minor:** Minor gammaning kalit belgilarini aniqlash uchun ikkita usul mavjuddir: parallel va nomdosh. Quyidagi misol **parallel minor metodi** yordamida E minorning toʻgʻri yozilishini koʻrsatadi.


**Qadam 1:** yuqoriga uchta harfiy nom sanab parallel majorning birinchi tonini toping.

**Qadam 2:** parallel major kalit belgilarini aytib yozing.

**Qadam 3:** zarur boʻlsa istalgan minor gammani aniqliklar orqali meʼyorga keltiring.



**Parallel minor aniqlik bilan:** Ayrim hollarda yuqoriga uchta harf sanash natijasida bizga majorning shunday birinchi tonini beradiki, u istalgan minor gammasiga yaroqsiz boʻlib chiqadi. Bunga yaxshi misol sifatida C minor boʻla oladi. **Do** dan yuqoriga uch harf sanalganda Mi kelib chiqadi: C, D, E. E major esa toʻrtta diyezga ega, jumladan **do diyez**. Bizga do diyez emas, tabiiy **do** kerakligi uchun, E majorni oʻrniga E bemol major kalit belgilarini ishlatishimizga toʻgʻri keladi.



## 4-§. AL'TERATSIYA BELGILARI ORQALI TONALLIKLARNI ANIALASH MEXANIZMI.

**Kalit bemollari sirasi:** Kalit yonida yoziladigan bemollar quyidagi tartibda joylashadi: B, E, A, D, G, C, F. Ular nota yo‘li chizig‘ida yoki chiziqlar orasida muayyan ketma-ketlik bo‘yicha, ya‘ni to‘rtta yuqoriga va beshta pastga sanab yoziladi, va sanashda har gal asos qilib olingan belgi bir deb sanaladi.

**Kalit diyezleri sirasi:** Kalit yonida yoziladigan diyezlar quyidagi tartibda joylashadi: F, C, G, D, A, E, B. Ular nota yo‘li chizig‘ida yoki chiziqlar orasida muayyan ketma-ketlik bo‘yicha, ya‘ni **to‘rtta pastga va beshta yuqoriga** sanab yoziladi (lya diyezdand tashqari).

**Kalit belgilari orqali tonallikni aniqlash:** Bemolli tonalliklar uchun, kalit bemollari sirasining oxiridan ikkinchisi tonallikning asosiy toni hisoblanadi (bundan F major mustasnodir). Diyezli tonalliklar uchun, tonallikning asosiy toni kalit diyezleri sirasining oxirigisiga nisbatan hamisha yarim ton pastroqda joylashadi.

**Frank va Metz taklif qilgan kalit belgilarini aniqlash mexanizmi:** Ken Metz va Robert Frank “G‘ayratli musiqachi uchun asoslar” nomli juda yaxshi kitobida (Routledge tomonidan nashr etilgan) major tonalliklarni aniqlash mexanizmi keltirilgan:

**Qadam 1:** diyezlar sirasini yozib oling: F, C, G, D, A, E, B.

















**Qadam 2:** C (do) notani 0 raqam bilan belgilang, va **chapdan o‘nga** qarab har bir notani ustiga **diyezlar** sonini ko‘rsatadigan raqamni yozib chiqing. G-major bitta diyezga ega, D-major ikkita diyez, A-major 3ta, E-major 4ta, B-major 5taga ega. 6ga yetgach, orqaga F ga qaytib, va 6 raqamni F-diyez majorga, 7ni C-diyez majorga yozing.

**Qadam 3:** C (do) notani 0 raqam bilan belgilab, endi **o‘ndan chapga** qarab har bir notani ostiga **bemollar** sonini ko‘rsatadigan raqamni yozib chiqing. Shunday qilib, F-major 1ta bemolga ega, B-bemol-major 2ta, E-bemol-major 3ta va x.k. har bir ustundagi raqamlar yig‘indisi 7ga teng bo‘ladi; qarang **2.3. Major kalit blgilarini o‘rganish.**



(F#)	(C#)					
6	7	1	2	3	4	5
F	C (0)	G	D	A	E	B
1	7	6	5	4	3	2
	(C)	(G)	(D)	(A)	(E)	(B)

**Oxirgi uslub:** asosiy maqsad va vazifa, **barcha tonalliklarni eslab qolishdir.** Quyida keltirilgan javoblar ustini yopib, o'zingizni tekshiring. Bir vaqtning o'zida kichik guruhlarda ishlanglar, alohida major va alohida minor tonalliklarni yodlang, so'ng ikkalasini birgalikda (berilgan diyez yoki bemollar soniga tonallik topib ayting va berilgan tonallikkadiyez yoki bemollar sonini topib ayting).<sup>51</sup>

Flat Keys		Sharp Keys	
	<b>C/a</b>		<b>C#/a#</b>
	<b>F/d</b>		<b>F#/d#</b>
	<b>Bb/g</b>		<b>B/g#</b>
	<b>Eb/c</b>		<b>E/c#</b>
	<b>Ab/f</b>		<b>A/f#</b>
	<b>Db/bb</b>		<b>D/b</b>
	<b>Gb/eb</b>		<b>G/e</b>
	<b>Cb/ab</b>		<b>C/a</b>

**Ikkinchi usul: nomdosh minor** Nomdosh tonaliklar bir xil birinchi nota, (tonika deb ataladigan)ga ega tonalliklardir. Tabiiyminor notalarini topish uchun nomdosh tonallikni qollash mumkin: muayyan notadan major gammani yozib chiqing, songra 3, 6 va 7 notalarni alteratsiya belgilari yordamida pasaytiring.

<sup>51</sup> Mark Feezell. Music theory fundamentals. High-yield music theory, vol.1. 2011

Nomdosh va parallel minor metodlari ishlashiga qaramay, minor tonalliklarini yodga olinish zarurdir.

**E major = 4 #**                      **E minor = 1 #**  
 E F# G# A B C# D# E                      E F# G $\flat$  A B C $\flat$  D $\flat$  E  
 1 2 3 4 5 6 7 8                      1 2 3 4 5 6 7 8  
*Lower steps 3, 6, and 7 with accidentals.*

### *Tayanch tushunchalar*

Garmonik minor, melodik minor, parallel tonalliklar, minor tonalliklarining kvinta davrasi, orttirilgan sekunda, yuqoriga boshlovchi tovush, parallel tonalliklar, ikkinchi pogʻona, oltinchi pogʻona, 15 ta minor tonalligi, kvinta davrasi. Nomdosh tonalliklar, 3, 6 va 7 – pogʻonalar, orttirilgan sekunda.

### *Mavzuni mustahkamlash uchun savollar*

1. Engarmonik teng tonalliklar deb qanday tonalliklarga aytiladi?
2. Necha juft engarmonik teng major tonalligi bor?
3. Engarmonik teng tonalliklarning kalit yonida yoziladigan belgilari umumiy yigʻindisi nechani tashkil etadi?
4. Engarmonik teng tonalliklarni sanab bering.
5. Garmonik minor pogʻonalarini berilgan tovushdan tuzing.
6. Melodik minor pogʻonalari intervallarini ayting.
7. Qanday tonalliklarga parallel tonalliklar deyiladi?
8. Majordan parallel minor tonalligini tuzish uchun nima qilish lozim?
9. Garmonik minordagi orttirilgan sekunda nechanchi pogʻonalar orasida joylashtiriladi?
10. Barcha major tonalliklarining soni nechta?
11. Engarmonik teng tonallik deganda nimani tushunasiz?
12. *f-moll* nimani bildiradi?
13. Qanday tonalliklar nomdosh deyiladi?
14. Nomdosh major va minor bir-biridan nechta belgi bilan farq qiladi?
15. Sol majorga nomdosh boʻlgan tonallikni toping.
16. Si bemol minorga nomdosh boʻlgan tonallikni toping.

## 11-BOB: ODDIY, DIATONIK VA XROMATIK INTERVALLAR. INTERVALLARNING ENGARMONIK TENGLIGI.

### 1-§. ODDIY INTERVALLAR VA DIATONIK INTERVALLAR.

Musiqa ijrosi jarayonida bir vaqtda yoki birin-ketin eshitilgan ikki tovush qo'shilmasi **interval**<sup>52</sup> deyiladi.

Birin-ketin eshitilgan tovushlar intervali **melodik interval**{ XE "мелодик интервал" \b }ni hosil qiladi. Baravariga (bir vaqtda) eshitilgan tovushlar **garmonik interval**{ XE "гармоник интервал" \b }ni hosil qiladi. Intervalning pastki tovushi **interval asosi**, yuqori tovushi esa **interval cho'qqisi** deyiladi. Masalan:



Intervallarning melodik harakatlari vaqtida ko'tariluvchi va pastlashuvchi intervallar hosil bo'ladi. Barcha garmonik intervallar va ko'tariluvchi melodik intervallar asosi (eng pastki tovush) dan yuqoriga qarab o'qiladi. Har bir interval ikki miqdor – son va sifat miqdori bilan aniqlanadi. Intervallarning **son miqdori** deganda tovushlar orasidagi pog'onalar soni tushuniladi.

Intervallarning **sifat miqdori** deganda tovushlar orasidagi masofa tushuniladi. Bir oktava oralig'ida hosil bo'lgan interval **oddiy interval**{ XE "оддий интервал" \b } deyiladi. Hammasi bo'lib 8 ta oddiy interval bor. Intervallar lotin tilida tartibli sonlar bilan nomlanadi. Tartibli sonlar interval yuqori tovushining pastki tovushga nisbatan nechanchi pog'onada turganligini bildiradi. Barcha oddiy intervallar quyidagicha nomlangan:

Prima – 1, birinchi (bir xildagi ikki tovushning unison{ XE "унисон" \b } bo'lib eshitilishi)<sup>53</sup>.

Sekunda – 2, ikkinchi; Tertsiya – 3, uchinchi; Kvarta – 4, to'rtinchi; Kvinta – 5, beshinchi; Seksta – 6, oltinchi; Septima – 7, yettinchi; Oktava – 8, sakkizinchi.

<sup>52</sup> Interval – lotincha *intervallum* so'zidan olingan bo'lib, oraliq, masofa degan ma'noni anglatadi. Ents. muz. slovar'. – M.: BSE. 1959, 89 – b.

<sup>53</sup> *Unison* so'zma - so'z tovushlar birlashuvi demakdir. Unison faqat garmonik interval holatdagi primaga o'xshashdir.




Masalan, mi - fa tovushlaridan iborat sekunda intervali yarim tonga teng bo‘ladi. Fa - sol tovushlaridan iborat sekunda intervali butun tonga teng bo‘ladi va h.k.

Yuqorida keltirilgan misollardan intervallarning sifat miqdori bir turdagi intervallarning xilma-xil bo‘lib eshutilishini belgilaydi, degan xulosaga kelish mumkin.


Intervalning sifat miqdorini belgilash uchun: kichik, katta, sof, orttirilgan, kamaytirilgan degan so‘zlar ishlatiladi.

Tovushqatorning asosiy pog‘onalari orasida, bir oktava oralig‘ida quyidagi intervallar hosil bo‘ladi:

- 1) sof primalar – 0 tonga;
- 2) kichik sekundalar – 0,5 tonga;
- 3) katta sekundalar – 1 tonga;
- 4) kichik tertsiyalar – 1,5 tonga;
- 5) katta tertsiyalar – 2 tonga;
- 6) sof kvartalar – 2,5 tonga;
- 7) orttirilgan kvarta – 3 tonga;
- 8) kamaytirilgan kvinta – 3 tonga;
- 9) sof kvintalar – 3,5 tonga;
- 10) orttirilgan kvinta – 4 tonga;
- 11) kichik sekstalar – 4 tonga;
- 12) katta sekstalar – 4,5 tonga;
- 13) kichik septimalar – 5 tonga;
- 14) katta septimalar – 5,5 tonga;
- 15) sof oktavalalar – 6 tonga teng bo‘ladi. Masalan:



Yuqorida ko'rsatib o'tilgan intervallar **asosiy** intervallar deb aytiladi. Bu intervallar tabiiy major va tabiiy minorning pog'onalari orasida hosil bo'lganligi uchun *diatonik intervallar ham* deyiladi. Barcha diatonik intervallarni istalgan asosiy pog'ona yoki hosila pog'onadan pastga hamda yuqoriga tomon tuzish mumkin:



**“Intervallar”ga Kirish:** intervalning ta’rifi, majorli va sof intervallar, minorli intervallar, kamaytirilgan va orttirilgan intervallar, konsonans intervallar, mukammal va nomukammal konsonanslar, dissonans intervallar, sofkvarta, oddiy va murakkab intervallar

**Intervallarni tuzish – 1:** majorli va minorli sekundalar, sekundalar tuzilmasi, tersiyalar tuzilmasi, kvartalar tuzilmasi, kvintalar tuzilmasi, sekstalar tuzilmasi, septimalar tuzilmasi, intervallar mohiyatidan qisqa xulosa

**Intervallarni tuzish – 2:** garmonik va melodik intervallar, pastga yo‘llangan interval tuzish, interval aylanishi, seksta va septima tuzishda aylanishdan foydalanish, intervalarni aniqlash, interval turlaridan qisqa xulosa

**Interval ta’rifi:** Interval – bu ikki nota o‘rtasidagi balandliklari masofadir. Intervallarning nomlanishi ularning ikki xususiyatidan kelib chiqadi:

1. Intervalning **son miqdori (umumiykategoriyasi)** harfiy nomlar soniga asoslanadi, boshlang‘ich harfni bir deb hisoblaganda; va

2. Intervalning **sifati** ikkita nota orasida nechta yarim tonlik mavjudligiga

bog‘liq.

**Majorli va sof intervallar:** Sifati **major** (katta) va **sof** intervallar major gammaning birinchi notasi va shu gammaning har bir notasi bilan birgalikda bir juftlik bo‘lishidan hosil bo‘ladi. **Sekunda, tersiya, seksta** va **septima** intervallari sifati bilan major bo‘ladi, va hech qachon sof sifatiga ega bo‘lmaydi. **Unison, kvarta, kvinta** va **oktava** intervallari sof bo‘lib, hech qachon majorli ohangda bo‘lmaydi.

C major scale with scale steps numbered:

1 2 3 4 5 6 7 8

1 - 1 1 - 2 1 - 3 1 - 4 1 - 5 1 - 6 1 - 7 1 - 8

Half steps: (0) (2) (4) (5) (7) (9) (11) (12)

Perfect Unison (PU) Major 2nd Major 3rd Perfect 4th Perfect 5th Major 6th Major 7th Perfect Octave (8ve)

**Oddiy va murakkab intervallar:** Oddiy intervallar deb, oktava va undan zichroq intervallarga aytiladi. Murakkab (tarkibli) intervallar oktavadan keng bo‘lgan intervallardir. Murakkab intervallar ham ularga muvofiq oddiy intervallardek xuddi o‘sha sifat bildiruvchi so‘zlardan foydalanadi (majorli, sof va x.k.). Oddiy intervalni murakkabiga aylantirish uchun unga 7ni qo‘shish lozim. Masalan: 2da +8va=9, chunki 2+7=9.

Perfect 8ve Major 9th Major 10th Perfect 11th Perfect 12th Major 13th Major 14th Perfect 15th

8ve 8ve+2nd 8ve+3rd 8ve+4th 8ve+5th 8ve+6th 8ve+7th 8ve+8ve

**Majorli va minorli sekundalar:** Minorli sekunda (m2) bitta yarim ton va ikkita harfiy nom o‘z ichiga oladi. Majorli sekunda (M2) ikkita yarim ton (=bitta butun ton) va ikkita harfiy nom o‘z ichiga oladi.




minor 2nd: F to G $\flat$  spans two letter names and 1 half step.

major 2nd: F to G spans two letter names and 2 half steps.




**Sekunda tuzilmasi:** Sekunda tuzilmasi: chiziq-chiziq oraliq‘i yoki chiziq oraliq‘i-chiziq (bitta nota chiziqda, boshqasi uni yonidagi chiziq oraliq‘ida joylashadi). Ikkala notaga bir xil alteratsiya belgisi qo‘yilgan bo‘lsa, sekunda hamisha majorly bo‘lib qolaveradi, bundan mustasno – minorli sekundalar E-F va B-C (diatonik yarim tonlar). Qaysiki sekunda E-F yoki B-C harfiy nomlarni o‘z ichiga olgan bo‘lsa, ularga nisbatan e‘tiborliroq bo‘lish lozim.

major 2nd (same accidental) major 2nd (same accidental) E-F is a natural half step, so must lower E $\sharp$  to E $\flat$  for 1




**Tersiya tuzilmasi:** Tersiya tuzilmasi: qo‘shni chiziqlar yoki qo‘shni chiziqlar oralig‘i. Ikkala notaga bir xil alteratsiya belgisi qo‘yilgan bo‘lsa, tersiya hamisha majorly bo‘lib qolaveradi, bundan mustasno – B, E, A, D dan yuqoriga tuzilgan tersiya cho‘qqisi alteratsiya belgisi bilan yoziladi (**B, E, A, D dan yuqoriga tersiyalar** quyidagicha tuziladi: **B** dan D#, **E** dan G#, **A** dan C#, **D** dan F#). Qo‘shimcha ma’lumot, majorli tersiya major uchtovushlikning prima va tersiya notalaridir; minorli tersiya major uchtovushlikning prima va tersiya notalaridir (qarang **4.1. Uchtovushliklarga Kirish**).

major 3rd (same accidental)	major 3rd (same accidental)	BEAD raise third, so major 3rd is E $\flat$ -G $\sharp$ , not E $\flat$
		



**Kvarta tuzilmasi:** Kvarta tuzilmasi: tersiyadan ko‘ra bitta chiziq yoki chiziqlar oralig‘iga kattaroq. Ikkala notaga bir xil alteratsiya belgisi qo‘yilgan bo‘lsa, kvarta hamisha sof bo‘lib qolaveradi, bundan mustasno – F-B = orttirilgan kvarta (F-B yoki F#-B# yoki F bemol-B bemol).

perfect 4ths (same accidental)	perfect 4ths (same accidental)	F $\sharp$ -B $\flat$ is augmented, so F $\sharp$ -B $\flat$ is a perfect 4th
		

**Kvinta tuzilmasi:** Kvinta tuzilmasi: ikkita chiziq yoki chiziqlar oralig‘idan keyin. Ikkala notaga bir xil alteratsiya belgisi qo‘yilgan bo‘lsa, kvarta hamisha sof bo‘lib qolaveradi, bundan mustasno – B-F = orttirilgan kvinta (B-F yoki B#-F# yoki B bemol-F bemol).



perfect 5th (same accidental)	perfect 5th (same accidental)	B $\flat$ -F $\sharp$ is dim., so B $\flat$ -F $\sharp$ is perfect:
		

**Seksta tuzilmasi:** Seksta tuzilmasi: kvintadan ko‘ra bitta chiziq yoki chiziqlar oralig‘iga kattaroq. Intervallarni bir ko‘rishdayoq aniqlash uchun ko‘proq mashq qiling. M6=S5+M2 (majorli seksta = sof kvinta + majorli sekunda).

	
P5 + M2 = M6	P5 + M2 = M6
	(remember B $\flat$ -F $\sharp$ is dim., B $\flat$ -F# is perfect)



**Septima tuzilmasi: Septima tuzilmasi:** oktavadan ko‘ra bitta chiziq yoki chiziqlar oralig‘iga kichikroq. M7=S8 minus m2 (majorli septima = sof oktava – minorli sekunda).



**Intervallar mohiyatidan qisqa xulosa: 2/3/4/5:** agar ikkala nota bir xil alteratsiya belgiga ega bo‘lsa, interval majorli (2/3) yoki sof (4/5) bo‘ladi, bundan mustasno –B, E, A, D dan yuqoriga tuzilgan tersiyalar, F-B va B-F. **Majorli seksta** = sof kvinta plus majorli sekunda, **majorli septima** = sof oktava minus minorli sekunda.<sup>54</sup>

## 2-§. ORTTIRILGAN VA KAMAYTIRILGAN (XROMATIK) INTERVALLAR.


Har bir diatonik interval orttirilishi yoki kamaytirilishi mumkin. Bunga diatonik intervalga kiradigan pog‘onalardan birini xromatik yarim tonga pasaytirish yoki ko‘tarish yordami bilan erishiladi. Orttirilgan intervallar sof va katta intervallardan, kamaytirilgan intervallar esa sof va kichik intervallardan tuziladi. Faqat sof prima kamaytirilmaydi.

Barcha orttirilgan va kamaytirilgan intervallar **xromatik intervallar** { XE "хроматик интерваллар" \b } deyiladi. Uch tondan iborat bo‘lgan orttirilgan kvarta va kamaytirilgan kvinta intervallarini, bular diatonik intervallar bo‘lganligi uchun xromatik intervallar qatoriga qo‘shish mumkin emas. Masalan: orttirilgan intervallar:

a) eng yuqori pog‘ona (cho‘qqisi) ning ko‘tarilishi natijasida hosil bo‘lgan intervallar;



b) pastki pog‘ona (asosi) ning pasaytirilishi natijasida hosil bo‘lgan intervallar;



<sup>54</sup> Mark Feezell. Music theory fundamentals. High-yield music theory, vol.1. 2011




Kamaytirilgan intervallar: a) yuqori pogʻona (choʻqqisi) ning koʻtarilishi natijasida hosil boʻlgan intervallar:




B) pastki pogʻona (asosi) ning pasaytirilishi natijasida hosil boʻlgan intervallar:



**Minorli intervallar: Minorli (kichik) intervallar** majorli intervallardan koʻra yarim tonga kichikroqdir, harfiy nomlari esa oʻsha-oʻsha boʻlib saqlanib qoladi. Faqat majorli intervallar, yaʼni **sekunda, tersiya, seksta** va **septima** minorli hangda ham boʻlishi mumkin.




**Kamaytirilgan va Orttirilgan intervallar: Kamaytirilgan** intervallar, harfiy nomlari saqlab qolinganda, minorli yoki sof intervallardan koʻra yarim tonga kichikroq boʻladi. **Orttirilgan intervallar** esa, harfiy nomlari saqlab qolinganda, majorli yoki sof intervallardan koʻra yarim tonga kattaroqdir.



**Konsonans intervallari:** Konsonans intervallari yoqimli, turg'un eshitalishga ega intervallardir. Ularning ohangdoshligi ikkala tovushining fizik tebranish tuzilmalari uyg'unroq o'zaro munosabatga kirishganligidan kelib chiqadi. Tovushlarning juda uyg'un o'zaro munosabati (va shuning uchun ohangi bilan eng turg'un bo'ladigan intervallar) mukammal konsonanslarga: sof unison, sof kvinta, sof oktavaga xosdir. Nomukammal konsonanslar deb, majorli va minorli tersiya bilan sekstalarga aytiladi. Ular mukammal konsonanslarga qaraganda unchalik turg'un emas, lekin dissonanlardan ko'ra turg'unroqdir.

**Dissonans intervallari, Sof kvarta:** Dissonans intervallari – sekunda va septimalar, hamda barcha kamaytirilgan va o'ttirilgan intervallardir. Dissonans intervallar tovushlarining fizik tebranish tuzilmalari deyarli qovushmaydi va shuning uchun ular yoqimsiz, noturg'un bo'lib eshitaladi. Sof kvarta uslub yoki musiqiy kontekstga qarab, ayrim hollarda konsonans boshqa paytlarda dissonans bo'lib hisoblanadi.

**Garmonik/ melodik intervallar:** **Garmonik** intervalda ikkila notasi bir vaqtda jaranglaydi. **Melodik** intervalda esa birin-ketin. Melodik interval yuqoriga yoki pastga yo'nalgan bo'lishi mumkin.




**Pastga yo'nalgan intervalni tuzish:** Pastga yo'nalgan intervalni tuzish jarayoni quyidagicha amalga oshiriladi:

Qadam 1: Muayyan notadan kerakli pastki notagacha sanang.





Qadam2: Pastki notadan izlangan intervalni yuqoriga tuzing.

Qadam 3: alteratsiya belgilari yordamida






**Intervalning aylanishi:** **Intervalning aylanishi** bu intervalning pastki notasini bir oktava yuqoriga yoki yuqori notasini bir oktava pastga ko'chirish jarayondir. Yangi intervalni ko'rsatuvchi raqam to'qqizdan birinchi interval raqamini ayirish

natijasiga barobar bo‘ladi. Sof intervallar soflarga, majorli minorlilarga (va teskari), kamaytirilgan orttirilganlarga (va teskari) aylanadi.<sup>55</sup>

			
perfect unison	perfect octave	major 2nd	minor 7th
		major 3rd	minor 6th
			dim. 4th
			aug. 5th

**Seksta va septima uchun aylanishdan foydalanish: Intervallarni tuzish – 1** paragrafda **seksta va septima** tuzishning bitta uslubi ko‘rsatilgan. Bundan tashqari yana ikkita yo‘l bor: harfiy nomlar va yarimtonliklarni sanab chiqish **yoki** aylanishdan foydalanish. Aylanishni qo‘llashda, **minorli seksta** tuzish uchun avvalo **qarama-qarshi tomonga majorli tersiyani** tuzish lozim, va x.k.





		
minor 6th above C =	major 3rd below C =	minor 7th below C =
below C	above C	above C

**Intervallarni aniqlash:** Berilgan intervalni **aniqlash:**

**Qadam 1:** interval raqamini aniqlash uchun harflarini sanab chiqing (2ta, 3ta, 4ta va x.k.).

**Qadam 2:** interval sifatini (major, sof va x.k.) aniqlang

**Qadam 3:** berilgan interval notalari bilan solishtirib, uning sifatini aniqlang. Quyidagi misolda berilgan interval majorli sekstadan ko‘ra bitta yarim tonga kattaroq ekan, demak u orttirilgan sekstadir.

Interval=?? 	1. Count letters (F, G, A, B, C, D = 6) 	2. Spell M6 	3. Compare. 
	1 2 3 4 5 6		

**Interval turlaridan qisqa xulosa:** Har bir interval turi va sifatiga xos yarim tonlarning umumiy jadvali

<sup>55</sup> Mark Feezell. Music theory fundamentals. High-yield music theory, vol.1. 2011

	diminished	minor	major	augmented
2nds				
3rds				
6ths				
7ths				
	9	10	11	12
	diminished	perfect	augmented	
Unis.				
4ths				
5ths				
8ves				
	11	12	13	

### 3-§. INTERVALLARNING ENGARMONIK TENGLIGI.

Son miqdori turlicha va eshitalishi bir xilda bo'lgan intervallar **engarmonik teng** intervallar { XE "энгармоник тенг интерваллар" \b } deyiladi.

Engarmonik teng intervallar orasida son miqdori bir xil bo'lgan intervallar ham uchraydi, bunday hollarda taqqoslangan intervallardan birortasining ikkala tovushi engarmonik tovushlar bilan almashtiriladi:

kat. 2   kat. 2   sof 4   sof 4

Yuqoridagi intervallardan tashqari, biror intervalni ikkita xromatik yarim tonga orttirish natijasida ikki marta orttirish va pasaytirish natijasida ikki marta kamaytirilgan intervallar hosil bo'lishi mumkin.

#### *Tayanch tushunchalar*

Oddiy intervallar, diatonik intervallar, melodik interval, garmonik interval, interval asosi, interval cho'qqisi, intervallarning son miqdori, intervallarning sifat miqdori, prima, { XE "унисон" \b } sekunda, tertsiya, kvarta, kvinta, seksta, septima, oktava, kichik, katta, sof, orttirilgan, kamaytirilgan intervallar, asosiy yoki diatonik intervallar. Orttirilgan va kamaytirilgan, xromatik intervallar, intervallarning engarmonik tengligi, diatonik interval, intervalning yuqori pog'ona (cho'qqisi), pastki

pogʻona (asosi), engarmonik teng intervallar, ikki marta orttirilgan va pasaytirish natijasida ikki marta kamaytirilgan intervallar. { XE "ЭНГАРМОНИК ТЕНГ ИНТЕРВАЛЛАР" \b }

### *Mavzuni mustahkamlash uchun savollar*<sup>56</sup>

1. Interval soʻzining lugʻaviy maʼnosini ayting.
2. Melodik interval deganda nimani tushunasiz?
3. Garmonik intervalni tushuntiring.
4. Intervalning son miqdori deganda nimani tushunasiz?
5. Intervalning sifat miqdori deganda nimani tushunasiz?
6. Interval asosi nima?
7. Interval choʻqqisi deganda nimani tushunasiz?
8. Diatonik intervallarni tushuntiring.
9. Xromatik intervallarni tushuntiring.
10. Orttilgan intervallarga misollar keltiring.
11. Kamaytirilgan intervallarga misollar keltiring.
12. Engarmonik teng intervaallarni tushuntiring.
13. Ikki marta orttirilgan interval qanday tuziladi?
14. Ikki marta kamaytirilgan interval qanday tuziladi?

## **12-BOB. INTERVALLARNING AYLANISHI, TARKIBLI INTERVALLAR, KONSONANS VA DISSONANS INTERVALLAR.**

### **1-§. INTERVALLARNING AYLANISHI**

Interval tovushlarining bir joydan ikkinchi joyga koʻchishi natijasida pastki tovush yuqoriga va yuqoridagi tovush pastga joylashadi, bunga **interval aylanishi** deyiladi.

Tovushlarning koʻchishi ikki yoʻl bilan amalga oshirilishi mumkin:

1. Interval asosini (pastki tovushni) bir oktava yuqoriga koʻchirish;
2. Interval choʻqqisini (yuqori tovushni) bir oktava pastga koʻchirish. Bunday aylanish natijasida yangi interval hosil boʻladi:

---

1. <sup>56</sup> Mishael Pilhofer and Holly Day "Music Theory for dummies" Indiana USA 2007. Wiley Publishing Inc. 2007-118- page

2. <sup>56</sup> Mishael Pilhofer and Holly Day "Music Theory for dummies" Indiana USA 2007. Wiley Publishing Inc. 2007-119- page

Bunda barcha sof intervallar – sofga, kichik intervallar - kattaga, katta intervallar - kichikka, orttirilgan intervallar - kamaytirilganga, kamaytirilgan intervallar – orttirilganga, ikki marta orttirilgan intervallar – ikki marta kamaytirilgan intervallarga aylanadi va aksincha.

Berilgan biror intervalni pastga tomon tuzish uchun asosiy tovushdan bir oktava pastda joylashgan tovush aniqlanib, undan yuqoriga tomon berilgan interval aylanmasi sanaladi. Masalan, do diyez notasidan pastga tomon katta septima tuzish talab etilganda, quyidagicha tuziladi:

Agar biror interval va uning aylanmasini birlashtirsak, natijada oktava hosil bo‘ladi. Shu bois, bir-biriga aylanadigan intervallar sifat miqdoringing hajmi hamisha olti tonga teng bo‘ladi.


## 2-§. TARKIBLI INTERVALLAR.

Musiqa amaliyotida oddiy intervallardan tashqari, oraliq‘i oktavadan keng bo‘lgan intervallar ham qo‘llaniladi.

Oraliq‘i bir oktavadan keng bo‘lgan intervallarga **tarkibli intervallar**{ XE "таркибли интерваллар" \b } deyiladi. Tarkibli intervallar oddiy intervallarni oktavaga qo‘shish yo‘li bilan hosil bo‘ladi.

Har bir tarkibli interval uning tarkibidagi pog‘onalar soniga qarab quyidagi mustaqil nomlar bilan ataladi:

1. Nona – 9, oktava orqali tuzilgan sekunda;
2. Detsima – 10, oktava orqali tuzilgan tertsiya;
3. Undetsima -11, oktava orqali tuzilgan kvarta;
4. Duodetsima – 12, oktava orqali tuzilgan kvinta;
5. Tertsdetsima – 13, oktava orqali tuzilgan seksta;
6. Kvartdetsima – 14, oktava orqali tuzilgan septima;
7. Kvintdetsima -15, oktava orqali tuzilgan oktava.




Tarkibli intervallarning sifat miqdorini belgilash uchun oddiy intervallarda ishlatiladigan sof, katta, kichik, orttirilgan, kamaytirilgan kabi iboralar qoʻllaniladi.

Tarkibli intervallar aylanganda, undagi tovushlarning koʻchishi 2 xil tarzda amalga oshadi. Birinchidan, tarkibli interval tovushlaridan birortasining, masalan, pastki tovushining yuqoriga yoki yuqorigi tovushining pastga, ikki oktavaga koʻchishi hamda ikkinchidan, tarkibli interval har ikkala tovushining qarama-qarshi tomonga bir oktavaga koʻchishida namoyon boʻladi.



kat.10      kich.6      sof 12      sof 4      kich.13      kat.3

Tarkibli intervallarga misollar:



### 3-§. OHANGDOSH (KONSONANS) VA NOOHANGDOSH (DISSONANS) INTERVALLAR

Zamonaviy musiqada har qanday diatonik shakldagi garmonik intervallar ohangdosh yoki noohangdosh intervallarga boʻlinadi.

Musiqada ohangdoshlik (*konsonans* { XE "консонанс" \b }) deb bir-biri bilan uygʻunlashgan, ohangdosh boʻlib eshitilgan tovushlar yangrashi, yigʻindisiga aytiladi.

Noohangdoshlik (*dissonans* { XE "диссонанс" \b }) deb bir-biri bilan uygʻunlashmagan, keskin eshitiladigan tovushlarga aytiladi.

Ohangdosh intervallarga quyidagilar kiradi:

a)	sof prima	<b>Eng mukammal ohangdoshlar</b>
----	-----------	----------------------------------



	sof oktava	
b)	sof kvarta	<b>Mukammal ohangdoshlar</b>
	sof kvinta	
v)	kichik tertsiya	<b>Nomukammal ohangdoshlar</b>
	katta tertsiya	
	kichik seksta	
	katta seksta	

Noohangdosh intervallarga quyidagilar kiradi:

kichik sekunda

orttirilgan kvarta

katta sekunda

kamaytirilgan kvinta

kichik septima

katta septima

1. Intervallar aylanishida ohangdosh intervallar – ohangdosh intervallarga, noohangdosh intervallar esa noohangdosh intervallarga aylanadi.

### ***Tayanch tushunchalar***

Intervallarning aylanishi, interval asosi yoki pastki tovushini bir oktava yuqoriga ko‘chirish, interval cho‘qqisini yoki yuqori tovushini bir oktava pastga ko‘chirish, bir-biriga aylanadigan intervallar sifat miqdorining hajmi olti tonga teng bo‘ladi. Tarkibli intervallar, oddiy intervallarni oktavaga qo‘shish, nona – 9, detsima – 10, undetsima -11, duodetsima – 12, tertsdetsima – 13, kvartdetsima – 14, kvintdetsima -15. Ohangdosh yoki konsonans va noohangdosh yoki dissonans intervallar, bir-biri bilan uyg‘unlashgan intervallar, bir-biri bilan uyg‘unlashmagan intervallar, eng mukammal ohangdoshlar, mukammal ohangdoshlar, nomukammal ohangdoshlar, intervallar aylanishi.

### ***Mavzuni mustahkamlash uchun savollar***

1. Intervalning aylanishi deb qanday aylanishga aytiladi?
2. Interval tovushlarining ko‘chishi necha yo‘l bilan amalga oshirilishi mumkin?
3. Interval aylanishi natijasida orttirilgan intervallar qaysi intervallarga o‘tadi?
4. Interval aylanishi natijasida kamaytirilgan intervallar qaysi intervallarga o‘tadi?
5. Aylanadigan intervallar miqdori hamisha necha tonga teng bo‘ladi?
6. Tarkibli intervallar deb qanday intervallarga aytiladi?
7. Tarkibli intervallar qay tarzda hosil qilinadi?
8. Tertsdetsima intervalini tushuntiring.



9. Kvintdetsima intervali qanday hosil qilinadi?
10. Katta oktava do tovushidan yuqoriga qarab katta nona intervali tuzing.
11. Birinchi oktava si tovushidan pastga qarab kichik nona intervali tuzing.
12. Oktavaga oddiy intervallarni qo'shish yo'li bilan qaysi intervallar hosil qilinadi?
13. Konsonans atamasining lug'aviy ma'nosini tushuntiring.
14. Dissonans atamasi qanday ma'noni anglatadi?
15. Ohangdosh intervallarga qaysilar kiradi?
16. Noohangdosh intervallarni sanab bering.
17. Kamaytirilgan kvinta qaysi intervallar guruhiga kiradi?
18. Nomukammal ohangdosh intervallarni sanab bering.

### **13-BOB. INTERVALLARNING LADDAGI O'ZARO MUNOSABATLARINING TIZIMLANISHI.**

#### **1-§. TABIIY MAJOR VA MINOR INTERVALLARI**

Tabiiy major va tabiiy minor tovushqatorining pog'onalari faqat diatonik interval hosil qiladi. Iсталgan har bir pog'onadan prima, sekunda, tertsiya, kvarta va boshqa intervallar tuzilishi mumkin. Asosiy vazifa bulardan har birining sifat miqdorini, ya'ni, qaysisi sof, kichik yoki katta ekanligini aniqlashdan iborat. Yondosh intervallardan har birining umumiy soni ladning yetti pog'onasi soniga teng.

Jadval yordamida intervallarni o'rganish uchun quyidagilarga amal qilish zarur:

1. Tabiiy major va tabiiy minorda o'xshash intervallar hosil bo'ladi va ularning soni bir-biriga tengdir.

I II III IV V VI VII

Sof prima

I II III IV V VI VII

Kichik sekunda

I II III IV V VI VII

Katta sekunda

I II III IV V VI VII

Kichik tertsiya

I II III IV V VI VII

Katta tertsiya

I II III IV V VI

Sof kvarta

VII

Orttirilgan kvarta

Kamaytirilgan kvinta

Sof kvinta

Kichik seksta

Katta seksta

Kichik septima

Katta septima

Sof oktava

C-dur a-moll

I IV V III VI VII

2. Minorda majornikiga oʻxshagan barcha intervallar majordagiga qaraganda ikki pogʻona yuqorida joylashadi. Masalan, majorda katta tertsiya I, IV, V – pogʻonalardan, minorda esa III, VI, VII – pogʻonalardan yuqoriga qarab joylashadi.

## 2-§. GARMONIK MAJOR VA GARMONIK MINOR TONALLIKLARINING INTERVALLARI.

Tabiiy major va minor intervallari oʻziga xos boʻlib, ular tabiiy minor gammasi pogʻonalari intervallaridan farq qiladi. Jumladan, garmonik major va garmonik minorda uchraydigan intervallar tabiiy koʻrinishda uchramaydi.

Do major (tabiiy)

Lya minor (tabiiy)

Garmonik majorda 6-pogʻonaning pasaytirilishi va garmonik minorda 7-pogʻonaning koʻtarilishi natijasida shu ladlarda hosil boʻlgan intervallar tabiiy major va tabiiy minor intervallaridan farq qiladi.

Bu ladlardagi hosil boʻladigan intervallar tabiiy koʻrinishda uchramaydi, shuning uchun bu xildagi intervallarga xromatik yoki **xarakterli intervallar**{ XE "характерли интерваллар" \b } deyiladi.

Hammasi boʻlib toʻrtta xarakterli interval bor, bular: ort.2, kam.7, ort.5, va kam.4 dan iborat. Ushbu yangi intervallar majorda 6-pogʻona oʻzgarishi bilan bogʻliq.

C – dur garmonik

VI-pog'ona-dan ort,2    VII-pog'ona-dan kam,7    VI-pog'ona-dan ort,5    III-pog'onadan kam,4

Minorda esa 7-pogʻonaning koʻtarilishi bilan bogʻliq.

a – moll garmonik

VII-pog'ona-dan ort,2    VII-pog'ona-dan kam,7    III-pog'nadan ort,5    VII-pog'ona-dan kam,4

Tabiiy major va tabiiy minorning garmonik shaklga oʻtishi natijasida ayrim diatonik intervallar oʻzgaradi. Masalan, sof kvarta bilan sof kvinta oʻrniga ort.4 bilan kam.5 shaklidagi ikkita uchtonlik hosil boʻladi.

C-dur garmonik      a-moll гармоник

VII-pog'na-dan ort.4    II-pog'nadan kam.5    II-pog'na-dan ort.4    VII-pog'na-dan kam.5

Uchtonlikning echilishida har ikkala tovush ham tortilish tomon bir pog'ona o'tadi, orttirilgan kvartada-ikki tomonga, kamaytirilgan kvintada bir-biriga tomon intiladi.

C-dur garmonik      a-moll garmonik

kam.4    sof 5    kam.4    sof 5    ort.4    sof 5    ort.5    sof 4

### 3-§. TURG'UN VA NOTURG'UN INTERVALLAR

Lad pog'onalari yordami bilan tuzilgan har bir interval o'zining akustik xususiyatlariga ega. Turg'un tovushlardan tuzilgan ohangdosh intervallar **turg'un interval** { XE "турғун интервал" \b } deyiladi. Ohangdosh interval noturg'un tovushlardan tuzilsa yoki bitta noturg'un va bitta turg'un tovushlardan tuzilsa baribir noturg'un interval bo'ladi. Demak, har qanday noohangdosh interval doim noturg'un hisoblanadi.

Allegro moderato      Tong      P.Chaykovskiy

Noohangdosh intervalning echilishi deb uning ohangdosh intervalga o'tishi (aylanishi) ga aytiladi. Noturg'un intervalning echilishi deb, uning turg'un intervalga o'tishiga aytiladi.

Kat. 2 va kich. 7 ning yechilishi:

C – dur

c – moll

C – dur

c – moll

Noohangdosh sof kvartalarning yechilishi:

C-dur (c-moll)

Sof 4                      Sof 4                      Sof 4

Kich.2 va kat.7 ning yechilishi:

C-dur                      c-moll

kich.2                      kat.7                      kich.2                      kat.7

Uchtonlik yechilishida har ikkala tovush tortilish tomon bir pog‘ona o‘tadi, orttirilgan kvartada ikki tomonga, kamaytirilgan kvintada bir-biriga tomon harakat qiladi.

C-dur

ort.4 kich.6 kam.5 kam.3 ort.4 kat.6 kam.5 kich.3

a-moll garmonik

ort.4 kat.6 kam.5 kich.3 ort.4 kich.6 kam.5 kam.3

#### 4-§. XALQ MUSIQASINING YETTI POG‘ONALI DIATONIK LADLARI. PENTATONIKA

Xalq musiqasida ketma-ket kelgan va turli diatonik pog‘onalardan tuzilgan yetti pog‘onali ladlar ko‘p uchraydi. Biz bilamizki, lad pog‘onalarning birin-ketin kelishi, tovushqatorda katta va kichik sekundalar joylashishiga bog‘liq.

*Xalq musiqasi ladlarining tabiiy major va minordan farqi*

Qadimgi nomi	Hozirgi major - minor tuzilmasidagi o‘rni	Diatonik tovushqatordagi o‘rni
<b>Ioniy</b>	diatonik tabiiy do major	<b>c</b> tovushidan boshlab tuziladi
<b>Doriy</b> { <b>XE</b> "Дорий" \b }	6-bosqichi ko‘tarilgan minor	<b>d</b> tovushidan boshlab tuziladi
<b>Frigiy</b>	2 – pog‘onasi pasaytirilgan minor	<b>e</b> tovushidan boshlab tuziladi
<b>Lidiy</b>	4 – pog‘onasi ko‘tarilgan major	<b>f</b> tovushidan boshlab tuziladi
<b>Miksolidiy</b>	7-pog‘onasi pasaytirilgan major	<b>g</b> tovushidan boshlab tuziladi
<b>Eoliy</b>	tabiiy minor	<b>a</b> tovushidan boshlab tuziladi
<b>Gipofrigiy</b> { <b>XE</b> "Гипофригий" \b } yoki <b>Lokriy</b>	2 va 5-bosqichlari yarim ton ko‘tarilgan minor	<b>h</b> tovushidan boshlab tuziladi

Xalq ladlari diatonik tovushqatordagi ma’lum tovushlardan tuzilganda, yuqoridagi jadvalda ko‘rsatilganidek hech qanday al’teratsiya belgilariga ega bo‘lmaydi:



Boshqa bosqichlardan tuzilganda esa jadvalda ko‘rsatilgan tovushqatorlar intervallari al’teratsiya belgilari yordamida hosil qilinadi.


Dunyo xalqlari musiqasida tovushqatori katta sekundalar va kichik tertsiyalar orasida tuzilgan besh pog'onali ladlar ko'p uchraydi. Bu xildagi ladlar **pentatonika**<sup>57</sup>{ XE "пентатоника" \b } deyiladi.

Fortepianoning qora klavishlarida, bir oktava oralig'ida birin-ketin eshitilgan barcha tovushlar pentatonika tovushlarini hosil qiladi. Pentatonika tarkibiga: yo bitta kichik tertsiya bilan uchta katta sekunda yoki ikkita kichik tertsiya bilan ikkita katta sekunda kiradi.

Bu lad boshqa laddan tovushqatori tarkibida kichik sekundalar (yarim tonliklar) ning yo'qligi bilan farq qiladi. Pentatonika pog'onalari uchtonlik hosil qilmaydi.

Asosan ikki xil pentatonika ko'p tarqalgan:


1. Birinchi pog'onadan (diatonik tovushqatorida, ya'ni **do**) *major uchtovushligi tuziladigan pentatonika*. Bu o'z xarakteri bilan major ladiga yaqin turadi, biroq u tabiiy majordan 4 va 7 – pog'onalar yo'qligi bilan farq qiladi.



Barcha diatonik pog'onalardan major uchtovushligi pentatonikasi quyidagicha tuziladi:



2. Birinchi pog'onadan (diatonik tovushqatorida, ya'ni **lya**) *minor uchtovushligi tuziladigan pentatonika* minorni eslatadi, biroq unda 2 va 6 – pog'onalar bo'lmaydi.



Barcha diatonik pog'onalardan minor uchtovushligi pentatonikasi quyidagicha tuziladi:

<sup>57</sup> Pentatonika – yunoncha besh va ton so'zlaridan olingan bo'lib, oktava ichida beshta tovushdan iborat bo'lgan tovushqator tuzilmasi / Ents. muz. slovar'. M., 1959. b.202.





### *Tayanch tushunchalar*

Garmonik major va garmonik minor tonalliklarining intervallari, turg'un va noturg'un intervallar, xarakterli intervallar, turg'un interval, { XE "турғун интервал" \b } intervalning echilishi. Xalq musiqasining yetti pog'onali diatonik ladlari, pentatonika, ioniy, doriy, frigiyy, lidiy, miksolidiy, eoliy, gipofrigiy { XE "Гипофригий" \b } yoki lokriy ladlari, pentatonika ladlari.

{ XE "характерли интерваллар" \b }

### *Mavzuni mustahkamlash uchun savollar*

1. Qanday intervallar turg'un intervallar deb aytiladi?
2. Noturg'un intervalga misol keltiring.
3. Noohangdosh interval qay tarzda yechiladi?
4. Noturg'un interval qay tarzda yechiladi?
5. Noohangdosh intervalga misol keltiring.
6. Garmonik major va garmonik minorda nechta xarakterli interval bor?
7. Qanday lادلarga xalq musiqasining yetti pog'onali diatonik ladlari deyiladi?
8. Do tovushidan tuzilgan diatonik tovushqator xalq ladlari bo'yicha nima deb ataladi?
9. Miksolidiy ladini tushuntiring.
10. Frigiyy ladiga misol keltiring.
11. Pentatonika atamasi nimani bildiradi?
12. Pentatonikaning qanday ko'rinishlari mavjud?
13. Pentatonika ladlari qaysi xalqlar musiqasida keng qo'llaniladi?

## **14-BOB. AKKORD VA UCHTOVUSHLIK, ULARNING AYLANMALARI. MAJOR VA MINORNING ASOSIY, YONDOSH UCHTOVUSHLIKLARI HAMDA ULARNING AYLANMALARI.**

### **1-§. AKKORD. UCHTOVUSHLIKLAR VA ULARNING AYLANISHI**

Bir vaqtda qo'shib eshitilgan hamda tertsiya bo'yicha joylashgan uch va undan ortiq tovushlarga **akkord** { XE "аккорд" \b } deyiladi. Akkord berilgan pastki tovushdan *yuqoriga qarab* tuziladi.

Uchta tovushdan iborat, tertsiya bo'yicha joylashgan akkord **uchtovushlik** deyiladi. Uchtovushlikning qaysi holatda bo'lishi shu uchtovushlik tarkibiga kiradigan tertsiyalarning joylashuv tartibi va holatiga bog'liq bo'ladi.

1. Major yoki katta uchtovushlik kat.3 va kich.3 dan tuziladi hamda ikki chetidagi tovushlar sof 5 intervalidan iborat bo'ladi.

2. Minor yoki kichik uchtovushlik kich.3 va kat.3 dan tuziladi, ikki chetidagi tovushlar sof 5 intervalidan iborat bo'ladi.

3. Orttirilgan uchtovushlik{ XE "Орттирилган учтовушлик" \b } ikkita kat.3 dan tuziladi. Ikki chetidagi tovushlar oralig'i ort. 5 dan iborat bo'ladi.

4. Kamaytirilgan uchtovushlik ikkita kich.3 dan tuziladi va ikki chetidagi tovushlar oralig'i kam.5 dan iborat bo'ladi:



Major va minor uchtovushligidan hosil bo'lgan barcha intervallar ohangdosh intervallarga kiradi. Orttirilgan va kamaytirilgan uchtovushliklardan tuzilgan intervallar esa noohangdosh intervallarga kiradi, ular *ort.5* va *kam.5* dan iborat.

Demak, major va minor uchtovushliklari ohangdosh bo'ladi, orttirilgan va kamaytirilgan uchtovushliklar esa noohangdosh bo'ladi.


Akkord tovushlari tertsiya bo'yicha joylashgan bo'lsa, unga **akkordning asosiy ko'rinishi**{ XE "аккорднинг асосий кўриниши" \b } deyiladi.

Akkordning har bir tovushi mustaqil nomga ega. Tovushlarning nomlari asosiy ko'rinishdagi akkordning pastdan yuqoriga tomon joylashgan tovushlari hosil qilgan intervallar nomidan kelib chiqadi. Uchtovushlikning eng pastki, ya'ni asosiy tovushi **prima**, ikkinchi yoki o'rta tovushi – **tertsiya**, uchinchi yoki yuqori tovushi – **kvinta** deyiladi.

Agar uchtovushlikda eng pastki tovush tertsiya yoki kvinta bo'lsa, bu uchtovushlik **aylanmasi** deyiladi.

Uchtovushlik ikkita aylanmaga ega, birinchisiga **sektakkord**{ XE "сектаккорд" \b } deyiladi, unda prima tovushi bir oktava yuqoriga ko'chiriladi, ikkinchi aylanmasi **kvartsektakkord**{ XE "квартсектаккорд" \b } deyiladi, bunda prima bilan tertsiya bir oktava yuqoriga ko'chadi.

Sektakkordning pastki tovushi tertsiya bo'ladi, kvartsektakkordning pastki tovushi esa kvinta bo'ladi:



Sekstakkord **6** raqami bilan belgilanadi. Kvartsekstakkord esa **6/4** raqamlari bilan belgilanadi. Akkord asosiy tovushdan prima va tertsiya tomon tuziladi. Masalan, re majorda sekstakkord tuzish talab etilsa, quyidagicha bo‘ladi:



Yoki si minorda kvartsekstakkord tuzish talab qilinsa, quyidagicha bo‘ladi:



Major yoki minor uchtovushliklarining aylanmalarini istalgan tovushdan tuzish va ularning tonalliklarini aniqlash uchun:

1. Akkordning qo‘shni tovushlari orasida qaysi xildagi intervallar hosil bo‘lishini va;
2. Sekstakkordda yuqori tovushi prima ekanligini, kvartsekstakkordda esa, o‘rta tovush primaligini bilish talab qilinadi.

Quyida major va minor uchtovushliklari aylanishining interval tuzilishi tartibi keltirilgan:

- Major sekstakkordi - kich.3 + sof 4;
- Minor sekstakkordi - kat.3 + sof 4;
- Major kvartsekstakkordi - sof 4 + kat.3;
- Minor kvartsekstakkordi - sof 4 + kich.3.


Major va minor uchtovushliklari aylanishining interval tuzilishini va ulardagi asosiy tovushlar ko‘rinishini bilganda, kerak bo‘lgan akkordni tuzish juda oson bo‘ladi.

Masalan: re tovushidan major sekstakkordi tuzish talab qilinsa;



si bemol major sekstakkordi hosil bo‘ladi.

Re tovushidan minor kvartsekstakkordi tuzish talab qilinsa;



sol minor kvartsekstakkordi hosil bo‘ladi va h.k.

## 2-§. MAJOR VA MINORNING ASOSIY UCHTOVUSHLIK LARI

Major va minorning barcha pog‘onalaridan uchtovuşliklar tuzilishi mumkin. Tabiiy major pog‘onalaridan uchtovuşlik tuzilganda, ulardan uchta si major ekanligini ko‘ramiz. Bular 1, 4 va 5–pog‘onalardagi uchtovuşliklardir. Har bir uchtovuşlik mustaqil nomga ega bo‘ladi.


1 - pog‘ona uchtovuşligi *tonika* uchtovuşligi;

4 –pog‘ona uchtovuşligi *subdominanta* uchtovuşligi{ XE "субдоминанта учтовушлиги" \b };

5 – pog‘ona uchtovuşligi esa *dominanta* uchtovuşligi{ XE "доминанта учтовушлиги" \b } deyiladi.

Bular major uchtovuşliklari bo‘lganligi sababli major ladi uchun xarakterlidir. Bu uchtovuşliklar boshqa uchtovuşliklarga qaraganda *lad funksiyalarini*, ya’ni, turg‘un va noturg‘un tovushlar munosabatini ko‘proq ifodalaydi. Shuning uchun ham ular asosiy uchtovuşliklar deb ataladi va katta **T**, **S**, **D** harflari bilan belgilanadi.


Do major C – dur



Minorning asosiy uchtovuşliklari esa kichik harflar bilan yoziladi:

**t, s, d.**

Lya minor a – moll



Garmonik ko‘rinishdagi minorda asosiy uchtovuşliklarning tuzilishi tabiiy major va minordagidan farq qiladi.

Majorning 6–pog‘onasi pasaytirilganda minor subdominanta uchtovuşligi hosil bo‘ladi va garmonik majorning yanada mayin eshutilishiga yordam beradi. Minorning 7–pog‘onasi ko‘tarilganda major dominanta uchtovuşligi hosil bo‘ladi. Bu esa, minorga major lading ba’zi xususiyatlarini beradi:

**a - moll t - D - t**

**a - moll**

**C - dur T - S - D - T**

**a - moll t - s - D - t**

**C - dur T - D - T**

**C - dur T - S - T**

**Gamma pog'onalari, Qo'shimcha kiritish belgisi:** Gammaning turli notalari **gamma pog'onalari** deb ataladi. Gamma pog'onalari notaning gammadagi tartibli raqamini ustidan yoziladigan “^”- caret – qo'shimcha kiritish belgisi bilan ko'rsatiladi. Har bir gamma pog'onasi o'z nomiga ega, misolda G-majorda ko'rsatilgan:

Tonic    1    2    3    4    5    6    7    1  
 ↑    ↑    ↑    ↑    ↑    ↑    ↑  
 Supertonic    Mediant    Subdominant    Dominant    Submediant    Leading Tone    Tonic

**Tonika. Dominanta. Subdominanta:** **Tonika** gammaning birinchi notasidir. U tonallik nomini aytib turuvchi “asosiy ton”dir. **Dominanta** tonikadan besh pog'ona yuqori joylashgan nota, tonika bir deb hisoblanganda. **Subdominanta** tonikadan besh pog'ona pastroq joylashgan nota, tonika bir deb hisoblanganda.

**Medianta, Submedianta: Medianta** deb tonika va dominanta o‘rtasidagi notaga aytiladi. **Submedianta** deb tonika va subdominant o‘rtasidagi notaga aytiladi.


**Supertonika. Yetakchi pog‘ona. Subtonika: Supertonika** – bu tonikadan bir ton yuqorida joylashgan notadir. **Subtonika** tonikadan bir ton pastroq joylashgan notadir. **Yetakchi pog‘ona** hamisha tonikaga nisbatan yarim ton pastroq joylashgan bo‘ladi (ham major, ham minor tonalliklarda).

**Uchtovushliklarga xos rasmiy sxematik belgilar:** Rasmiy sxematik belgilar kuy ustida yoziladi va pastdan qaysi akkordni chalish kerakligini ko‘rsatib turadi. Ular akkordning asosiy toni (prima notasi)ni va sifatini namoish qiladi. Uchtovushliklarga xos odatiy akkord sifatleri bu major, minor, kamaytirilgan, orttirilgan kabilardir.

**Septakkordlarga xos rasmiy sxematik belgilar:**


Septakkordlarga xos belgilar ham shu tarzda ishlaydi:





### Vertikal va gorizontal kesim belgisi (slesh):

**Vertikal slesh** eng pastda chalinadigan notani ko'rsatadi. **gorizontal slesh** esa ustma ust joylashgan akkodlarni (ko'p hollarda ikkita har xil uchtovushliklarni) ko'rsatadi.



Quyidalarga ham qarang: Qarang **Kitob 3: Djaz va ommaviy musiqa nazariyasi** va Rawlins va Bahha mualliflarning "Jazzology" (djazshunoslik) adabiyotini. Rim numeratsiyasiga oid qarang **5.2. Rim numeratsiyasi**.<sup>58</sup>


### 3-§. MAJOR VA MINORNING YONDOSH UCHTOVUSHLIK LARI. TABIIY VA GARMONIK MAJOR HAMDA MINOR POG'ONALARIDAN TUZILGAN UCHTOVUSHLIK LAR

Tovushqatorning asosiy uchtovushliklar pog'onalaridan tashqari, barcha (2, 3, 6, 7) pog'onalari *yondosh pog'onalar* { XE "эндош погоналар" \b } deyiladi. Ular ladning asosiy uchtovushliklariga nisbatan ikkinchi darajali ahamiyatga egadir.



<sup>58</sup> Mark Feezell. Music theory fundamentals. High-yield music theory, vol.1. 2011


Tabiiy majorda *uchta minorli* va *bitta kamaytirilgan* uchtovushlik **yondosh** uchtovushlik bo‘ladi (7 – pog‘ona).



Tabiiy minorda *uchta majorli* va *bitta kamaytirilgan* uchtovushlik **yondosh** uchtovushlik bo‘ladi (2 – pog‘ona).



Garmonik majorda ikki va yettinchi pog‘onalarda 2 ta kamaytirilgan, 6 – pog‘onada birta orttirilgan uchtovushlik hosil bo‘ladi.



Garmonik minorda: oltinchi pog‘onada birta majorli, 2 va 7 – pog‘onalarda ikkita kamaytirilgan va uchinchi pog‘onada – birta orttirilgan uchtovushlik hosil bo‘ladi.



Uchtovushliklar soni quyidagilardan iborat bo‘ladi:

1. Tabiiy major yoki minorda – 3 ta majorli, 3 ta minorli va bitta kamaytirilgan uchtovushlik bo‘ladi. Garmonik major yoki minorda 2 ta majorli, 2 ta minorli, 2 ta kamaytirilgan va 1 ta orttirilgan uchtovushlik;





a – moll tabiiy

II III VI VII

a – moll garmonik

II III VI VII

Sifrovka bo‘yicha akkordlar ketma-ketligini fortepianoda chalish:

C-Dur

T S D T T S D T T S D T T S D T

**“Uchtovushliklar”ga Kirish:** uchtovushlik, primasi, tersiyasi, kvintasi, major uchtovushligi, minor uchtovushligi, kamaytirilgan uchtovushlik, orttirilgan uchtovushlik, minor uchtovushligini tuzish, kamaytirilgan uchtovushlikni tuzish, orttirilgan uchtovushlikni tuzish, asosiy ko‘rinish, birinchi aylanma, ikkinchi aylanma, ovozlarga taqsimlash va aylanma


**Major uchtovushligi: Ularni tez tuzing:** obzor (umumiylashtiruvchi qisqacha ma’lumot), tersiyalar ustuni, BEAD uchtovushliklarida ko‘tarilgan tersiya, B ikkalasiga zarba beradi.

**To‘rt qadamda uchtovushliklar tuzish:** berilgan tersiya yoki kvintadan uchtovushliklar tuzish, berilgan tersiyaga misollar, berilgan kvintaga misollar.


**Uchtovushlik. Prima(asos), tersiya, kvinta:** Uchtovushlik bu **ikkita tersiya intervallari** ustma-ust tuzilgan uch-tovishli akkordir. Uchta nota pastdan yuqoriga **prima (asos), tersiya, kvinta** deb nomlanadi. Quyidagi misolda ikkita tersiya intervallari – C-E va E-G.

root third fifth


**Major uchtovushligi: Major uchtovushligi** asosida **majorli** tersiya va yuqorida **minorlia** tersiyaga egadir. Major tonallikning birinchi pog‘onasida tuzilgan akkord **major** uchtovushligi hisoblanadi.




**Minor uchtovushligi:** Minor uchtovushligi asosida **minorli** tersiya va yuqorida **majorli** tersiyaga egadir. Minor tonallikning birinchi pogʻonasida tuzilgan akkord **minor** uchtovushligi hisoblanadi.




**Kamaytirilgan uchtovushlik:** Kamaytirilgan uchtovushlik ikkita minorli tersiyadan tashkil topadi.




**Orttirilgan uchtovushlik:** Orttirilgan uchtovushlik ikkita majorli tersiyadan tashkil topadi.




**Minor uchtovushligini tuzish:** Minor uchtovushligini tuzishni major uchtovushligidan boshlang, soʻng undan minor uchtovushligini hosil qilish uchun, **tersiya tovushini altersiya belgisi yordamida yarim tonga pasaytiring.**




**Kamaytirilgan uchtovushlikni tuzish:** Kamaytirilgan uchtovushlikni major uchtovushligi tuzishdan boshlang, keyin undan **kamaytirilgan** uchtovushlikni hosil qilish uchun, uning **tersiya va kvinta tovushlarini altersiya belgisi yordamida yarim tonga pasaytiring.** Kamaytirilgan uchtovushlikni hosil qilishda boshqacha usuli, major uchtovushligini tuzib, uning primasini yarim tonga koʻtaring.




**Orttirilgan uchtovushlikni tuzish: Orttirilgan uchtovushlikni tuzishda major uchtovushligini tuzib, uning kvintasini yarim tonga ko‘taring.**



**Asosiy ko‘rinish, 1- aylanma, 2- aylanma: Uchtovushlikning asosiy ko‘rinishi** deganda akkordning eng pastki notasi prima (asos) bo‘lishi tushuniladi. Qachonki akkordning **tersiyasi** eng pastki nota bo‘lsa, uning **1- aylanmasi** hosil bo‘ladi. Qachonki akkordning **kvintasi** eng pastki nota bo‘lsa, uning **2- aylanmasi** hosil bo‘ladi.



**Ovozlarga taqsimlash va aylanma: Akkord notalarini ovozlarga taqsimlash** eng pastki nota ustidan (prima, tersiya, kvinta) notalari qay tartibda o‘rnatilganini ko‘rsatadi. Akkord notalari qay ovozga o‘rnatilganidan qat’iy nazar, akkordning aylanmasi o‘zgarmaydi.



**Obzor (umumiylashtiruvchi qisqacha ma’lumot):** Birinchdan, harfiy nomlarni tersiyali tuzilma bo‘yicha yoda oling: F A C E G B F A. Keyin eslab qiling: tersiyalar ustuni, BEAD uchtovushliklarida ko‘tarilgan tersiya, B ikkalasiga zarba beradi. Qarang 4.1. “Intervallar”ga Kirish, major uchtovushlikdan minor, kamaytirilga, orttirilganlarni tuzish jarayoni.

**Tersiyalar ustuni:** Qadam 1: Tersiyalar ustunini tuzing va har bir notaga bir xil alteratsiya belgisini qo‘ying.

G, C, F root triads: Done!

B, E, A, D root triads: Done!

**BEAD uchtovushliklarda ko‘tarilgan tersiya:** Qadam 2: B, E, A, D notalardan tuzilgan uchtovushliklarda alteratsiya belgisiyordamida tersiya notasi yarim tonga ko‘tariladi.

E, A, D root triads: Done!

**B ikkalasiga zarba beradi:** Qadam 3: faqat B notadan tuzilgan uchtovushlikda alteratsiya belgisi yordamida kvinta notasi ham yarim tonga ko‘tariladi. Xullas, B notadan tuziladigan uchtovushlik tersiya va kvinta notalarini yarim tonga ko‘taradi.

B root triads: Done!

**Berilgan tersiya yoki kvintadan uchtovushliklar tuzish:** Agar siz uchtovushlikni har qanqay notadan tuzishni bilsangiz (qarang 4.2. Major uchtovushligi: Ularni tez tuzish), demak quyidagi 4ta qadamni amalga oshirib, istagan uchtovushlikni berilgan tersiya yoki kvintasidan ham tuza olasiz:











**Qadam 1:** asos notaning harfiy nominin topish uchun berilgan notadan **3 yoki 5ta harfiy nomdan pastga sanang.**

**Qadam 2:** 1- qadamda topilgan notadan **major** uchtovushligini tuzing.











**Qadam 3:** talab qilingan akkord sifatini keltirib chiqarish uchun notalarni o'zgartiring.

**Qadam 3:** kerak bo'lsa alteratsiya belgilarini ishga solib, hamma notalarni transpozitsiya qilib ko'chiring.

**Berilgan tersiyaga misollar Berilgan tersiyaga misollar:** Bu yerda berilgan uchtovushlik tersiyasiga ikkita misol ko'rsatilgan:

	→		→		→		→	
What dim. triad has C# as the third?		1. Count down three letters: C,B,A.		2. Build A major.		3. Make it dim.		4. Since C needs to be C#, raise all notes 1 half step.
	→		→		→		→	
What minor triad has Fb as the third?		1. Count down three letters: F,E,D.		2. Build D major.		3. Make it minor.		4. Since F# needs to be Fb, lower all notes 1 half step.

**Berilgan kvintaga misollar:** Bu yerda berilgan uchtovushlik kvintyasiga ikkita misol ko'rsatilgan:

	→		→		→		→	
What major triad has E# as the fifth?		1. Count down five letters: E,D,C,B,A.		2. Build A major.		3. Already major!		4. Since E needs to be E#, raise all notes 1 half step.
	→		→		→		→	
What aug. triad has B as the fifth?		1. Count down 5 letters: B,A,G,F,E.		2. Build E major.		3. Make it augmented.		4. Since B# needs to be Bb, lower all notes 1 half step.

**Uchtovushlik va septakkordlarni tartibga solgan ma'lumot jadvali:** Ushbu jadvalda alteratsiya belgilari faqat ulardan keyin yozilgan notalarga nisbatan qo'llaniladi. Bu jadval akkordlar o'rganishda ularning o'rnini bosuvchi ma'lumot sifatida qo'llanilmasligi lozim, lekin u siz o'rganayotgan murakkabroq akkordlarni solishtirish uchun juda foydali bo'lib qolishi mumkin.

	Major	Minor	Dim/°	Aug/+	Maj7/Δ	Min7/m7/-7	°7/dim7
C							
C#							
Db							
D							
D#							
Eb							
E							
F							
F#							
Gb							
G							
A							
A#							
Bb							
B							

### Tayanch tushunchalar

Akkordlar, uchtovushliklar, uchtovushliklarning aylanishi, ohangdosh intervallar, noohangdosh intervallar, akkordning asosiy koʻrinishi, prima, tertsiya, kvinta, uchtovushlik aylanmasi, sekstakkord, kvartsekstakkord, major sekstakkordi, minor sekstakkordi. Major va minorning asosiy uchtovushliklari, tonika uchtovushligi, subdominant uchtovushligi, dominant uchtovushligi { XE "доминанта учтовушлиги" \b }, *T*, *S*, *D* belgilari. Yondosh pogʻonalar, { XE "ёндош поғоналар" \b } major va minorning yondosh uchtovushliklari, tabiiy va garmonik major va minor pogʻonalaridan tuzilgan uchtovushliklar, yondosh uchtovushlik.

### *Mavzuni mustahkamlash uchun savollar*

1. Akkord deb qanday tovushlar majmuasiga aytiladi?
2. Uchtovushlikning har bir tovushi qanday nomlar bilan ataladi?
3. Uchtovushlik aylanmasiga misol keltiring.
4. Sekstakkord uchtovushlikning nechanchi aylanmasi?
5. Mi tovushidan major kvartsektakkordi tuzing.
6. Sekstakkord qanday raqam bilan belgilanadi?
7. Tonika atamasini tushuntiring.
8. Subdominanta atamasi qaysi bosqichga nisbatan qoʻllaniladi?
9. Tovushqatorning nechanchi bosqich tovushi dominanta deb aytiladi?
10. **T, S, D** harflari nimani anglatadi?
11. **t, s, d** harflari qanday maʼnoni bildiradi?
12. Minorning 7-pogʻonasi koʻtarilganda qanday holat kuzatiladi?
13. Majorning 6-pogʻonasi koʻtarilganda qanday holat kuzatiladi?
14. Re majorda **D** uchtovushligini tuzing.
15. Lya majorda **S** uchtovushligi tuzing.
16. Fa diyez minorda **D** uchtovushligini tuzing.
17. Tovushqatorning nechanchi pogʻonalari yondosh pogʻonalar deyiladi?
18. Tabiiy majorda nechta yondosh uchtovushlik boʻladi?
19. Tabiiy majorda nechta major, minor va kamaytirilgan uchtovushlik boʻladi?
20. Garmonik major yoki garmonik minorda nechta majorli uchtovushlik boʻladi?
21. Garmonik minorning nechanchi pogʻonasida orttirilgan uchtovushlik hosil boʻladi?

## **15-BOB: SEPTAKKORDLAR VA AKKORDLAR ENGARMONIZMI.**

### **1-§. SEPTAKKORD. DOMINANTSEPTAKKORD VA UNING AYLANMALARI**


Tertsiya asosida joylashgan, toʻrt tovushli akkordga *septakkord* deyiladi. Septakkordning ikki chetidagi tovushlar oraligʻi septima intervalini hosil qilganligi uchun bu akkord septakkord nomini olgan.

Musiqada septakkord xilma-xil koʻrinishlarda qoʻllaniladi. Major va garmonik minorning 5 – pogʻonasidan tuzilgan septakkord eng koʻp tarqalgan septakkordlardan biridir. Bu akkord **dominantseptakkord**{ XE "доминантсептаккорд" \b } deyiladi.


Dominantseptakkord yuqori tomondan kichik tertsiya qoʻshilgan major uchtovushligidan (kat.3 + kich.3 + kich.3) tuziladi. Dominantseptakkord tovushlari asosiy tovushdan boshlab sanalganda: prima (akkordning negizi), tertsiya, kvinta va



septima (akkord cho‘qqisi) lardan iborat bo‘ladi. Dominantseptakkord quyidagi belgi bilan yoziladi: - **D<sub>7</sub>**



Dominantseptakkord 3 ta aylanmaga ega, bulardan birinchi aylanma - kvintsektakkord (**D<sub>6/5</sub>**). Ikkinchi aylanma – tertskvartakkord (**D<sub>4/3</sub>**) va uchinchi aylanma – sekundakkord (**D<sub>2</sub>**) deb aytiladi.



Dominantseptakkord aylanmalarining nomi, akkordning eng pastki tovushi – negizidan cho‘qqisiga qarab tuziladigan tovushlar intervallariga asoslanadi.

Biror tonallik yoki tovushdan dominantseptakkord yoki aylanmalarini tuzish uchun dastlab, akkordni tashkil qiluvchi intervallarning joylashishi va tuziladigan pog‘onalarning kelish tartibini bilish zarur.

Dominantseptakkord (**D<sub>7</sub>**) – kat.3 + kich.3 + kich.3; 5 – pog‘onadan;


Dominantkvintsektakkord (**D<sub>6/5</sub>**) – kich.3+kich.3+kat.2; 7–pog‘onadan;

Dominanttertskvartakkord (**D<sub>4/3</sub>**) – kich.3 + kich.2 + kat.3; 2 – pog‘onadan;

Dominantsekundakkord (**D<sub>2</sub>**) – kat.2 + kat.3 + kich.3; 4 –pog‘onadan tuziladi.



Dominantseptakkord noohangdosh akkordlarga kiradi. Uning tarkibida ikkita noohangdosh interval bor, bular kich.7 va kam.5 intervallaridir.





Dominantseptakkord kvintasiz, asosiy tovushi uchlantirilgan to‘liq bo‘lmagan tonika uchtovushligiga yechiladi: bunda 5, 7 va 2 – pog‘onalar 1 – pog‘onaga o‘tadi, 4 – pog‘ona esa 3 – pog‘onaga o‘tadi, 5 – pog‘ona kvarta yuqoriga ko‘chadi.

C-dur

DVII7                      T

Kvintsektakkord primasi juftlantirilgan, to‘liq bo‘lmagan tonika uchtovushligiga yechiladi: 7 va 2 – pog‘onalar 1 – pog‘onaga, 4 - pog‘ona 3 – pog‘onaga o‘tadi, 5 – pog‘ona o‘z o‘rnida qoladi.

C-dur

DVII65                      T

Tertskvartakkord asosiy tovushi oktavaga juftlantirilgan, to‘liq tonika uchtovushligiga yechiladi: 2- pog‘ona 1 – pog‘onaga, 4 – pog‘ona 3 – pog‘onaga o‘tadi, 5 – pog‘ona o‘z o‘rnida qoladi; 7 – pog‘ona esa oktavaga juftlantirilgan 1- pog‘onaga o‘tadi.

C-dur

DVII43                      T

Sekundakkord primasi juftlantirilgan tonika sekstakkordiga yechiladi: 6 – pog‘onasi 3 – pog‘onaga o‘tadi, 5 – pog‘ona o‘z o‘rnida qoladi, 7 va 2 – pog‘onalar 1 – pog‘onaga o‘tadi:

C – dur

V<sub>7</sub>                      T                      V<sub>6</sub><sub>5</sub>                      T                      V<sub>4</sub><sub>3</sub>                      T                      V<sub>2</sub>                      I<sub>6</sub>

a – moll

V<sub>7</sub>                      t                      V<sub>6</sub><sub>5</sub>                      t                      V<sub>4</sub><sub>3</sub>                      t                      V<sub>2</sub>                      I<sub>6</sub>

**Septakkordlar:** septakkord, major septakkord, minor septakkord, major-minor (dominant) septakkord, yarim kamaytirilgan septakkord, kamaytirilgan septakkord, aylanmalari.

**Akkordlar bo'yicha umumiy ma'lumot jadvali:** uchtovushlik va septakkordlarni tartibga solgan ma'lumot jadvali.

**Asosiy rasmiy sxematik belgilar:** uchtovushliklarga xos rasmiy sxematik belgilar, septakkordlarga xos rasmiy sxematik belgilar, vertikal va gorizontaal kesim belgisi.

**Septakkord. Majorli septima: Septakkord** bu tersiya intervallari ustunidan foydalanilgan to'rt-tovushli akkord tuzilmasidir. To'rtta nota nota pastdan yuqoriga **prima (asos), tersiya, kvinta** va **septima** deb nomlanadi. Septakkordning beshta xili mavjud. **Majorli septakkord majorli** uchtovushlik va **majorli** septimadan iborat. **Minorli septakkord minorli** uchtovushlik va **minorli** septimadan iborat.

M7 major 7th chord = major triad + major seventh = M7 chord (major third on top)

m7 minor 7th chord = minor triad + minor seventh = m7 chord (minor third on top)

**Major-minorli (dominant) septakkord:** Major-minorli septakkord majorli uchtovushlik va minorli septimadan iborat. Mm7 akkord Dominant septakkord bo'lib ishlatiladi.

Mm7 = major triad + minor seventh = Mm7 chord (minor third on top)

**Yarim kamaytirilgan. Kamaytirilgan:** Yarim kamaytirilgan septakkord kamaytirilgan uchtovushlik va minorli septimadan iborat. Kamaytirilgan septakkord kamaytirilgan uchtovushlik va kamaytirilgan septimadan iborat. Kamaytirilgan septakkord faqat minorli tersiyalardan tashkil topadi.

$\emptyset 7$  half-dim. + minor seventh =  $\flat 7$  chord major third  
 $\circ 7$  fully-dim. + dim. triad + diminished seventh =  $\circ 7$  chord minor third

**Aylanmalari:** Aylanmalari – **asosiy ko‘rinishi** (pastki nota prima), **1- aylanmasi** (tersiya pastda), **2- aylanmasi** (kvinta pastda) yoki **3- aylanmasi** (septima pastda) bo‘lishi mumkin. (Yaxshiroq organish uchun Qarang **5.2. Rim numeratsiyasi**).<sup>59</sup>

## 2-§. YETAKCHI SEPTAKKORDLAR (DVII<sub>7</sub>). IKKINCHI POG‘ONA SEPTAKKORDI (SII<sub>7</sub>)

Septakkordlar orasida dominantseptakkorddan tashqari yetakchi septakkordlar ham ko‘p qo‘llaniladi. Ular tabiiy va garmonik majorning, shuningdek, garmonik minorning 7 – pog‘onasida tuziladi va **yetakchi septakkord**{ XE "етакчи септаккорд" \b } deyiladi.

Yetakchi septakkordning ikki chetidagi tovushlar tabiiy majorda kichik septima intervalini hosil qiladi va **kichik yetakchi septakkord**{ XE "кичик етакчи септаккорд" \b } deyiladi. Kichik yetakchi septakkord ustki tomonidan katta tertsiya qo‘shilgan kamaytirilgan uchtovushliklardan tuziladi (kich.3, kich.3, kat.3).

Yetakchi septakkordning ikki chetidagi tovushlari garmonik major va minorda kamaytirilgan septimani tashkil qiladi. Shuning uchun ham u **kamaytirilgan yetakchi septakkord**{ XE "камайтирилган етакчи септаккорд" \b } deyiladi. Kamaytirilgan yetakchi septakkord kamaytirilgan uchtovushlikdan iborat bo‘lib, ustki tomonidan kichik tertsiya qo‘shiladi (kich.3, kich.3, kich.3). Yetakchi septakkord quyidagicha yoziladi – **DVII<sub>7</sub>**.

C – dur tabiiy      garmonik      a – moll garmonik  
 kich. 7      kam. 7      kam. 7  
 kich.7 VII<sub>7</sub>      kam.7 VII<sub>7</sub>      kam. VII<sub>7</sub>

Yetakchi septakkordlar ham uchta aylanmaga ega bo‘lib, ular asosiy va aylanma septakkordlar tarzida qo‘llaniladi:

<sup>59</sup> Mark Feezell. Music theory fundamentals. High-yield music theory, vol.1. 2011

**C-Dur**  
 VII<sub>7</sub> VII<sub>6/5</sub> VII<sub>4/3</sub> VII<sub>2</sub>

**G-Dur**  
 VII<sub>7</sub> VII<sub>6/5</sub> VII<sub>4/3</sub> VII<sub>2</sub>

**D-Dur**  
 VII<sub>7</sub> VII<sub>6/5</sub>

**A-Dur**  
 VII<sub>4/3</sub> VII<sub>2</sub> VII<sub>7</sub> VII<sub>6/5</sub> VII<sub>4/3</sub> VII<sub>2</sub> VII<sub>7</sub> VII<sub>6/5</sub> VII<sub>4/3</sub>

**E-Dur**  
 VII<sub>7</sub> VII<sub>6/5</sub> VII<sub>4/3</sub>

**H-Dur**  
 VII<sub>2</sub> VII<sub>7</sub> VII<sub>6/5</sub> VII<sub>4/3</sub> VII<sub>2</sub> VII<sub>7</sub> VII<sub>6/5</sub>

**Fis-Dur**  
 VII<sub>7</sub> VII<sub>6/5</sub>

**Cis-Dur**  
 VII<sub>4/3</sub> VII<sub>2</sub> VII<sub>7</sub> VII<sub>6/5</sub> VII<sub>4/3</sub> VII<sub>2</sub>

Yetakchi septakkordlar: a) tertsiyasi juftlantirilgan tonika uchtovushligiga yyechiladi:

**C - dur**      **a - moll**  
 (kam.) kich. VII<sub>7</sub>      kam. VII<sub>7</sub>

b) yoki D<sub>7</sub> hamda uning aylanmalari orqali T ga yyechiladi:

**C-Dur**  
 VII<sub>7</sub> D<sub>65</sub> T    VII<sub>65</sub> D<sub>43</sub> T    VII<sub>43</sub> D<sub>2</sub> T    VII<sub>2</sub> D<sub>7</sub> T    VII<sub>7</sub> D<sub>65</sub> T    VII<sub>65</sub> D<sub>43</sub> T    VII<sub>43</sub> D<sub>2</sub> T

**D-Dur**  
 VII<sub>2</sub> D<sub>7</sub> T    VII<sub>7</sub> D<sub>65</sub> T    VII<sub>65</sub> D<sub>43</sub> T    VII<sub>43</sub> D<sub>2</sub> T<sub>6</sub>    VII<sub>2</sub> D<sub>7</sub> T    VII<sub>7</sub> D<sub>65</sub> T

**E-Dur**  
 VII<sub>65</sub> D<sub>43</sub> T    VII<sub>43</sub> D<sub>2</sub> T<sub>6</sub>    VII<sub>2</sub> D<sub>7</sub> T    VII<sub>7</sub> D<sub>65</sub> T    VII<sub>65</sub> D<sub>43</sub> T    VII<sub>43</sub> D<sub>2</sub> T<sub>6</sub>

**H-Dur**

**Cis-Dur**

Septakkordlarning keng tarqalgan turlaridan yana biri, bu ikkinchi bosqich septakkordidir. Ikkinchi bosqich septakkordining tertsiyasi, kvintasi va septimasi subdominantaga tegishli, primasi esa tovushqatorning ikkinchi pogʻonasi tovushi boʻlganligi uchun ushbu akkord **SII<sub>7</sub>** bilan belgilanadi.

**SII<sub>7</sub>** tovushqatorning ikkinchi pogʻonasidan boshlab tuziladi. Uning intervallari kich.3., kat.3., kich.3. ni, chetki tovushlari esa kich.7 ni tashkil etadi.

C-Dur    G-Dur    D-Dur    A-Dur    E-Dur    H-Dur    Fis-Dur    Cis-Dur

SII<sub>7</sub>    SII<sub>7</sub>    SII<sub>7</sub>    SII<sub>7</sub>    SII<sub>7</sub>    SII<sub>7</sub>    SII<sub>7</sub>    SII<sub>7</sub>

F-Dur    B-Dur    Es-Dur    As-Dur    Des-Dur    Ges-Dur    Ces-Dur

SII<sub>7</sub>    SII<sub>7</sub>    SII<sub>7</sub>    SII<sub>7</sub>    SII<sub>7</sub>    SII<sub>7</sub>    SII<sub>7</sub>

Subdominantseptakkord dominantseptakkord va uning aylanmalari orqali tonikaga yechiladi.

**C-Dur**  
 II7 D43 T    II65 D2 T6    II43 D7 T    II2 D65 T    II7 D43 T    II65 D2 T6    II43 D7 T

**D-Dur**  
 II2 D65 T    II7 D43 T    II65 D2 T6    II43 D7 T    II2 D65 T    II7 D43 T    II65 D2 T6

**E-Dur**  
 II43 D7 T    II2 D65 T    II7 D43 T    II65 D2 T6    II43 D7 T    II2 D65 T

**H-Dur**  
 II7 D43 T    II65 D2 T6    II43 D7 T    II2 D65 T    II7 D43 T

**Fis-Dur**  
 VII65 D2 T6    II43 D7 T    II2 D65 T    II7 D43 T    II65 D2 T6

**Cis-Dur**  
 II43 D7 T    II2 D65 T

### 3-§. AKKORDLAR ENGARMONIZMI. ENGARMONIK AKKORDLAR TENGLIGINING IKKI TURI. AKKORDLARNING MUSIQADA QO‘LLANISHI

Musiqā amaliyotida akkordlar engarmonizmi ko‘p uchraydi. Bunda akkordni hosil qilayotgan tovushlar majmuasining turlicha atalishi imkoniyati borligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Akkordlar engarmonizmi deb eshinishi bir xil, lekin yozilishi va nomlanishi har xil bo‘lgan akkordlarga aytiladi. Akkordlar engarmonizmi uning tarkibiga kiradigan alohida tovushlar va intervallarga asoslanadi.

Cis – Des    dis – es    Fis – Ges    H – Ces    Ais – B


Akkordlardagi engarmonik tenglikning ikki xil ko‘rinishi mavjud:

1. Akkorddagi barcha tovushlar almashtiriladi, biroq, ularning interval tuzilishi o‘zgarmaydi:





2. Akkorddagi barcha yoki alohida tovushlar engarmonik jihatdan almashtiriladi, biroq, tovushlarning interval tuzilishi o'zgarmaydi:



Har qanday musiqa uchtadan kam bo'lmagan tovushlar majmuasidan iborat bo'lsa, unda akkordlar hosil bo'ladi. Ularning musiqa amaliyotida muhim o'rnini bor, chunki aynan akkordlar tovushlar harakatini muvofiqlashtiradi, bundan tashqari akkordlar bir-biri bilan ma'lum qonuniyatlar asosida bog'lanadi.

Tasviriy san'atda ranglarning xili va turlari ko'pligi qanchalik ahamiyatga ega bo'lsa, musiqada akkordlar, ya'ni ko'p ovozlarning turlicha variatsiyalari badiiy-musiqiy mazmunning yanada yorqinroq aks ettirilishini ta'minlaydi. Shu bois, musiqa asari keng musiqiy garmoniya elementlariga boy bo'lsa, ya'ni akkordlar, ko'p ovozlarning imkoniyatlaridan keng foydalanilsa, musiqa asarining badiiy mazmunni ifodalash imkoniyatlari shunchalik kengayadi va ushbu musiqaning tinglovchisi mumkin qadar ko'proq musiqiy ifodani o'ziga qabul qiladi.

Akkord ko'pincha shunday tarzda ifodalanadiki, uning bir necha yoki barcha tovushlari birdaniga bir necha oktavada ijro etiladi. Bunday usul *akkordning ikkilanishi* deb aytiladi. Masalan:



Aksincha, akkord to'liqsiz ham bo'lishi mumkin. Uni aniqlash uchun tovushlarini xayolan to'ldirish lozim.



### *Tayanch tushunchalar*

Septakkord, dominantseptakkord va uning aylanmalari, kvintsektakkord, tertskvartakkord, sekundakkord, nohangdosh akkord, to'liq bo'lmagan tonika uchtovushligi. Yetakchi septakkord va aylanmalari, ikkinchi pog'ona septakkordi, kichik yetakchi septakkord, kamaytirilgan yetakchi septakkord, ikkinchi bosqich

septakkordi. { XE "камайтирилган етакчи септаккорд" \b } Akkordlar engarmonizmi, engarmonik akkordlar tengligining ikki turi, akkordlarning musiqada qoʻllanishi.

### *Mavzuni mustahkamlash uchun savollar*

1. Septakkord atamasining mazmunini tushuntiring.
2. Qanday akkordga septakkord deb aytiladi?
3. Tovushqatorning nechanchi bosqichlaridan septakkord tuzish mumkin?
4. Eng koʻp tarqalgan septakkord qaysi?
5. Qanday septakkordga dominantseptakkord deyiladi?
6. Dominantseptakkordning har bir tovushi qanday nom bilan ataladi?
7. Dominantseptakkordning nechta aylanmasi bor?
8. Dominantseptakkordning aylanmalari nomini ayting.
9. Septakkord atamasining mazmunini tushuntiring.
10. Qanday akkordga septakkord deb aytiladi?
11. Tovushqatorning nechanchi bosqichlaridan septakkord tuzish mumkin?
12. Eng koʻp tarqalgan septakkord qaysi?
13. Qanday septakkordga dominantseptakkord deyiladi?
14. Dominantseptakkordning har bir tovushi qanday nom bilan ataladi?
15. Dominantseptakkordning nechta aylanmasi bor?
16. Dominantseptakkordning aylanmalari nomini ayting.
17. Dominantseptakkord aylanmalarining echilishi deganda nimani tushunasiz?
18. Kvintsektakkord qanday koʻrinishdagi tonika uchtovushligiga yechiladi?
19. Yetakchi septakkordlar nechanchi pogʻonadan tuziladi?
20. Yetakchi septakkordlarning nechta aylanmasi bor?
21. Yetakchi septakkord aylanmalarining nomini ayting.
22. Qay holatlarda kichik yetakchi septakkord hosil boʻladi?
23. Kamaytirilgan yetakchi septakkord hosil boʻlishi uchun nima zarur?
24. Kichik yetakchi septakkord intervallarini ayting.
25. Kamaytirilgan yetakchi septakkord intervallarini ayting.
26. Akkordlar engarmonizmini tushuntiring.
27. Akkordlar engarmonik tengligining necha koʻrinishi bor?
28. Musiqa amaliyotida toʻliqsiz akkordlar qanday izohlanadi?
29. Akkordlar musiqada qanday ahamiyatga ega?



## 16-BOB: TONALLIKLAR POG‘ONADOSHLIGI. XROMATIZM. TONALLIKLARNI ANIQLASH. TRANSPOZITSIYA.

### 1-§. TONALLIKLAR POG‘ONADOSHLIGI

Major va minor tonalliklari o‘zaro garmonik teng tonalliklar guruhini tashkil etadi. Tonika uchtovushliklari tabiiy va garmonik ko‘rinishda berilgan tonalliklarning pog‘onalaridan hosil bo‘lgan tonalliklar *pog‘onadosh tonalliklar* deyiladi.

Musiqa amaliyotida har bir asardagi dastlabki (ilk) tonallik *bosh tonallik* deyiladi, asar rivojlanishi jarayonida uni almashtiruvchi tonallik esa *yondosh tonallik* deyiladi.

Har bir tonallik 6 tadan pog‘onadosh tonallikka ega. Masalan, do majorga quyidagi tonalliklar pog‘onadosh bo‘ladi:

Fa major 4 - pog‘ona	}	asosiy pog‘onalar tonalligi.
Sol major 5 - pog‘ona		
Lya minor 6-pog‘ona	}	asosiy pog‘ona tonalligiga parallel.
Re minor 2- pog‘ona		
Mi minor 3- pog‘ona		
Fa major 4 (garm.) pog‘ona		– minor subdominanta tonalligi.

Lya minorga quyidagi tonalliklar pog‘onadosh bo‘ladi:

Re minor 4 - pog‘ona	}	asosiy tonalliklar pog‘onadoshligi.
Mi minor 5 – pog‘ona		
Do major 3 – pog‘ona		– asosiy tonallikka parallel.
Fa major 6 – pog‘ona	}	asosiy pog‘ona tonalliklariga parallel.
Sol major 7 - pog‘ona		
Mi major (garm.) 5 – pog‘ona		– major dominantasi tonalligi.

Tabiiy va garmonik *do major* va *lya minor* pog‘onalarida tuzilgan major va minor uchtovushliklari yuqorida ko‘rsatilgan pog‘onadosh tonalliklarning har biriga tonika bo‘la oladi.


### 2-§. MAJOR VA MINOR XROMATIK GAMMALARI.

Barcha xromatik gammalar birin – ketin keladigan yarim tonliklardan tuziladi. Xromatik gamma mustaqil ko‘rinishli lادلarni hosil qila olmaydi, uning negizi major yoki minor gammasi hisoblanadi.

Xromatik gamma major yoki minor tabiiy gammalaridagi katta sekundalarning xromatik tovushlar yordami bilan to‘ldirilishidan hosil bo‘ladi. Ularning yozilishi qoidasi tonalliklar uyushiqligiga asoslanadi.

Majorda bu qoidalar quyidagi tartibda bo‘ladi: gammaning barcha asosiy pog‘onalari o‘zgarmaydi, katta sekundalar yuqoriga tomon I, II, IV va V – pog‘onalarning ko‘tarilishi bilan to‘ldiriladi, pastga tomon VI – pog‘onaning ko‘tarilishi o‘rniga, VII– pog‘ona pasaytiriladi.


Pastga tomon harakat qilganda, katta sekundalar: VII, VI, III, II–pog‘onalar pasaytirilishi bilan to‘ldiriladi, V – pog‘onani pasaytirish o‘rniga IV – pog‘ona ko‘tariladi.



Ushbu misoldan ko‘rinib turganidek, yuqoriga tomon harakat qilganda, VII – pog‘onani pasaytirish va pastga tomon harakat qilganda, IV – pog‘onani ko‘tarish vaqtida o‘zgartirilgan barcha pog‘ona tovushlari tabiiy yoki majordagi pog‘onadosh tonalliklar pog‘onalariga teng bo‘lishi zarur.

Masalan, Iya diyez va sol bemol tovushlari do majorga pog‘onadosh tonalliklarda uchramaydi, shuning uchun xromatik gamma bo‘ylab yuqoriga tomon harakat qilinganda VI – pog‘ona ko‘tarilmasligi va pastga tomon harakat qilinganda V – pog‘ona pasaytirilmasligi zarur.

Minor xromatik gammasining yuqoriga tomon harakatini yozish qoidasi parallel majorga o‘xshash bo‘ladi. Minorning 1 pog‘onasi unga parallel bo‘lgan majorda VI – pog‘ona bo‘ladi, buning natijasida I – pog‘ona ko‘tarilmaydi, uning o‘rniga II – pog‘ona pasaytiriladi. Pastga tomon harakat qilinganda minor xromatik gammasi nomdosh major gammasi singari yoziladi.



Shuni ta’kidlash lozimki, musiqa amaliyotida ba’zan xromatik gammalarni ko‘rsatilganicha yozish qoidasidan chekinish hollari ham uchraydi. Masalan, tertsiyalar bilan xromatik harakat qilinganda o‘qilishi qulay bo‘lishi va tertsiyalarni boshqa intervallar bilan engarmonik tartibda almashtirmaslik uchun shunday qilinadi.

**Xromatik gamma va Fortepiano klaviaturasi:** fortepiano klaviaturasi, yarim ton, alteratsiya belgilari, butun ton, diatonik yarim ton, engarmonik notalar, gamma, xromatik gamma<sup>60</sup>

**Gamma: Gamma** (Italiyan tilidan - zina, shkala) – pastdan yuqori tomonga (yoki yuqoridan past tomonga) qarab joylashgan notalar qatori va butun va yarim tonliklarning muayyan tartibga asoslangan qatordir. **Xromatik gamma** barcha notalar (oq va qora klavishlar)ni o‘z ichiga olib, ularni bir qatorga, odatda, C notadan keyingi yuqiridagi yoki pastkisi C notagacha oralig‘ida tizib chiqadi. Xromatik gamma faqat yarim tonliklardan iborat. **Yuqoriga ko‘tarilib boruvchi** xromatik gamma fortepiano qora klavishlari uchun bemol belgisini qo‘llaydi. **Pasayib boruvchi** xromatik gamma fortepiano qora klavishlari uchun diyez belgisini qo‘llaydi.<sup>61</sup>

Ascending chromatic scale (uses sharps for black keys)

C C# D D# E F F# G G# A A# B C

Descending chromatic scale (uses flats for black keys)

C B Bb A Ab G Gb F E Eb D Db C

### 3-§. MODULYATSIYA VA OG‘ISHMA. POG‘ONADOSH TONALLIKLARGA MODULYATSIYA QILISH.

Musiqqa asari yoki qismining biror yangi tonallikka o‘tishi va shu tonallikda tugallanishiga modulyatsiya{ XE "модуляция" \b } deyiladi. Agar musiqqa asari biror yangi tonallikka vaqtincha o‘tsa va yana dastlabki tonallikka qaytib tugallansa og‘ishma deyiladi. Og‘ishmalar odatda o‘tkinchi xarakterga ega bo‘ladi, ular musiqqa asari tarkibida uchraydigan ayrim akkordlar funksiyasini qisqa muddat ichida ajratib ko‘rsatish vositasi hisoblanadi. Quyida og‘ishmaga misol keltiramiz:

Allegretto

<sup>60</sup> Mark Feezell. Music theory fundamentals. High-yield music theory, vol.1. 2011

<sup>61</sup> Mark Feezell. Music theory fundamentals. High-yield music theory, vol.1. 2011

Modulyatsiyaga misol:



Mne mi nu lo shest-nad-tsat let, no serd - tse bi - lo vvo - le. Ya  
du-ma-la ves be-liy svet ves be-liy svet vash bor po-tok i, po - le.

Yangi tonallikka o'tish ko'p hollarda tasodifiy belgilarning hosil bo'lishi bilan bog'liq bo'ladi, modulyatsiyani ayrim vaqtlarda jo'r bo'luvchi akkordlarga qarab ham belgilash mumkin. Chunki tasodifiy belgilar faqat pastki tovushlargagina qo'yiladi.

**Pog'onadosh tonalliklarga modulyatsiya qilish:** Modulyatsiya musiqada juda keng qo'llaniladi. U ifoda vositasi sifatida chuqur badiiy ahamiyatga ega bo'ladi va musiqaning rang-barang ohanglarda eshitalishiga hamkorlik qiladi. Pog'onadosh tonalliklar tovush tarkibida birlashganlari uchun sh pog'onadosh tonalliklardagi modulyatsiyalar yoqimli va ravon bo'ladi. Dominanta va uning parallel tonalligiga qilingan modulyatsiyalarni juda ko'p uchratish mumkin. Subdominanta va uning parallel tonalliklariga qilingan modulyatsiya, odatda, og'ishmaga o'xshagan bo'ladi.

Pog'onadosh tonalliklarga qilingan modulyatsiyaga misollar:

a) mi-bemol majordan dominanta tonalligiga:



Andantino

В. Моцарт. Андантино

b) sol-minordan minor dominantasi tonalligiga:

**Allegro**

В. Ф. Бах. Аллегро

v) sol- majordan parallel tonallikka:

Украин халқ қўшиғи "Ой, ходила дивчина бережком" "Соҳил бўйлаб юрарди у қиз"

g) re-minordan parallel tonallikka:

Р. Шуман. "Шимол қўшиғи"

d) sol-majordan III pog'ona tonalligiga:

(Вальс суръатида)

А. Лядов. "Кичик вальс" нжод 26

Musical score for 'Кичик вальс' by A. Lyadov, measures 26-30. The score is in 3/4 time, key of D major. It features a piano (p) dynamic. The melody is in the right hand, and the accompaniment is in the left hand. The piece concludes with a first ending (1.) and a final piano (p) dynamic.

e) re-minordan major dominantasi tonalligiga:

Allegretto

Р. Глиэр. "Арнетта"  
нжод 43, № 7

Musical score for 'Арнетта' by R. Gliere, measures 43-47. The score is in 2/4 time, key of D major. It features a piano (p) dynamic in the first system and mezzo-forte (mf) in the second system. The melody is in the right hand, and the accompaniment is in the left hand.

j) si-bemol minordan subdominantanta tonalligiga og'ishma:

Andante  
(Осойишта)

М. Глинка. "Иван Сусанин" операсидаг  
парча

Musical score for 'Иван Сусанин' by M. Glinka, measures 43-47. The score is in 4/4 time, key of B-flat major. It features an Andante tempo. The melody is in the right hand, and the accompaniment is in the left hand.

z) fa majordan II pog'ona tonalligiga og'ishma:

Adagio

Ф. Мендельсон. "Сўзсиз кўшиқ",  
ижод 53, № 22

#### 4-§. TONALLIKLARNI ANIQLASH. TRANSPOZITSIYA

Kalit oldi va tasodifiy al'teratsiya belgilari, kuyning tuzilishi, uning boshlanishi va tugash bosqichi, uning tonikasi, uchtovushligini belgilovchi asosiy va tayanch tovushlar berilgan kuyning lad va tonalliklarini aniqlovchi asosiy vositalar hisoblanadi.

Kuyning so'nggi tovushidan tonallikni hamisha ham aniqlash mumkin bo'lavermaydi. Chunki, ba'zi asarlarda kuy tonikadan boshqa bosqichlarda tugashi, bundan tashqari, kuy birinchi bosqich tovushi bilan boshlanmasligi ham mumkin.

Agar kuy jo'r bo'luvchi ovozlarga ega bo'lsa, uning ladi va tonalligini aniqlash oson bo'ladi. Bunda jo'r bo'luvchi akkordlar yordam beradi. Ayniqsa, oxirgi akkord tonika tovushlaridan tuzilgan bo'ladi.

Musiqqa asarining tonalligini aniqlashda asosan uchta usuldan foydalanish maqsadga muvofiq:

- 1) kalit oldi belgilariga ko'ra;
- 2) boshlanish va tugash tovushlari orqali va;
- 3) asarni ijro etib yoki ijroni tinglab aniqlash, yakuniy xulosaga kelish mumkin.

Musiqqa asarining biror tonallikdan boshqa tonallikka ko'chirilishi **transpozitsiya**<sup>62</sup>{ ХЕ "транспозиция" \b } deyiladi. Transpozitsiya ayniqsa, vokal ijrochiligida keng qo'llaniladi. Bundan tashqari, transpozitsiya biror musiqqa asarining asl ko'rinishidan boshqa bir asbobga, masalan, qashqar rubobi uchun yozilgan p'esani g'ijjakka moslab qaytadan yozishda ham qo'llaniladi.

Transpozitsiya uch usul orqali, ya'ni:

<sup>62</sup> Transpozitsiya – lotincha so'z bo'lib, joyini o'zgartirish degan ma'noni bildiradi. Ents. muz. slovar'. M., 1959. b.273.



- *mazkur intervalda o'zgarish yasash;*
- *kalit belgilarini o'zgartirish va;*
- *kalitning o'zini o'zgartirish* yo'li bilan amalga oshiriladi.

Biror intervalda transpozitsiya qilish lozim bo'lganda, oldin transpozitsiya qilinadigan tonallik aniqlanadi. Masalan, re majordan kichik tertsiya yuqoriga transpozitsiya qilsak, yangi tonallik fa major bo'ladi. Barcha notalar original tonallikda qaysi pog'ona va akkordlarga mos kelishi oldindan aniqlanib, fa major tonalligiga ko'chiriladi.

Komp'yuter tizimlarida, masalan, nota matnlari tahririga mo'ljallangan *Sibelius* komp'yuter dasturining 1, 2, 3, 4, 5, 6 - versiyalarida bu ma'lum murvatni bosish orqali engil amalga oshiriladi.

Ikkinchi usul xromatik yarim ton yuqoriga yoki pastga qarab transpozitsiya qilishdan iborat. Bu holda kalit yonidagi belgilar o'zgaradi, notalar o'z holicha qoladi, tasodifiy belgilar esa yangi kalit belgisining ko'tarilishi yoki pasaytirilishiga qarab o'zgarib turadi.

Masalan, lya bemol majordan lya majorga transpozitsiya qilsak: a) kalit yonidagi 4 ta bemolni 3 ta diyez belgisi bilan almashtiramiz;

The image displays a musical score illustrating the transposition of a melody from E-flat major to E major. The first staff shows the original melody in E-flat major (one flat) with fingerings I, IV, V, III. The second staff shows the transposed melody in E major (no flats) with arrows pointing to the changes. The third and fourth staves show the original and transposed accompaniment in 2/4 time. The fifth and sixth staves show the original and transposed accompaniment in 2/4 time with a different voicing.

b) agar tasodifiy belgilar uchrasa, bekarlarni diyezlar bilan, bemollarni esa bekarlar bilan almashtiramiz.

v) uchinchi usulda nota yo'liga yangi kalit tanlanib, original tonallik tonikasi qaerda yozilgan bo'lsa, yangi tonallik tonikasi ham o'sha erda yozilaveradi.



**Transpozitsiya:** notalar transpozitsiyasi, akkord transpozitsiyasi, kalit belgilari transpozitsiyasi, kuyini transpozitsiyalash, transpozitsiya qilayotgan cholg'ular, traspozitsiyadan qisqa xulosa

**Notalar transpozitsiyasi:** Transpozitsiya nota, akkord, kalit belgilari yoki kuyning balabdligini yuqoriroq yoki pastroq qilib qayta yozish jarayondir. Asarni yuqori yoki pastga ko'chirish masofasi **transpozitsiya intervali** deb aytiladi. Bitta notani transpozitsiya qilish uchun istalgan notani berilgan notaning tepasidan yoki pastidan talab qilinadigan intervalga moslab yozing.

Example transposition with a transposition interval of M6 up:

Original note... ...spell major 6th up... ...Transposed note

**Akkordlar transpozitsiyasi:** Akkordni transpozitsiya qilish uchun akkorddagi har bir notasini ko'chiring **yoki** uning asosiy nota (prima)sini ko'chirib, undan muvofiq akkord tuzing.

Example transposition with a transposition interval of M2 down:

Original chord... ...transpose each note M2 down... ...Transposed chord

Alternate method:

Original chord... ...transpose the root... ...spell same quality.

**Kalit belgilari transpozitsiyasi:** Kalit belgilarini transpozitsiya qilish uchun tonika balandligini ko'chirib yozing. So'ng transpozitsiyalangan tonikaga xos kalit belgilarini yozib chiqing.

1. Find the tonic pitch. 2. Transpose the tonic pitch. 3. Determine new key signature.

M3 down = ??? A major M3 down F major

**Kuy transpozitsiyasi:** Kuyini transpozitsiya qilish uchun kalit belgilarini (agar ular bor bo'lsa) ko'chirib yozing. So'ng notalarni transpozitsiya qilib, yozib chiqing. E'tibor bering:

1. Berilgan kuyning qaysiki notasi alteratsiya belgiga ega bo'lsa, u transpozitaiya qilingan kuyda ham alteratsiya belgisi bilan yoziladi, alteratsiya belgisi o'zgargan bo'lsa ham, va

2. Berilgan kuyning pog'onalari transpozitsiyalangan kuyga ham ko'chiriladi; gohida ushbu yo'l vaqtini tejaydi.

Original melody in A major...

Scale steps: 1 4 3 2 1 #4 5 6 2 7 1

...transposed down a M3 to F major.

**Transpozitsiya qilayotgan cholg'ular: Transpozitsiya qilayotgan cholg'ularda** ijro etilgan asarning haqiqiy tovushlari qog'ozga yozilgan notalarga nisbatan bir oz yuqoriroq yoki pastroq bo'lib eshitiladi. Bu masalani bartaraf qilish uchun transpozitsiya qilayotgan cholg'ular partiyalarini har doim kerakli notalardan ko'ra yuqoriroq yoki pastroq yoziladi. Har bir cholg'u asbob maxsus transpozitsiya intervaliga egadir. Transpozitsiyasiz cholg'ular "in C" ("C ga") sozlangan, bu degani yozilgan C (do) notasi ushbu asboblarda chalinganda o'sha balandlikdagi, ya'ni C (do) tovush bo'lib eshitiladi. Shuning singari, valtorna "in F" yoziladigan va o'qiladigan C notani F tovush balandligida yangratadi. Notalar va kalit belgilari transpozitsiya qilinadi:

Written notes for horn in F: Notes that come out (down a P5):

**Traspozitsiyadan qisqa xulosa:** Quyidagi ro'yxat transpozitsiya qilayotgan cholg'ularga tegeshlidir. Bunday saboblarga xos kalitlar va maxsus diapazonlari tog'risida bilish uchun Dave Black va Tom Gerou mualliflarning **Essential Dictionary of Orchestration** (Orkestrlashga oid asosiy lug'at) nomli adabiyotiga murojaat qiling.

1. **"In C"** (transpozitsiyasiz): fortepiano, gitara, fleyta, goboy, fagot, trombon, tuba, skripka, alt, violonchel. Fleyta-piccolo ham "in C", faqat yozilgan notalar bir okava yuqori eshitiladi. Kontrabass esa yozilgan notalarni bir okava pastroq ijro etadi.
2. **"In Bb"** (si bemol) (yozilgandan ko'ra M2 - majorli sekundaga pastroq eshitiladi): klarnet, soprano saksafoni, truba. Bas klarnet va tenor saksafoni yozilgan notalarni M2 plus bir okava pastroq ijro etadi.
3. **"in F"** (yozilgandan ko'ra s.5 - sof kvintaga pastroq eshitiladi): valtorna (fransuz burg'ucha), ingliz burg'ucha.

“in Eb” (mi bemol) (yozilgandan ko‘ra M6 - majorli sekstaga pastroq eshitiladi): alt saksafoni. Bariton saksafoni yozilgan notalarni M6 plyus bir okava pastroq ijro etadi.<sup>63</sup>

### *Tayanch tushunchalar*

Xromatik gamma, yarim tonlik, asosiy pog‘onalar, yuqoriga tomon harakat, pastga tomon harakat qilish. Tonalliklarni aniqlash usullari, transpozitsiya, kuyning tuzilishi, boshlanishi va tugash bosqichi, uning tonikasi va uchtovushligini belgilovchi asosiy hamda tayanch tovushlar, oxirgi akkord xususiyatlari, kalit oldi belgilari, boshlanish va tugash tovushlari, asarni ijro etib yoki ijroni tinglab tonallikni aniqlash.

### *Mavzuni mustahkamlash uchun savollar*

1. Xromatik pog‘onalar qanday ifodalanadi?
2. Xromatizm nima?
3. Xromatik gamma nima?
4. Xromatik gammalarning yozilish qoidalari nimalarga asoslangan?
5. Qaysi tonalliklarga pog‘onadosh tonalliklar deyiladi?
6. Major xromatik gammasining yozilishi qaysi qoidaga asoslanadi?
7. Modulyatsiyali davriyani tushuntiring.
8. Modulyatsiya atamasini tushuntiring.
9. Modulyatsiya nima maqsadda qo‘llaniladi?
10. Modulyatsiyali davriyani tushuntiring.
11. Modulyatsiya atamasini tushuntiring.
12. Modulyatsiya nima maqsadda qo‘llaniladi?
13. Tonalliklarni qaysi usullar orqali aniqlash mumkin?
14. Transpozitsiya atamasining lug‘aviy va amaliy ma’nosini tushuntiring.
15. Transpozitsiya necha usul bilan amalga oshiriladi?
16. Transpozitsiya qanday maqsadda qo‘llaniladi?

## **17-BOB. KUY SINTAKSIZI.**

### **1-§. KUY. MUSIQA ASARIDA KUYNING AHAMIYATI.**

Tovushlarning bir ovozli shaklda ma’lum lad, metr hamda ritm jihatidan uyushib kelishiga **kuy** deyiladi.

---


<sup>63</sup> Mark Feezell. Music theory fundamentals. High-yield music theory, vol.1. 2011

Musiqaviy mazmun jo'rsiz, yakka kuy orqali ham ifodalanishi mumkin. Bir ovozi musiqa asarlari matnli (qo'shiq) va matnsiz (cholg'u kuylari) holda bo'lishi mumkin. Matnli kuy mazmuni ancha yorqin, aniq va tushunarli bo'ladi.

Biroq, shuni ta'kidlash zarurki, matnsiz musiqa asari, ya'ni kuyda tasviriy imkoniyatlar ancha keng bo'ladi va uni tasavvur etish tinglovchining dunyoqarashi va musiqiy tajribasiga bog'liq bo'ladi.

Musiqa ijodida ikki ovozi va undan ham ko'p ovozi asarlar uchraydi. Bunday asarlarda nechta ovoz bo'lishidan qat'iy nazar, asosiy kuy yo'nalmasi barcha tovushlarning qo'shib eshilitishidan tashkil topadi.

Har qanday kuyning asosida milliy xususiyatlar yotadi va milliy kuy hamda qo'shiqlarda mazkur millatning o'ziga xos ohang yo'nalishi, musiqiy an'analari yorqin aks etadi.



## 2-§. KUYNING HARAKAT YO'NALMASI VA UNING DIAPAZONI. O'TUVCHI VA YORDAMCHI TOVUSHLAR.

Kuy harakati o'zining rivojlanish jarayonida xilma-xil shakllarga kiradi. Kuy harakatining shakli turli yo'nalmalardan tashkil topadi. Ulardan eng asosiylari;

- a) ko'tariluvchi harakat;
- b) quyilashuvchi harakat;
- v) ko'tariluvchi va quyilashuvchi harakatning bir tekisda almashib turishidan hosil bo'ladigan gorizontall harakat;
- g) Tovushning takrorlanishidan hosil bo'ladigan gorizontall harakat.


Bu yerda shuni ham ko'rsatib o'tish kerakki, dastlabki uchta harakat: pog'onama-pog'ona, intervalma-interval(sakrama) yoki aralash bo'lishi mumkin.

To'lqinsimon harakat u qadar kata bo'lmagan diapazonda yoki sekin-asta ko'tarilish yoki quyilanish yo'li bilan hosil bo'ladi. Harakat gammaning turli pog'onalarida sekin-asta ko'tarilish yoki quyilanish yo'li bilan borsa, kuy ohangda takrorlanib turadi. Kuyning bu xildagi tuzilmasi sekvensiya deyiladi.


Kuyning eng yuqori nuqtasi yoki mintaqasi (dinamik harakatning eng zo'raygan paytiga mos kelsa) kulminatsiya (avj) deyiladi.

Kuy harakati shakllariga misollar:


a) Gorizontal harakat:




b) Sekin-asta ko'tariluvchan harakat: aralash va to'liqsimon quyilashuvchi harakat:



v) Sakrama harakat:




g) sekvensiya:



d) kulminatsiya:






Balandlik jihatdan farq qiladigan tovushlar oralig‘i kuy harakatining diapazoni deyiladi. Ravon harakat vaqtida akkord bo‘yicha joylashgan tovushlar oralig‘i akkord tarkibiga kirmaydigan tovushlar bilan to‘ldiriladi va bu xildagi tovushlar o‘tuvchi tovushlar deyiladi. O‘tuvchi tovushlar diatonik holda ham, xromatik holda ham uchraydi.



Akkord tarkibidagi tovushlardan sekunda yuqori yoki pastda joylashgan va harakat vaqtida yana akkord tovushiga qaytuvchi tovushlar yordamchi tovushlar deyiladi.

Yordamchi tovushlar diatonik va xromatik holda uchraydi va diatonik hamda xromatik pog‘ona bilan yonma-yon joylashadi.



### 3-§. KUYNING TARKIBLARGA BO‘LINISHI

Musiqqa asarining tarkibi tuzilma{ XE "тузилма" \b } deyiladi. Tuzilmalar oralig‘iga tsezura deyiladi. Tsezura V belgisi bilan yoziladi. Tuzilmalar musiqaviy fikrning tugallanish darajasi bilan bir-biridan farq qiladi.

Tugallangan musiqaviy fikrni ifodalovchi musiqaviy tuzilmaga davriya deyiladi. Oddiy davriya odatda 8 taktdan iborat bo‘ladi. Davriya ikki qismga bo‘linadi va ular


jumlalar deyiladi. Musiqaviy tuzilmaning tugallanishiga kadentsiya<sup>64</sup>{ XE "каденция" \b } deyiladi. Kadentsiya quyidagi ko‘rinishlarda uchraydi:

1) to‘liq o‘rnashgan kadentsiya – kuyda tonika uchtovushligining prima tovushi bilan tugaydi;

2) to‘liq o‘rnashmagan kadentsiya – tonika uchtovushligining tertsiya yoki kvinta tovushi bilan tugaydi;

3) yarim kadentsiya – noturg‘un tovush bilan tugaydi.

Agar davriya o‘zining dastlabki tonalligi bilan tugasa, yagona tonallik deyiladi.



Davriyaning tugallanish vaqtida modulyatsiya hosil bo‘lsa, modulyatsiyali davriya{ XE "модуляцияли даврия" \b } deyiladi.

Jumla ibora deb ataladigan ikkita kichik tuzilmaga bo‘linadi.

Bitta asosiy metr zarbini o‘z ichiga olgan tuzilma motiv{ XE "мотив" \b } deyiladi. Motivning boshlanishi yoki tugallanishi birgina takt chegarasida bo‘lishi shart emas, u takt oldidan boshlanishi va navbatdagi taktning yarmida tugallanishi ham mumkin. Musiqa amaliyotida bir taktdan kichik bo‘lgan motivlar ham uchraydi.

#### **4-§. KUYDAGI AYRIM ELEMENTLAR MUNOSABATINING MISOLLARDA KO‘RINISHI.**

Har bir element musiqa bayonining boshqa vositalari bilan munosabatda bo‘lgandagina uning ifoda kuchi seziladi: shuning uchun, musiqa tili elementlarini o‘rganish protsessida ularning o‘zaro munosabatlarini konkret misollarda ko‘rish maqsadga muvofiqdir.


<sup>64</sup> Kadentsiya – ital’yancha tugallanaman degan ma’noni anglatadi. Ents. muz. slovar’. M., 1959., b.95.

Tovushlarning balandlik o'lchovi va davr o'lchovi munosabatlari kuyning tuzilishi, xarakteri va rivojlanishini ifodalovchi asosiy elementlari hisoblanadi.


Musiqada, xususan kuyda, asos soluvchi va shakllantiruvchi asosiy narsa—ritm ekanligi darslikning 3-bobida ko'rsatib o'tilgan edi. Quyidagi kuylar mana shu aytilganlarga qo'shimcha misol tarzida keltiriladi:

Marsh xarakteridagi 4 hissali aniq va keskin usulning shtrixi(chorakliklarning tekisligini ta'kidlash) bilan qo'shilishi natijasida dadil qadam tashlab ketayotganlik taassurotini tug'diradi. Birinchi qismdagi har bir jumla boshida teng chorak ritmining 4 marta takrorlanishi, shuningdek, ovozning asta-sekin yuqorilashuvi va kuchaya borishi kuyga qat'iylik xarakterini beradi. Lad naqoratda (si-bemol minor-si bemol major) almashganidan keyin, kayfiyat yengillasha boshlaydi, qat'iylik kayfiyati naqarotning oxirgi taktlarida eshitiladigan dadillik kayfiyati bilan almashadi. Bular, kuyda bir tekis chorak zarblarning avjdan- ikkinchi oktavaning mi-bemol tovushidan (naqarotning 11-taktiga qarang) gamma bo'yab quyilasha borishi bilan ifodalangan.

Quyidagi kuy jo'shqin taassurotni ifodalaydi:



Bu kuyning obrazliligi tez sur'atning kuy harakatining izchil yuqorilashuvi, ritmning ravon qaytarilib turishi bilan birlashuvi va eshitilishning kuchayishi natijasida yuzaga keladi:




Umuman bu kuy kishida bahor boshlanishi va havo isishi bilan paydo bo'lgan xursandlik hissiyotini tasvirlaydi.

Kuydagi tovushlar past-balandligining o'zaro munosabati tabiiy qonunga bo'ysunib, yuqori tomon harakat jiddiy kayfiyatni aks ettirsa, quyi tomon harakat jiddiy kayfiyatni aks ettirsa, quyi tomon harakat jiddiy kayfiyatning pasayishini aks ettiradi.

Masalan:






Bir tekisda, ravon eshitiladigan bu kuyda Dnepr daryosining notinch paytlari tasvirlangan. Kuy tempining nihoyat vazmin bo'lishiga qaramay, u keng tabiat manzaralarini ishonchli qilib aks ettiradi. Kuy dastlab oktava oralig'ida uchtovushliklar bo'ylab keskin ko'tariladi, so'ngra ravon harakat bilan pastga tomon yo'naladi. Bu xildagi to'liqinsimon harakat kuyning hamma qismlari uchun xarakterlidir. Ikkinchi ibora birinchi iboraga nisbatan sekinroq bo'lsa ham, lekin keskin ko'tariladi, so'ngra pog'onama-pog'ona o'z tonikasiga qaytadi.


Kuyning ikkinchi qismi detsima intervali oralig'ida yanada keskinroq ko'tarilish (kvinta va kvarta intervallariga sakrash yo'li bilan) boshlanadi. Ravon va osoyishta xarakterda pastga tushadi, 4-ibora ham ikkinchi iboradagi to'liqinsimon harakatlarni qisman takrorlaydi.

Shunga ham e'tibor berish kerakki, kuyning barcha ko'tariluvchi holatlari yagona ritmik ketma-ketlik bilan ifodalangan:



Mazkur kuyning dinamikasi kuy harakati yo'nalmalariga butunlay bo'ysundirilgan va u bilan uzviy bog'langan. Bunda ham yuqorida ko'rsatilgan kuylardek keskin kayfiyatga avjning eng baland tovushlarida erishiladi.


Quyidagi kuy mazmuni kuydagi tovushlar balandligi, ritm va dinamika munosabatlarining tenglashishi natijasida yuzaga keladi:



Dastlab, aniq o'lovli ibora (ikki taktliklar )va takrorlanib turadigan ritm yo'lini payqab olish zarur.

Dastlabki ikki iboradagi melodic oborot-tuzilma oxiridagi kvintaning pastga sakrash-savol tariqasida eshitilib, harakatning davom ettirilishini talab qiladi. Keyingi ikki iborada sakrashdan so'nggi pog'onama-pog'ona harakat va dinamikaning kuchayishi osoyishtalik kayfiyatini yuzaga keltiradi; bu kayfiyatga kuyning quyilashuvchi umumiy harakati ma'lum darajada ta'sir etadi. Ikkinchi qismda kuy diapazoni ikkinchi oktava lya tovushiga ko'tarilib, yanada kengayadi. Ayrim iboralarning tovush balandligi va ritmik tuzilmalari xilma-xil dinamika bilan qo'shilgandan keyin, butun kuyga tabiiy ifoda kuchini beradi.

M. Glinkaning "To'rag'ay" mashhur romansi avjida keladigan modulatsiya kuyning ifoda kuchini yanada yangratish uchun ishlatiladi:



### ***Tayanch tushunchalar***

Kuy, modulyatsiya, og'ishma, kuyning tarkiblarga bo'linishi, tuzilma, tsezura, davriya, jumla, to'liq o'rnashgan va o'rnashmagan kadentsiya, yarim kadentsiya, yagona tonallik, modulyatsiyali davriya{ XE "модуляцияли даврия" \b }, ibora, motiv.

### ***Mavzuni mustahkamlash uchun savollar***

1. Kuy qanday tarkiblarga bo'linadi?
2. Tuzilma deganda nimani tushunasiz?
3. Davriya deb qanday qismga aytiladi?
4. Davriya nechta jumladan iborat?
5. To'liq o'rnashgan kadentsiya tovushqatorning qaysi pog'onasida tugaydi?
6. To'liq o'rnashmagan kadentsiya tovushqatorning nechanchi pog'onalarida tugashi mumkin?
7. Yarim kadentsiya deganda nimani tushunasiz?
8. Kuy deb nimaga aytiladi?
9. Musiqada kuyning ahamiyati qanday bo'ladi?
10. Kuy harakatining shakllari ninadan tuziladi?

11. Kuy harakati yoʻnalmalari va asosiy shakllari qanday boʻladi? Ularni birma-bir aytib bering.
12. Sekvensiya nima?
13. Kuyning eng yuqori nuqtasi nima deyiladi?
14. Kuy tovushlari balandligi oraligʻiga nima deyiladi?
15. Kuydagi akkord tovushlari oraligʻini toʻldiruvchi tovush nima deb ataladi?

## 18-BOB. MUSIQA BEZAKLARI VA DINAMIK OTTENKALAR.

### 1-§. MUSIQA BEZAKLARI VA IJROCHILIKNING OʻZIGA XOS USHLUBLARI.

Kuydagi milliylik xususiyatlarini yaqqol ifodalovchi, tovushning ohangdorligini taʼminlovchi tovushlarga **musiqa bezaklari** { XE "музыка безаклари" \b } deyiladi. Musiqa bezaklari oʻlchovi oʻzlaridan oldin keladigan choʻzimlar yoki bezatuvchi tovush choʻzimiga teng keladi, shuning uchun ularning oʻlchov hissalarini yigʻindisiga qoʻshilmaydi.

Musiqa bezaklarini koʻpincha asosiy tovushdan sekunda oraligʻida joylashadigan yordamchi tovushlar hosil qiladi. Ular nota yozuvida maxsus belgilar yoki kichik shriftli notalar bilan koʻrsatiladi.

Musiqada asosan quyidagi musiqa bezaklari qoʻllaniladi:

Forshlag, mordent, gruppetto, trelʼ, nola, molish va h.k.

**I. Forshlag ikki xilda uchraydi:** uzun va qisqa forshlag.

a) **qisqa forshlag** { XE "форшлаг" \b } bir yoki bir necha tovushdan tuzilib, yonma-yon joylashgan tovush choʻzimi hisobidan juda qisqa ijro etiladi. Bir tovushdan tuzilgan qisqa forshlag, oʻrtasidan chizilgan sakkiztalik nota koʻrinishida yoziladi. Bir necha tovushdan iborat qisqa qovurgʻachalar bilan birlashtirilgan oʻn oltitaliklar bilan belgilanadi.



b) **uzun forshlag** bir tovush yordami bilan yonma-yon turgan tovush choʻzimi oʻlchovida ijro etiladi. Uzun forshlagni ifodalovchi kichik nota belgisi asosiy tovush choʻziminin yarmiga teng keladigan oʻlchovda yoziladi va ijro etiladi. Uzun forshlagni ifodalovchi nota belgisi oʻrtasidan chizilmaydi.

V.Motsart. Val's.

yozilgan



ijro etilishi



**Mordent** yordamchi tovush asosiy tovushning ostki tomonidan chalinishi kerakligini bildiradi:

yozilgan



ijro etilishi



yozilgan



ijro etilishi



**Gruppetto** to'rt yoki besh tovushdan iborat kuy tuzilmasi shaklida bo'lib, unda tovushlar quyidagicha joylashadi: yuqorida yordamchi tovush, asosiy tovush, quyi yordamchi tovush va yana asosiy tovush. Gruppetto belgisi nota ustida yoki oralig'ida qo'yiladi. Uning ijro etilishi belgining qaysi xilda qo'yilishiga bog'liq bo'ladi. Bu belgining nota ostida yoki ustida qo'yilgan xromatik belgi yordamchi tovushning al'teratsiya qilinishi kerakligini bildiradi. Gruppetto belgisi qutida keltirilgan kuy parchasida keltirilgan belgi bilan ko'rsatiladi.

Andante



L. Beethoven. Sonata №1

Bir tekisda ravon almashib turadigan ikkita (asosiy va yordamchi) tovushdan tuzilgan kuy shakli **trel'**{ XE "трель" \b } deyiladi. Trel' qaysi tovush o'rnida ijro

etilsa, o'sha tovush cho'zimiga teng bo'ladi va quyidagicha belgilanadi:

Trel' belgisi nota ustidan qo'yiladi.

Andante grazioso



V.Motsart. Sonatina №13


Musiqa amaliyotida nota belgilaridan tashqari yana boshqa belgilar ham bor, ular odatda ijrochilik uslubini ko'rsatishda qo'llaniladi. Bularga: legato, stakkato, portamento va arpedjiatolar kiradi.

**Legato** { XE "Легато" \b } uslubi ma'lum tovushlarni bir-biriga bog'lagan holda ijro etilishini bildiradi va bog'lanadigan tovushlar yoysimon chiziq bilan birlashtiriladi. Masalan:



Legato belgisini tovushlar cho'zimini uzaytiruvchi **liga** belgisi bilan aralashtirmaslik kerak.

**Ligalar:** **Liga** nota cho'zimlarini birlashtiradi. Masalan, ikkita sakkiztalik nota birga qo'shib, bitta chorak notaga teng keladigan cho'zimni yaratadi. Liga **bir xil balandlikdagi** notalarni bog'laydi. Pauzalar esa hech qachon liga bilan bog'lanmaydi.



**Legato, Bouwings (ijro texnikalari):** Legato har xil balanddagi tovushlarni bog'laydigan egri chiziqdir. Legato quyidagini anglatishi mumkin: (1) notalarni iboraga yig'ib bog'laydi; (2) torli cholg'ular uchun: kamonning bir harakati bilan (yuqoriga yoki pastga) ijro etish; (3) ovoz uchun: bitta so'z bo'g'ini bilan kuylash; (4) puflama asboblar uchun: notalar orasida til ishlatmaslik. <sup>65</sup>



**Stakkato** { XE "Стаккато" \b } uslubi kuy tovushlarini, akkordlarni qisqa - qisqa va chertib ijro etish kerakligini ifodalaydi. Stakkato uslubi nota doirachalari ustida yoki ostida qo'yiladigan nuqtalar bilan ko'rsatiladi. Masalan:



**Portamento** { XE "Портamento" \b } yoki **glissando** uslubi xromatik gamma (fortepianoda diatonik gamma) bo'ylab pastga yoki yuqoriga tomon sirg'anish kerakligini bildiradi. Bunda bir-biridan keng intervalda joylashgan ikki tovush oralig'i

<sup>65</sup> Mark Feezell. Music theory fundamentals. High-yield music theory, vol.1. 2011



to'ldiriladi. Portamento ko'pincha ashula (vokal) ijrochiligi uchun, glissando esa cholg'u musiqasi ijrochiligi uchun xosdir. Portamento belgisi to'ldirilishi lozim bo'ladigan ikki notani birlashtiruvchi to'liqsimon chiziqdan iborat bo'ladi. Masalan:



**Arpedjiato** { XE "Арпеджиато" \b } uslubi akkordlarni alohida – alohida chalish kerakligini bildiradi, bunda akkord tuzuvchi tovushlar tez harakat bilan pastdan yuqoriga qarab chalinadi. Arpedjiato cho'zimi chalinadigan akkord cho'zimiga teng bo'ladi. Arpedjiato belgisi chalinishi lozim bo'lgan akkord oldidan qo'yiladigan to'liqsimon vertikal chiziqdan iborat bo'ladi. Masalan:



Yuqorida keltirilgan belgilar dunyo kasbiy musiqasida keng qo'llaniladi. Bundan tashqari, har bir xalqning o'z milliy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda musiqiy bezaklarning yana ko'plab ko'rinishlari qo'llaniladi. <sup>66</sup>

## 2-§. DINAMIK OTTENKALAR VA ULARNING KUY RIVOJI BILAN ALOQASI. DINAMIK OTTENKALARNING YOZILISHI VA ATALISHI.

Kuy harakati eshilitish kuchi darajasining o'zgarishiga bog'liqdir. Musiqada eshilitish kuchining turli darajalari dinamik ottenkalar deyiladi. Ular nihoyat kata ifoda kuchiga ega. Masalan kuyning ko'tariluvchi harakati eshilitish kuchini zo'raytirib boradi, quyilashuvchi harakati esa eshilitishning pasayishiga olib keladi.

Musiqasi asarlarining mazmuni dinamikaning umumiy darajasini ham ifodalaydi, masalan, "alla" sekin (piano) ijro etiladi, chunki bu xildagi musiqani kuchli tovush bilan aytib bo'lmaydi; tantanali, g'alaba marshi kuchli (forte) eshiltirmog'i kerak, bularni past ijro etib bo'lmaydi.

Dinamik ottenkalarining xilma-xilligini mavjud iboralar (terminlar) bilan aniq ifodalash mumkin emas, albatta.

<sup>66</sup> Music theory fundamentals-high-Yield music theory-64-page

Cholgʻu asboblari (fortepiano, skripka, violonchel singari asboblar) va inson ovozi yakka ijrochiga dinamik ottenkalarda mohirlik bilan foydalanib, rang-barang musiqaviy obrazlarni yaratish imkonini beradi. Bu jihatdan orkestr bilan xorning imkoniyati ham katta.

Musiqada odatda qoʻllaniladigan dinamik iboralar:

a) Muttasil kuchlilik darajasi:

fortissimo-ff— juda kuchli

forte-f—kuchli

mezzo forte-mf—oʻrtacha kuchli

pianissimo-pp—juda past

piano-p—past

mezzo piano-mp— oʻrtacha past

c) Muttasil oʻzgaruvchi kuchlilik:

crescendo yoki- kuchaytirish belgisi

poco a poco crescendo, sekin-asta kuchaytirish

diminuendo yoki-pasaya boorish belgisi

poco apoco diminuendo- sekin-asta pasayish

smorzando-tina boshlash

morendo-tina boshlash

v) Kuchlilik darajasini oʻzgartirish uchun:

piu forte-yana kuchli

meno forte-sal kuchli

sforzando-sf- ayrim tovushlarning keskin zarbi.

### ***Tayanch tushunchalar***

Musiqqa bezaklari, forshlag, mordent, gruppetto, trelʼ, nola, molish, qisqa forshlag{ XE "форшлаг" \b }, uzun forshlag, legato, liga, stakkato, portamento,{ XE "Портamento" \b } glissando, arpedjiato.

### ***Mavzuni mustahkamlash uchun savollar***

1. Qanday tovushlarga yordamchi tovushlar deb ataladi?
2. Musiqaviy tuzilmaning ayrim tarkiblari oʻrtasidagi toʻxtalish nima deb ataladi?
3. Musiqaviy tuzilmaning qaysi koʻrinishi davriya deyiladi?
4. Musiqaviy jumla nima?
5. Musiqaviy tuzilmaning tugallanish qismi qanday ataladi?
6. Kadensiya turlarini va ularning har birining xususiyatini aytib bering.



7. Davriya uchun qaysi ko‘rinishdagi kadensiya xarakterli?
8. Qanday davriya yakka tonlik deyiladi?
9. Qanday davriyaga modulyatsiya qilingan davriya deyiladi?
10. Musiqaviy jumalarning bo‘linishi natijasida hosil bo‘lgan tuzilmalar nima deb ataladi?
11. Musiqaning xilma-xil balandlik darajasi nima deyiladi?
12. Muttasil balandlik darajasi, almashinuvchi balandlik darajasi va sekin-asta o‘zgaruvchan dinamik ottenkalarni aytib bering.
13. Kuy qanday tarkiblarga bo‘linadi?
14. Tuzilma deganda nimani tushunasiz?
15. Davriya deb qanday qismga aytiladi?
16. Davriya nechta jumladan iborat?
17. To‘liq o‘rnashgan kadensiya tovushqatorning qaysi pog‘onasida tugaydi?
18. To‘liq o‘rnashmagan kadensiya tovushqatorning nechanchi pog‘onalarida tugashi mumkin?
19. Yarim kadensiya deganda nimani tushunasiz?
20. Qaysi belgilarga musiqa bezaklari deyiladi?
21. Forshlagning necha ko‘rinishi mavjud?
22. Gruppettoga misol keltiring.
23. Mordent qanday holatlarda qo‘llaniladi?
24. Trel’ qanday vazifani bajaradi?
25. Portamentoni amaliy tarzda tushuntiring.
26. Glissandoni misollar bilan tushuntiring.
27. Arpedjiatoga misollar keltiring.

## TESTLAR

“Musiqqa nazariyasi” fani bo’yicha 1-variant test savollari

1

<b>Musiqaviy tovushlar nazariy jihatdan necha xil fizik xususiyatga ega.</b>
A. 3. uzunlik, qattqlik va tembr.
B. 4. balandlik, uzunlik, qattqlik va tembr.
S. 5. balandlik, diatonik, qattqlik, diez va major.
D. 6. oktava, balandlik, diatonik, qattqlik, diez va major.

2

<b>Oktavalarining pastdan yuqoriga tomon joylashishi qaysi javobda to’g’ri ko’rsatilgan?</b>
A. kontroktava, katta oktava, kichik oktava, birinchi oktava, ikkinchi oktava, uchinchi oktava, to’rtinchi oktava, beshinchi oktava.
B. birinchi oktava, ikkinchi oktava, uchinchi oktava, to’rtinchi oktava, beshinchi oktava.
S. subkontroktava, kontroktava, katta oktava, kichik oktava, birinchi oktava, ikkinchi oktava, uchinchi oktava, to’rtinchi oktava, beshinchi oktava.
D. katta oktava, kichik oktava, birinchi oktava, ikkinchi oktava, uchinchi oktava, to’rtinchi oktava, beshinchi oktava.

3

<b>Musiqiy tovushqatorning eng past tovushidan eng yuqori tovushigacha bo’lgan umumiy hajmi.....deyiladi.</b>
A. Notalar cho’zimi
B. Musiqiy diapazon
S. Legato
D. 32 talik nota

4

<b>Dinamik belgilar nimani bildiradi?</b>
A. Kuyning rivojlanishi.
B. Eshitilishning pasayishi.
S. Eshitilishning balandligi.
D. Eshitilish kuchining turli darajalari.

5

<b>Diminuendo belgisi nima?</b>
A. Sekin asta tina boshlash
B. Kuchaya borish belgisi
S. Baland ijro etish belgisi

D. Bir xil balandlikda ijro etish belgisi

6

**Aktsent tushmaydigan hissalar qanday hissalar?**

A. Metr.

B. Kuchsiz.

S. Kuchli.

D. Taktoldi.

7

**Garmonik eshinish qanday bo'ladi?**

A. Birin ketin eshinishgan tovushlar.

B. Uch tovushlik

S. Bir vaqtda eshinishgan tovushlar.

D. Intervallar.

8

**Qaysi intervallar nohangdosh intervallarga kiradi?**

A. Sof va kamaytirilgan.

B. Sof va kichik

S. Soflar.

D. Orttirilgan va kamaytirilganlar.

9

**Uchtovushlikning to'rtinchi bosqichi qanday ataladi?**

A. &.

B. D.

S. S.

D. T.

10

**Do kaliti necha xil bo'ladi?**

A. Alt va tenor

B. Tenor va bas.

S. Tenor va altino.

D. Alt va bas.

11

**Orttirilgan intervallar qaysilar?**

A. Barcha javob to'g'ri.

B. Ort1, ort2, ort3, ort5, ort6, ort7, ort8.

S. Ort1, ort2, ort4, ort5, ort6, ort7, ort8.

D. To'g'ri javob yo'q.

12

<b>“Es” qaysi tovushning harfiy belgisi?</b>
A. Re bemolъ.
B. Do bemolъ.
S. Mi bemolъ.
D. Fa bemolъ.

13

<b>Yarim notada nechta 32 talik bor?</b>
A. 18.
B. 16.
S. 24.
D. 23.

14

<b>Uchtovushlikning asosiy tovushini ko’rsating?</b>
A. kvinta
B. tertsiya
S. sekunda
D. prima

15

<b>kich.3+kat.3 qanday uchtovushlik hosil qiladi?</b>
A. minor
B. major
S. kamaytirilgan
D. orttirilgan

16

<b>Asosiy pog’onalarning pasayishi yoki ko’tarilishi natijasida hosil bo’ladigan pog’onalar qanday ataladi?</b>
A. asosiy
B. hosila
S. diatonik
D. xromatik

17

<b>“Bemolъ” so’zi nimani anglatadi?</b>
A. bir ton pasayishi
B. tovushning bir ton ko’tarilishi
S. tovushning yarim ton pasayishi
D. yarim ton ko’tarilishi

18

<b>“Do” - “solъ” gacha bo’lgan oraliqda nechta yarim ton bor?</b>
---

A. 4
B. 3,5
S. 2,5
D. 7

19

<b>Metr nima?</b>
A. kuchli va kuchsiz hissalarining birgalikda kelishi
B. kuchli hissaning bo'rttirib ko'rsatilishi
S. kuchli va kuchsiz hissalarining almashinib kelishi
D. aktsent kuchsiz xissaga berilishi

20

<b>Diatonik yarim ton qaysi?</b>
A. E-F
B. C-D
S. F-G
D. A-H

21

<b>Interval nechta tovushdan iborat?</b>
A. 3
B. 2
S. 4
D. 6

22

<b>Ort11 qaysi interval?</b>
A. Detsima
B. Duodetsima
S. Undetsima
D. Nona

23

<b>5/4, 7/4 qanday o'lchovlar hisoblanadi?</b>
A. oddiy
B. aralash
S. murakkab
D. o'zgaruvchan

24

<b>2,5 tondan iborat intervalni toping?</b>
A. kvinta

B. sekunda
S. katta tertsiya
D. kvarta

25

<b>Oktava nima?</b>
A. bir xil nomdagi tovushlar oralig'i
B. yettita tovush
S. fortepianodagi oq va qora klavishlar
D. ikki tovush oralig'i

26

<b>Yarim nota oldiga nuqta qo'yilsa nechiga sanaladi ?</b>
A. 1 hamga
B. 3 hamga
S. 4 hamga
D. 2 hamga

27

<b>“Liga” qanday belgi?</b>
A. tovush cho'zimlarining yarmini uzaytirish
B. balandligi har-xil tovushlarni qo'shuvchi belgi
S. har xil va bir xil balandlikdagi ikkita tovush ohangini birlashtiruvchi belgi
D. balandligi har-xil va bir xil tovushlarni qo'shuvchi belgi

28

<b>Interval deb nimaga aytiladi?</b>
A. frantsuzcha nota
B. frantsuzcha prima
S. lotincha garmoniya
D. lotincha oraliq, masofa

29

<b>Ladning beshinchi bosqichi nomi?</b>
A. T
B. S
S. D
D. VII

30

<b>Diez belgisi nimani anglatadi?</b>
A. tovushni yarim ton ko'taradi.
B. tovushni bir ton yuqori ko'taradi.
S. tovushni yarim ton pasaytiradi.

D. Alteratsiyalangan tovushlarni o'z holiga qaytaradi.

2-variant

1

..... deb tovushning sifat xususiyati, uning rang-barangligiga aytiladi.

A. uzunlik,  
B. balandlik,  
S. tembr.  
D. qattqlik

2

**Musiqaviy tuzilmadagi tovushlar mutlaq balandligining muayyan o'zaro ta'sir etishi ..... deyiladi.**

A. Musiqaviy tuzilma  
B. Musiqaviy soz  
S. Xarakterli interval  
D. Temperatsiyalangan soz

3

..... deb- ovoz yoki cholg'u sozining alohida xarakterga ega bo'lgan tovush tusi bilan ajralib turadigan qismi (bo'lak, parcha)ga aytiladi.

A. Muziqiy bezak  
B. Tovushning fizik xususiyati  
S. Ton  
D. Registr

4

**Fortissimo G'G' dinamik belgisi qanday ijro etiladi?**

A. Juda kuchli.  
B. O'rtacha kuchli.  
S. Juda past.  
D. Kuchli.

5

**Fermato nima?**

A. Kuchli.  
B. Tovushni cho'zib turish.  
S. Sal kuchli.  
D. Baland ijro.

6

**Legato uslubining ijro holati qanday bo'ladi?**

A. Tovushlarni alohida-alohida ijro etish.



B. Tovushlarni sirg'anish holda ijro etish.
S. Tovushlarni bir-biriga bog'langan holda ijro etish.
D. Tovushlarni qisqa ijro etish.

7

<b>Uchtovushlik nima?</b>
A. Uch ovoqli akkord.
B. Akkord.
S. Uch tovushdan iborat tertsiya bo'yicha joylashgan uchta akkord.
D. Uch tovushdan iborat tertsiya bo'yicha joylashgan akkord.

8

<b>Uchtovushliklarning asosiy, o'rta va yuqori tovushi qanday ataladi?</b>
A. Prima, oktava, tertsiya.
B. Prima, sekunda, seksta.
S. Prima, tertsiya, kvinta.
D. Tertsiya, kvinta, oktava.

9

<b>Major so'zining ma'nosi nima?</b>
A. Katta.
B. Katta va kichik.
S. Lad.
D. Kichik.

10

<b>Major uchtovushligi qanday tuziladi?</b>
A. Kichik 3 + kichik 3.
B. Katta 3 + kichik 3.
S. Kichik 3 + katta 3.
D. Katta 3 + katta.3.

11

<b>Yarim ton deb nimaga aytiladi?</b>
A. Diez qo'shilgan tovushga.
B. Ikkita yonma-yon tovushga.
S. Ikki tovushning eng yaqin oralig'iga
D. Bemol qo'yilgan tovushga.

12

<b>A- qaysi tovushning harfiy belgisi?</b>
A. Mi.
B. Lya.
S. Si.

D. Do.

13

**Temp deb nimaga aytiladi?**

A. Musiqiy asarning ijro vositasiga.

B. Musiqa asarining ijro belgisiga.

S. Musiqiy asarning yozuviga.

D. Musiqiy asarning ijro tezligiga.

14

**Uchtovushlikning pastdan ikkinchi tovushi nima deb nomlanadi?**

A. tertsiya

B. prima

S. kvinta

D. sekunda

15

**4 tondan iborat intervalni toping?**

A. kichik septima

B. kichik seksta

S. kvinta

D. kvarta

16

**Ikki tovushning eng kichik oralig'i necha tondan iborat?**

A. 1 ton

B. 2 ton

S. 0,5 ton

D. 1,5 ton

17

**“rit” qanday ijro etiladi?**

A. Tezlatish

B. Muayyan balandlikda

S. Qattiq ijro

D. Tempning sekinlashishi

18

**Alʼteratsiya nima?**

A. tovushning cho'zimini o'zgartirish

B. tovushning tembrini o'zgartirish

S. tovushning balandligini o'zgartirish

D. tovushning qattiqligini o'zgartirish

19

<b>O'lchovning yuqori raqami nimani bildiradi?</b>
A. hissalarining sonini
B. har hissaning cho'zimini
S. intervalni
D. al'teratsiya belgisini

20

<b>Nomdosh tonalliklarni ko'rsating?</b>
A. E dur-hmoll
B. G dur-g moll
S. a moll-D dur
D. H dur-f moll

21

<b>Intervalning pastki tovushi nima deyiladi?</b>
A. kvinta
B. cho'qqi
S. asos
D. seksta

22

<b>Kvintol o'z ichiga nechta notani oladi?</b>
A. 2
B. 5
S. 7
D. 4

23

<b>4/4, 9/8 qanday o'lchovlar hisoblanadi?</b>
A. aralash
B. o'zgaruvchan
S. oddiy
D. murakkab

24

<b>1 ta diezi bor major tonalligini toping?</b>
A. G dur
B. N dur
S. D dur
D. A dur

25

<b>Qaysi qatorda oktavalar to'liq ko'rsatilgan?</b>
A. kontor, subkontr, katta, kichik, 1,2,3,4,5 oktavalar

B. subkontr, kontr, katta, kichik , 1,2,3,4,5 oktavalalar
S. subkontr, kontr, kichik oktava, katta oktava. 1,2,3,4,5 oktavalalar
D. subkontr, katta oktava. kichik oktava, 1,2,3,4,5 oktavalalar

26

<b>CHorak nota necha hanga sanaladi ?</b>
A. 2 hanga
B. 4 hanga
S. 1 hanga
D. 3 hanga

27

<b>“Bas” kaliti qaysi nota yo’lida joylashgan?</b>
A. qo’shimcha nota yo’lining 4 chizig’ida
B. asosiy nota yo’lining 5 chizig’ida
S. asosiy nota yo’lining 3 chizig’ida
D. asosiy nota yo’lining 4 chizig’ida

28

